O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING MA’NAVIYAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI DEPARTAMENTI

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI

# ONA TILIM – MANGU MAKONIM

YANGI ASR AVLODI

**UO'K: 821.512.133**
**KBK: 84(5O'z)7**
**O – 80**

Ona tilim – mangu makonim: she'rlar / To'plab nashrga tayyorlovchilar: M.Zohidova va boshq. Mas'ul muharrir A.Said va boshq. Old muqovada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 384 b.

ISBN 978-9943-8590-5-0

Til – har bir xalqning, har bir millatning tarixini, ma'naviyatini, madaniyatini ifodalovchi vositadir. Aynan shuning uchun ham til Davlat suverenitetining asoslaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Millat boyligi hisoblangan tilni madh etish, e'zozlash har bir fuqaroning, ayniqsa, shoirlarning muqaddas burchidir.

Mazkur kitobda ona tilimiz – o'zbek tiliga bag'ishlangan she'rlar to'plandi va keng kitobxonlarga taqdim etilmoqda. Maqsad – sohir so'z egalarining tashbehi bilan tilimizni yana bir karra ulug'lash va eng chiroyli ta'riflar bilan ko'ngillarni zabt etishdir.

To'plam tilimizga Davlat tili maqomi berilganining 33 yilligiga bag'ishlanadi.

**Mas'ul muharrirlar:**
Aziz Said, Faxriddin Hayit, Rustam Mirvohid

**To'plab nashrga tayyorlovchilar:**
Ma'mura Zohidova, Muhammadsiddiq Rahmatov,
Jontemir Toshtemirov, Nurmuhammad Abduzoirov

ISBN 978-9943-8590-5-0
© «Ona tilim – mangu makonim». «Yangi asr avlodi», 2022-yil.

## SHE’RIYAT TIL UMMONIDA

O‘zimizga, o‘z aql-idrokimizga bir tasavvur qilib ko‘raylik: agar bepoyon ko‘k yuzida quyosh porlab tursa-yu birdan Yer yuzidagi barcha katta-kichik xalqlarning tillari banogoh yo‘qolib qolsa, o‘sha ondayoq jamiki puchmoqlarda qiyomat qoim boshlanar – oxirzamon kirardi. Odamzodning rango-rang tillari xuddi tiriklik uchun o‘t, havo, suv kabi. Til tiriklik, jon va ruh mavjudligining sharti. Inson uchun eng zarur aloqa, muomala, muloqotlar, ichki ruhning baravji kamoloti uchun, ijodkorlik, ilmlar jamuljamining vositayi ijrosidir. Ammo odamzod ko‘p vaqt suv, havo, o‘t, yorug‘lik haqida o‘ylab o‘tirmagandek, o‘z muomalalari asosida turgan kamtarin tilni ham o‘ylamaydi. Undan istaganicha va istamaganicha foydalanadi-yu, ammo kamdan-kam g‘amxo‘rlik qiladi, taraqqiyoti ustida har damda bosh qotirish va harakat qilish kerakligini ko‘p-da o‘ylab o‘tirmaydi. Inson jadal bosh qotirmasa, tabiatning azal ilohiy resurslari bizga bilintirmay kamayib, bog‘-u bo‘stonlar sahrolarga aylanib boraveradi. Insoniyatning qancha qimmatli tillari vaqt sahrolariga singib, qarovsizlikdan adam bo‘lib ketdi. Ha, til bo‘lmasa, Yer yuzida hayot to‘xtaydi. Yer yuzida xalqlarni qo‘llab-quvvatlab o‘zaro murosada yashamoqlikning asosi Xudo yaratgan har bir tilda. U munosib, tinch yashashga chaqiradi, odamzodni uning turli ziddiyatli, fojiali amallaridan hatto qo‘riqlab, saqlab turadi.

Bu juda katta adabiy-badiiy she’riy to‘plam. U katta bepoyon manba ichidan saralab olingan. Unda o‘zbek va qoraqalpoq shoirlarining asarlari jam. Balki hali shunchalikda ham to‘la emasdir. Bunday maxsus tematik to‘plam tuzish-

ning butun mas’uliyatini shoirlarning o‘zlari o‘z zimmalariga olganlar. Ularga departament va jamg‘arma ko‘mak bergan. Salobatli to‘plamda O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston shoirlarining bir necha avlodlari qatnashganlar. Bir emas, bir necha avlod shoirlari til haqidagi o‘ylari, orzulari, armonlari, dardli, iztirobli tasavvurlari mujassamlashgan bu to‘plamda. Ularda faxr-iftixor, g‘urur, shukronalik va shu bilan birga taraqqiyot yo‘llarida bo‘lganidek alamli o‘rtanishlar, yo‘qotilgan imkonlar haqida faryodlar ham dam-badam jo‘sh urib turadi. Til osuda tiniq ummon emas, doim g‘alayonli ummon, adolatsizliklardan uvvos va gulduros tortib turadigan ummon.

Milliy tilning tarixi, taraqqiyot yo‘llari, bosqichlari haqida eng ko‘p va doimiy, hatto muttasil muhokama diskurs yaratadigan odam qavmlari bular – shoirlar va hakimlar. Hakimlar tilni hikmat deydilar. Shoirlar tilni bir og‘izdan yurakka qiyos qiladilar. Til mislsiz rang-barang tuyg‘ularni yuzaga keltiradi. Insonni ulug‘ zot ekanligini ko‘rsatadigan ilhom, e’joz ham til orqali tajassum topadi. Va bepoyon so‘z shakllariga aylanadi.

Odam ulug‘ligining vositasi – til edi. Avvalda kalom degan ilohiy ibora shundan qoldi. Til aloqa mo‘jizasi ekanligi anglangach, hayvondan butkul ajraldi. Hayvonlarga tiriklikning bu kungacha yetib kelgan bosqichida hayvonlar hamda qushlarga faryod va ohang tovlanishlari qoldi. Shoirlar va mug‘anniylar til va uning mohiyat-mazmuni, vazifalarini nihoyatda teran his qiladilar. Ular yoza turib ilhomlanadilar va ilhomlana turib yozadilar. Tilga mo‘jiza, mislsiz tarzda inson va millat ehtiyojlarini qondiradi, deb qaraydilar. Axir, inson ehtiyojlarni qondirish mo‘jiza emasmi? Bu atrofda eng maftunkor so‘zlarni Navoiy aytgan, Bu boralarda har bir so‘zini dur-zabarjadga teng qo‘ygan:

*Ul kishi so‘z bahrida g‘avvos erur –*
*Kim guvhari ma’ni anga xos erur*

Navoiy so'zni bahrga, odamni g'avvosga mengzamoqda. So'z durlarini ummonlarda g'avvos shoirlar, hakimlar teradi va insoniyatga tortiq qiladi.

«Tilda xalq o'zligi, zakovati, irodasi mujassam» (Bolta Yoriyev) deyishadi shoirlar, «Til yuragi, yurak tili – o'zbek tili» (Saodat Muhamedova) ta'riflarni tobora quyuqlashtirib, obrazli tafakkurga zo'r berishadi. Yana biri tilning o'z ichki kurashchanligi mavjudligini qayd etib, «buhronlardan sog' chiqqan tilimsan» deb alqaydi. «Ardog'imiz, bayrog'imiz, borlig'imiz o'zbek tili» deb masrurlanadi yana bir ijodkor. Abdunabi Hamro esa: «Tilning rivoj yo'li – bulbul yo'lidir» deb yana shoirona fikrni bir parda balandlatadi. Bu yerdagi she'rlarning qaysi birini olsangiz ham ularda shunday shoirona baland pardalar uzalgan o'ktam so'zlar ko'p. Ularni siz azizlarimga maqtanib misol keltiraman, desam, ulkan to'plamni bir boshdan aytib chiqishim va eng yosh shoiri zamonlarimizga ham tiniq fikrlari, obrazlari uchun tasannolar aytishimga to'g'ri keladi. Fikrlarda shoirona, ba'zan ilmona, hakimona bayonlar, diskurslar ham uchraydi. Ammo Abdunabi Hamroning boya ko'rsatganim «bulbul yo'li» degan iborasi meni o'ylatmay tinch qo'ymaydi. Albatta, bu shoirona tasavvurlarning biri. Lekin unda haqiqat oz, shoironalik esa juda bisyor. Menimcha, milliy tilning rivoj yo'li okeanlarga mengzalgan yo'ldir. Unda doimiy dolg'alar va yashash, o'sish uchun kurash boradi. Bir qancha nozik mijozli shoirlar tilning o'sish yo'lini o'z insoniy o'sish yo'llariga qiyos qiladilar. Bu menga juda po'rim keladi. Agar odam, agar shoir, agar ijodkor milliy til bilan birga barobar o'sib borayotgan va bu tasavvur she'r tiliga kirgan ekan, bu insonlikning sharafidir. Navoiy shunday sharaf haqida ko'p va xo'b muhokamalar yuritgan. XX – XXI asr shoirlarimiz Navoiyning bu millatni millat qilgan muhokamalaridan benihoya bahrador ekanliklari javlon solib turadi. Misol uchun Shavkat Rahmondan to she'riyatimizning

hozirgi zamon vakillari – Alibek Anvariy, Jontemir, Xurshid Abdurashid, Nasrullo Ergashgacha tilning oʻsish yoʻlini yurak ogʻriqlari ila tuyadi va ifodalaydilar.

«Men turkiy tillar devoni haqida roman yozayapman», dedi bir kuni iztirob bilan Iqbol Mirzo. Men unga hayron termilib qoldim. Bunchalar jasoratni qaydan oldi fargʻonalik bu shoir yigit? Lekin guvoh boʻlib turibman bunday jasoratlar uzra jasorat paydarpaylik hayot nomini aytib kirib kelmoqda. Ey tilimiz taraqqiyotini yurak yonishlari qadar anglagan-bilgan orif insonlar, jiddu jahdlaringiz ulugʻ ijod obidalariga aylansin. Siz milliy tilimizning yonayotgan tarixi oralab oʻtib bormoqdasiz. Bu alanga hech qachon soʻnmagay va oxir-oqibat moʻjizalar bunyod etgay, omin, Rabbil olamin.

Men uchun tugal bir davroni zavqiyobiy boʻldi sheʼr alangalari bilan oʻrtoqlashish, sheʼr okeanlarida quloch otish naqadar fayzli koʻrinadi odamga!

***Ibrohim GʻAFUROV,***
***Oʻzbekiston Qahramoni***

## *Alisher Navoiy*
## *(1441 – 1501)*

### TURKIY TIL NAZDIDA

Chunki toptim ul kalom ichra kamol,
Turk alfozi bila surdum maqol.
Turk nazmida chu men tortib qalam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

* * *

Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat;
Kim shuhrati jahonga toʻlgʻay,
Turki bila dagʻi bahra olgʻay.
Chunki bu kun jahonda atrok
Koʻptur xush tabʼ, sof idrok.

* * *

Soʻz guharigʻa erur oncha sharaf,
Kim boʻla olmas anga gavhar sadaf.

Til bu chamanning varaqi lolasi,
Soʻz dururidin boʻlubon jolasi.

Soʻzdin oʻlikning tanida ruhi pok,
Ruh dogʻi tan aro soʻzdin halok.

Turguzub oʻlgani kalomi fasih,
Oʻzigʻa «jonbaxsh» laqab deb Masih.

Tangriki, insonni qilib ganji roz,
Soʻz bila hayvondin anga imtiyoz.

Gʻuncha ogʻizliq, sanami noʻshlab,
Soʻzdin agar aylasa xomush lab.

Donayi dur soʻzini afsona bil,
Soʻzni jahon bagʻra durdona bil.

## «MUHOKAMAT UL-LUGʻATAYN»DAN:

* * *

Ey soʻz bila qilgan borliq ibtidosin soz,
Insonni orada aylab Oʻziga hamroz.
«Boʻl! desa boʻlur» sahifasi yozilganda,
Qilgan uni nutq bila boridin mumtoz.

* * *

Soʻz bir gavhardirki, darajalarin
Sharhida notiqlar nutqlari ojiz.
Yomon soʻz halokat yetkazganidek,
Ezgu soʻz Masihday koʻrguzur moʻjiz.

* * *

Toki falak aylanur davom boʻlsin unga,
Iqbol bisotida maqom boʻlsin unga.
Ham nutq bila jonbaxsh kalom boʻlsin unga,
Ham nazm kalomlari mudom boʻlsin unga.

* * *

Bu nomaniki, yozdi qalamim cho‘zib til,
Tarixin uning jumodiyul-avval bil.
Kunning hisobini chorshanba qilg‘il,
To‘qqiz yuz yildin o‘tib erdi besh yil.*

# *Muhammadrizo Ogahiy*
# *(1809 – 1874)*

* * *

Ko‘ngul bir bahri zaxxor andadur pokiza gavhar so‘z,
Vale shart ulki ma’ni shohidig‘a bo‘lsa zevar so‘z.

Ne mushkuldur erurkim bir so‘zimni aylamas bovar,
Valekin bovar aylar muddaiylar gar desa har so‘z.

Xamush ersam tong ermas yor lutfi shahdidin ayru,
Ki to‘ti ayta olmas gar esa mahjur shakkar so‘z.

So‘ziga boq agar bilmoq tilarsan kimsa ahvolin,
Ki asrori nihoni suratig‘a keldi mazhar so‘z.

Ajab ermas so‘zim gar bavar etmas hosidi johil,
Ki takzib etgusi bu jahl agar desa payambar so‘z.

Debon g‘aflat elig‘a pand zoye qilma so‘znikim,
Eshitmak mumkin ermas gar desang har nechakim gar so‘z.

Qilib so‘zni vasila istasang olam aro izzat,
Ki dahr ahli qoshida keldi ma’yub-u muhaqqar so‘z.

So‘zingga ahli dunyo olida qadr istama hargiz,
Rafiul-qadr ekanni na bilsin gov ila har so‘z.

Debon har sangdilga, Ogahiy, sindurmag‘il so‘zni,
Ki inson obro‘si afsarig‘a keldi gavhar so‘z.

## *Abdulla Avloniy*
## *(1878 – 1934)*

* * *

Ey ona til, aziz qadrdonim,
Iltifoti ruhim, Rahmonim.
Tug'dig'im kundan aylading ulfat,
O'lguncha ayilma, ey jonim.
Menga ilm-u adab san o'rgatding,
Chin adib, muallim, shonim.
Millatning ruhini ko'targuchisan,
Ey muqaddas karamli sultonim.

## *Avaz O‘tar*
## *(1884 – 1919)*

### TIL

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur[1].

G‘ayri tilini sa’y qiling bilgali, yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar bilaki andin ayondur.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g‘ayrat eting, foydali kondur.

Ilm-u fan uyiga yuboringlar bolangizni,
Onda o‘qug‘onlar bori yaktoyi zamondur.

Zor o‘lmasun onlar dag‘i til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidin oni bag‘ri to‘la qondur.

---

[1] Olamiyon (fors.) – olam ahli.

## *Elbek*
## *(1898 – 1939)*

### TIL

Mungli qushim, sayrab-sayrab kel, anglat,
Kimlar erur turk tilini sotg‘uchi?
Bulbul kabi sayrab turg‘on bu tilni
Uyalmayin bu o‘lkadan otg‘uchi?
Bolday totli, jondan aziz turkchani
Tushunmayin, xo‘rlab-xo‘rlab yotg‘uchi?
Mungli qushim, ularni qo‘y, sen sayra!
Turk tilining dong‘in chiqar ko‘klarga!
Qo‘y ularni, ular yo‘ldan ozsunlar,
El ichida bo‘sh-bo‘g‘uozliq sotsinlar!

## TURKIY TIL

Turkiy tilingni, ey turk, hamxonalarga oʻrgat,
Himmat qiluvchi boʻlsang, begonalarga oʻrgat.

Bechora kambagʻal deb, oʻz tilni qilma tanqid,
Til konigʻa ochib yoʻl sarsonalarga oʻrgat.

Har kimsadan tilab til el yurmasun gadodek,
Til boyligʻini sen ham farzonalarga oʻrgat.

Ilgidagi qalamgʻa kelturmasun haqorat,
El kulmasun ul aqlli tifnolarga oʻrgat.

May ichmasun birovning sarqindi kosasidan,
Bad mashrab etgay ul may mastonalarga oʻrgat.

Kim kirsa ikki yoʻlgʻa, ul oʻz yoʻlin yoʻqotgay,
Shu yoʻl boshida turgan hayronalarga oʻrgat.

Mahjuriyni shu tilga oshiqligini bilsang,
Mahbubayi chuchuk til jononalarga oʻrgat!

*Arab yozuvidan Muqimjon*
*NURBOYEV oʻzbekchalashtirdi*

## *Botu*
## *(1904 – 1938)*

### NAVOIY

Bir zamonlar elimiz
Qorongʻuda qolmishdi.
Bu choqlarda tilimiz
Yorli ism olmishdi.

U choqlarda yetishgan
Bizning adib, shoirlar
Toʻgʻri yoʻldan ozdilar;
Oʻzga elning tilida
Ancha asar yozdilar.
Oʻz tilini yomonlab,
Oʻzga tilni sevdilar.
Arab, forsiy tillarin
«Goʻzal tildir», dedilar.

«Bu tushuncha yanglishdir,
Oʻz tilini sevmaslik
Eng yaramas bir ishdir.
Biz yashamoq istasak
Tilimizni sevaylik.
Bizning tilni yaramas,
Yorli degan kishilar
Yanglishlar, shubhasiz,
Bizning til ham boy tildir»,
Dedi ongli bir kishi.

Arab, forsiy qullari
U so‘zlarni eshitgach,
Xaxolashib kuldilar.
Mazax qilib: «Bu kishi
Telba bo‘lmish», dedilar.
Bunday yanglish so‘zlarga
U kishi hech boqmadi.
Buyuk tilak yo‘lida
Kecha-kunduz ishladi.
So‘zlarining haqligin
Ishlar bilan ko‘rsatdi.

«U kishi kim?» desangiz,
Aytib beray, o‘rtoqlar.
U kishini bilsangiz,
Buyuk shoir Navoiy.

Shuning uchun, bolalar,
Navoiyni sevaylik.
Navoiyning otini
Oltin bilan yozaylik.

## *Mirtemir*
## *(1910 – 1978)*

### ONA TILIM

Yobonlarning cheksizligi,
Ham samumi, ham hovuri,
Onajonlar allasidan
Koʻz yoshidan, oq sutidan,
Toʻqaylarning tengsizligi,
Jilgʻalarning shoʻx hovuri,
Yigitlarning yallasidan,
Suluvlarning sukutidan
Yoʻgʻrilgan til – Ona tilim.

Daryolarning toshqin payti,
Arslon yanglig‘ arillashi,
Dovonlarning koʻk qiyosi,
Qorli togʻlar jilosidan,
Choʻponlarning qamish bayti,
Childirmaning darillashi,
Goʻroʻgʻlining alp siymosi,
Alpomishning da’vosidan –
Tugʻilgan til – Ona tilim.

Tulporlarning asovligi,
Tosh chaqishi, olovligi,
Bobolarning oltin soʻzi,
Boʻyoqchining oʻlanidan:

To‘quvchining alg‘ovligi,
Chilangarning dalg‘ovligi,
Bu tuproqning qo‘sh ho‘kizi,
Qo‘shchisi ham qo‘lanidan –
Yaralgan til – Ona tilim.

Shu tuproqning jon ayamas
Tarlonlari, burgutlari,
Kelinlarning dildoshligi,
Yor-yorlarning jarangidan;
Bosqinlarning bedodligi,
Buvilarning o‘gitlari,
Do‘mbiraning mungdoshligi,
Dutorning ham tarangidan –
Taralgan til – Ona tilim.

## TILIM

Gullasin Vatanim, yashnasin elim,
Baxt-u saodatdan yayrasin dilim,
Armoni yo‘q nison bo‘lay dunyoda,
Dilim quvonchini so‘ylasa tilim.
Ona tilim obro‘sin ko‘taray ko‘kka,
Men ham intilaman doim yuksakka,
Vatanga muhabbat, tilga sadoqat,
Har kimni yetkazar ezgu tilakka.
O‘zbek tili – mening ona tilimdir,
Har bir kuy-g‘azali g‘uncha-g‘ulimdir,
O‘z ona tilimni chin dildan sevmoq,
Bilaman, men tutgan to‘g‘ri yo‘limdir.

## ONA TILIM

Ona tilim – onajonim tili bu,
Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa.
El-u yurtim, xonumonim tili bu,
Qadimlikda oʻxshar ona tuproqqa.

Bobolardan bizga meros ezgu til,
Avlodlarga xazina-yu bebaho.
Qalbimizga, ruhimizga koʻzgu til,
Bu dunyoga bagʻishlaymiz ne daho.

## *Shuhrat*
## *(1918 – 1993 )*

### ONA TILIM

Oh, ona tilginam, muqaddas tilim,
Bir og‘iz so‘zingga jonim tasadduq.
Bunchalar shirinsan, bunchalar so‘lim,
Bormikin ajib til sendan ham ortiq.

Sen onam tilisan, otam tilisan,
Sen bobom tilisan asrlar oshgan.
Mehrda beqiyos nozik gulisan,
G‘azabda quturib Amuday toshgan.

Sen yorim tilisan, bolam tilisan,
Nevaram-chevaram tili bo‘lib qol.
Sen mag‘rur quvonsang, o‘ssang haqlisan,
Ufqda kutadi yorqin istiqbol.

*Ibroyim Yusupov*
*(1929 – 2008)*

## ONA TILIMGA

Jirov seni poyga otdek o‘zdirgan,
Chechan seni dovda toblab qizdirgan.
Alpomishlar o‘ron qilib so‘zingni,
Berdaq qurol qilib, qo‘shin tuzdirgan.

Sen chinorsan – o‘sgan qadim tomirdan,
So‘z san’ating qil sug‘urgan xamirdan.
Qoraqalpoq ko‘ngil qushi sayragay
So‘z xazinang boyigan ko‘p davrdan.

Gulbarchinlar yurak-bag‘rida gulxan,
Qizlar pinhon dardin ichiga yutgan.
Sen-la xonga ish buyurib xotinlar,
Ajiniyoz yurtin sog‘inib o‘tgan.

Naqllaring fikri teran, mag‘zi to‘q,
Hozirjavob sadog‘ingda so‘zing – o‘q.
Onam senga mehr sutin emizgan,
Otam senga bergan jasoratli ruh.

Rostgo‘ysan, rost gapirasan anqillab,
Sahroyi tovushing yangrar shang‘illab.
Yolg‘on so‘zlab, yoqishni hech bilmaysan,
Shivirlasang, g‘ozlar hurkar g‘anqillab.

Men tenglayman seni rizqim – nonimga,
O‘g‘uzxondan ruhing singgan qonimga.
Esim tanib, hech tilni yot bilmadim,
Biroq sen eng yaqindirsan jonimga.

Sozga qo‘shsam, baland uchar alasar,
Zabonimga suluvliging yarashar.
Qanday yaxshi og‘ayinning ko‘pligi!
«Yaqinmiz» deb senga ko‘p til talashar.

Dostonlarda noming ketgan ulgili,
Sen sahroning zo‘r xushnavo bulbuli.
Xalqim seni madh etadi dunyoga,
Ona tilim, sensan tillarning guli.

Tollar senday guvlagan vaqtin ko‘rdim,
Senda cho‘l shamolin shiddatin ko‘rdim,
Qora uyda Pushkin bilan Berdaqning
Sen bilan gaplashgan suhbatin ko‘rdim.

Ona tilim, men ham senga doirman –
Sen borliging uchun kuychi shoirman.
Shuncha qattol surgunlarda surinmay,
Shu kunlarga yetganingga qoyilman.

*Qoraqalpoq tilidan*
*Rustam MUSURMON tarjimasi*

## *Erkin Vohidov*
## *(1936 – 2016)*

### ONA TILIM O‘LMAYDI

Notiq dedi:
«Taqdir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo‘qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda».
«Ey, voiz, pastga tushgin,
Bu gap chiqdi qayerdan!»
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabrdan.
Kim darg‘azab,
Kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante, Shiller va Bayron,
Firdavsiy, Balzak, Tagor.
«Va’zingni qo‘y, birodar,
Sen aytganing bo‘lmaydi».
Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o‘lmaydi».
– Hey, bu qanday aqida! –
Qo‘lida tabarruk jom,
Go‘zal forsiy haqida
Ruboiy aytdi Xayyom.
Ehtirosli, otashdil
Beranje so‘rdi nolon:

– Nahotki, farangi til
Yo‘qolgusi bir zamon!
Neruda, Lorka turdi
Servantesning yoniga:
– Kim qasd etib tig‘ urdi
Ona tilim joniga!
Fuzuliy yondi:
– Ozar
Tili guldek so‘lmaydi.
Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o‘lmaydi».
Kamalakdek rango-rang
Bo‘lsin deb san’at, tillar,
Asrlarcha qildik jang,
Armon qildik ming yillar.
Beqadr bo‘lsa, nahot,
Tillardagi tarovat!
Yo‘qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!
«Faust» yondi gurillab,
«Xamsa» o‘tga tutashdi.
Bir sado jahon bo‘ylab
Taraldi, tog‘lar oshdi.
Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo‘lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o‘lmaydi!

## O‘ZBEK NAVOIYNI O‘QIMAY QO‘YSA

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir.
Bedil qolib, Demyan Bedniyni suysa,
Qora sochning malla bo‘lgani shudir.

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Dod demoqqa palla bo‘lgani shudir.
Ma’rifatdan ayri o‘ynasa, kulsa,
Aza chog‘i yalla bo‘lgani shudir.

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Aldangani, alla bo‘lgani shudir.
Yulg‘ich aziz bo‘lib, bilgich xor bo‘lsa,
Paytavaning salla bo‘lgani shudir.

El komil bo‘lmasa yurt bo‘lmas ulug‘,
Beqadr mahalla bo‘lgani shudir.
Qalb to‘lanur xalqning rizqi ham to‘lug‘,
Ombor to‘la g‘alla bo‘lgani shudir.

O‘zbek o‘zligini anglasa bekam,
Uning «Barakalla» bo‘lgani shudir.
Olamga: «Navoiy nasliman», degan
Ovozi baralla bo‘lgani shudir.

## ILZA XONIM

*I.L.Sirtautasga*

Ona tilim!
Mehring bu qadar
O‘rtaguvchi ekan jonimga.
Asir bo‘lib lol-u musaxxar
Termilaman Ilza xonimga.
Termilaman Ilza xonimga,
Ko‘zlarimga ishonmay hayron.
Amriqolik xushro‘y olima
So‘zlar edi o‘zbekcha ravon.
«Siattlga xush kelibsizlar,
Olis yurtdan yo‘l bosib yiroq.
Tanishinglar, bu yigit, qizlar
O‘zbekchadan olmoqda saboq...»
Dasturxonda parvarda, pashmak,
Xandon pista, qip-qizil shirmoy.
Atlas kiygan suluv kelinchak
Odob bilan uzatar ko‘k choy.
Men es-hushim yig‘masdan hali
Qulog‘imga dilbar kuy yetdi.
Nakamuri – yapon go‘zali
«Tanovar»ga charx urib ketdi.
Ona yurtim!
Mehring bu qadar
Aziz ekan dil-u jonimga.
Termilgancha lol-u musaxxar,
So‘z aytaman Ilza xonimga:
– Ming tashakkur o‘zbek elidan,
Yashang, dunyo turguncha turing.
Iltimosim, shogirdlar bilan
Diyorimga tashrif buyuring.

Keling, sizni Ona yurt uchun
Fidolar bir tinglab quvonsin.
Bu quvonchdan, lekin bir umr
Judolar ham tinglasin, yonsin.
O'z elati mehridan dilin
Yot tutganlar sizni eshitsin.
O'z yurtida o'z ona tilin
Unutganlar sizni eshitsin.
Sizni ko'rsin jaholat, g'aflat
Uyqusida yotgan bandalar.
O'z qadrini unvon, manfaat
Bozorida sotgan bandalar.
Amaldor zot hamqishloqlarga
Tashlagandek balanddan nazar,
Chiqqan chog'i baland minbarga
O'z tilidan qilganlar hazar,
Umri o'tib O'zbekistonda
Assalomni bilmaganlar ham,
Ikki og'iz bizning zabonda
Arz-u insho qilmaganlar ham,
Ilmda-yu mahkamalarda
Loyiq unga joy bermay halol,
O'zbek tilin eski shaharda
Bozor tili qilganlar xayol,
Ilza xonim,
Sizni eshitib,
Xatolarin bilsalar edi.
Andak tilning qadriga yetib,
Sal insofga kelsalar edi.
Ey, siz, dono ustoz olimam,
Olis yurtda munis yo'ldoshim,
Sizga egay podsholarning ham
Huzurida egmagan boshim.

## *Oshiq Erkin*
## *(1937-yilda tug'ilgan)*

### AVAZ O'TAR G'AZALIGA MUXAMMAS

Turfa zabon, turfa millatga Haqdin ehsondur,
Xususan, o'z tilin sevgan sohibi iymondur,
Dur erur til, xazinasi bebaho kondur,
Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur.

Ko'p til bilsa ziyolarga to'la bo'lar boshlar,
Har el, har yurtda ko'p bo'lar qavm-u qardoshlar,
Do'stlar safin to'ldirar sadoqatli yo'ldoshlar,
G'ayri tilin sa'y qiling bilgali, yoshlar,
Kim ilm-hunarlar bilaki andin ayondur.

Himmat aylang-u bo'ling doim o'zingizga bek,
Bilim hafizangiz bilmas til bilsangiz chek,
Chun bilimda hech millatdan kam emas o'zbek,
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka ani g'ayrat eting, foydayi kondur.

Bas, aylayin desangiz agarda nolangizni,
Bitkazayin desangiz dil to'la volangizni,
Olloh ixtiyoriga qilib havolangizni,
Ilm-u fan uyiga yuboringlar bolangizni,
Onda o'qiganlar bori yaktoyi jahondur.

Ilmsiz-u johillik, biling, kani marazdek,
Qolmasin o'gitim yerda befoyda va'zdek,
Oshiq Erkin ham der: biling-u oliy havasdek,
Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmas Avazdek,
Til bilmaganidin aning bag'ri to'la qondur.

## *Jamol Kamol*
## *(1938 – 2022)*

# O‘ZBEK TILIM

*(Qasida)*

Dilbarimsan shu jahonda,
dilrabo o‘zbek tilim,
Ham go‘zalsan, ham asal,
ohanrabo o‘zbek tilim.

Deydilar: forsiy – shakar,
lafzi arab – durri guhar,
Sen shakardirsan, guharsan
bebaho, o‘zbek tilim.

Necha so‘z forsiydin olding,
chun arabdin ham necha,
Baski, turkiy shiddating ul
serjilo, o‘zbek tilim.

Chin nafosat sendadir,
Sehr-u salobat sendadir,
Ul sababdin ham etarsan
mahliyo, o‘zbek tilim.

Gar maqom aytsak, jaranglab,
ko‘kka yetgaydir maqom,
Alla aytsak, ne ajab
shirin ado o‘zbek tilim.

Til ilohiydir jahonda,
so‘z ilohiydir yana,
So‘zlaringda aks etar
husni Xudo, o‘zbek tilim.

Koshg‘ariydan ibtido olding,
yetib amri azal,
Yassaviy bo‘ldi sening
bag‘ringga jo, o‘zbek tilim.

Keldilar Lutfiy, Atoiy,
etdilar lutf-u ato,
Bitdi kotiblar kitobing
bexato, o‘zbek tilim.

To jahon borki, jahonda
qolmagaysan benavo,
Chun nasib etdi Navoiydin
navo, o‘zbek tilim.

O‘ksinib g‘urbatda Bobur,
so‘zlaringdin tizdi dur,
Ashki birlan yuvdi Mashrab,
chekdi oh, o‘zbek tilim.

Ne edi atr-u iforing,
Ogahiy insho etib,
Yetdi unga sozi Feruzdin
safo, o‘zbek tilim.

Sen o‘shal Furqat fig‘oni,
sen Muqimiydin bayot,
Nodira birlan Uvaysiydin
sado o‘zbek tilim.

So‘ngra Fitrat keldi chaqnab,
keldi Cho‘lpon, Qodiriy,
Soldilar olamga boringdin
nido, o‘zbek tilim.

Keldilar Oybek, G‘afur,
Qahhor, Hamid-u Zulfiya,
Har sadoying bo‘ldi dardlarga
davo, o‘zbek tilim.

Shumqadamlar necha ayyom
etdilar holing xarob,
Boshing uzra kechdi qancha
mojaro, o‘zbek tilim.

Chaqnatib ot surdi Erkin,
keldi Abdullo keyin,
Yangi avlod senga jon
etdi fido, o‘zbek tilim.

Mustaqillik berdi imkon,
qaytdi yer-u osmon,
Yetmagay umringga endi
intiho, o‘zbek tilim.

Qaytdi Qur’on-u Hadislar,
qaytdi elga Masnaviy,
Bo‘ldi ko‘zlarga kaloming
to‘tiyo, o‘zbek tilim.

Sen jahondin bahramand,
sendin jahon ham bahramand,
Bahramandlik qomating
etdi raso, o‘zbek tilim.

Senda qonun, senda dastur,
sendadir ilm-u amal,
Aytganing endi rayosatga
ravo, o‘zbek tilim.

Mustaqillik borki, qadring
elda yuksak, ustuvor,
Hurmating bordir bugun
olam aro, o‘zbek tilim.

Bizga nomussan, sharafdirsan,
tiriklik chashmasi,
Bo‘lmasang sen, baxtimiz
bo‘lgay qaro, o‘zbek tilim.

Manglayi sho‘r bo‘lsin, illo,
ham sira kun ko‘rmasin,
Kimki bo‘lgay senga befarq,
bevafo, o‘zbek tilim.

Dil bilan Haqqa yetishgan
tilga ham bergay rivoj,
Shu emasmi odamiyga
muddao, o‘zbek tilim?

Barcha ellar mo‘tabardir,
barcha tillar muhtaram,
Muhtaramlar ichra sen ham
podsho, o‘zbek tilim.

Faxr etar ko‘rk-u kamolingni
ko‘rib, o‘g‘ling Jamol,
Chiq jahonning minbariga,
marhabo, o‘zbek tilim!..

## *Gulchehra Nurullayeva*
## *(1938 – 2021)*

### SUF

Talpinarman uchmoq istab, beqanot har onga suf!
Uy faqat tinglovchi boʻlsa, nolayi afgʻonga suf!

Ne oʻzi poklik, haromlik? Qaydadir sarhadlari?
Rost libosin tanga ilgan serfirib yolgʻonga suf!

Yer kasal... Dengiz ado... Daryolari nimjonlashar,
Malhami boʻlmoqqa ojiz har yoʻriq, farmonga suf!

Boshidan yogʻsa zaharlar, toʻlsa ogʻu oshiga,
Shunda ham mum tishlasa, ul notavon-nolonga suf!

Xalqini ochlikda koʻrsa, qandayin uxlar, ajab?!
Oʻzni dono deb hisoblar rahbari nodonga suf!

Onajon ham oʻz tilimdir, bagʻri qon ham oʻz tilim,
Oʻz tiliga soqchi ermas shoiri davronga suf!

El uchun birlik – najot, birlik – tayanch, Gulchehra, bil,
Birligingdan yuz oʻgirsang, sendayin insonga suf!

*Tursunboy Adashboyev*
*(1939 – 2017)*

## ONA TILIM

Buyuk Temur jahon bo‘ylab,
O‘z dovrug‘in solgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan,
Meros bo‘lib qolgan tilim.

Bobur Mirzo she’rlaridan,
Rang va qiyos olgan tilim.
Shunday tildan tonar bo‘lsam,
Qiyma-qiyma bo‘lsin tilim.
Alla bo‘lib jaranglagan
Ona tilim – jon-u dilim.

*Abdulla Oripov*
*(1941 – 2016)*

## O‘ZBEK TILIM

Ko‘p qadimman,
Karvon bilan zamonlar kechdim,
Nor tuyaning norligi ham afsona ekan.
Bir kun tuya ayronini shifo deb ichdim,
Ona tuya nomi esa arvona ekan.

Davronimni surganman ham oq otga minib,
Hay-hay, uning qo‘ltig‘ida bor edi qanot.
Vaqti kelib, shon-shuhratdan xayolim tinib,
Bilsam, o‘sha oq otimni derkanlar – bo‘z ot.

Yuksak Hisor tog‘larining bag‘rida qat-qat,
Toshni yorib o‘sib yotgan na’matak edi.
Ustoz Oybek she’rin eslab shoir Xolmamat,
Bizning joyda uning nomi «Hululu», dedi.

Sen tuganmas chashmadirsan, oh, ona tilim,
Yetmish ikki tomirimga mavjlaring bordi.
Bir kun tinib qolgan edi bog‘da bulbulim,
«Sandulochim!» – degan edim sayrab yubordi.

Inson degan qutlug‘ so‘zning tengi yo‘q hech bir,
U tanhodir, falaklarning quyoshi misol.
Lekin manov bolakaydir, bunisi o‘smir,
Bu yigitdir, bu zot esa bobo, oqsoqol.

## ONA TILIM

Ming yillarkim bulbul kalomi
O‘zgarmaydi, yaxlit hamisha.
Ammo sho‘rlik to‘tining holi
O‘zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman!

## *Omon Muxtor*
## *(1941 – 2013)*

* * *

Men o'ylayman:
hayot yo'lida
Izlasa, ko'p tarjimada sir.
Necha yildir o'zbek tilida
So'zlayotir, mana, Shekspir.

Shunday san'at bo'lmasa agar,
Ko'z o'ngida qorong'u dunyo –
Biz bilmasdik, goh shams, goh qamar
Bosh ustida – Tolstoy bobo.

Bular yaxshi. Bir narsa chatoq:
O'zbekning ham bor shirin gapi.
Tarjimada, lekin tumtaroq,
Tarjimaning yo'qdir maktabi.

Dunyo hamon bilmaydi, do'stlar,
Navoiyning dardini tugal,
Mashrab qaysi ohangda bo'zlar,
Nodiradan qolgan ne g'azal.

O'lkamizda, ko'rsangiz, shuncha
Madaniyat, shuncha maorif,
Chiqmapti deb tarjimam uncha,
Kuyar, ammo Abdulla Orif.

Birov mumkin ochsa menga bahs,
Men baribir bu borada haq:
Kimdir kelib ko'tarib qo'ymas,
O'z-o'zini ko'tarmasa xalq...

## *Oydin Hojiyeva*
## *(1942-yilda tug'ilgan)*

### DARDLASHUV

Mening qit'am, xarsanglari quyma oltin,
Oqar suving shirin edi kuzgi boldin,
Tirik topgan jannatisan odam zotin,
Kimlar seni abgor etdi,
Sariq dardga duchor etdi!

Surxoningda anor guli kahrabodur,
Yoboningda bodomlaring talx g'izodir,
Qovun-tarvuz qursog'inda selitrodir,
Kimlar seni bemor etdi,
Tabiatingni xor etdi?

Ipak eding, arqog'ingni bo'z bildilo,
Gavhar eding, narxing qaro tuz bildilo,
Qismat demay, seni rizq-u ro'z bildilo,
Seni kim g'amguzor etdi,
Moli arzon bozor etdi?

Men-ku bulbul nolasidan dilim yongan,
Vatan – desam, ko'kayimda tilim yongan,
Ellik yildir senga eltar yo'lim yongan,
Umr meni attor etdi,
Mehringga xaridor etdi?

Shukrim, ketgum yuragimda bayram bilan,
Uzrim, ketgum kuydirgulik alam bilan,
Yoving – to'rda, sen poygakda qolgan Vatan,
Kim seni mahzun tor etdi,
Taqdiringni qimor etdi?

## *Rauf Parfi*
## *(1943 – 2005)*

### O‘ZBEK TILI

Hayhot, toptaganda arab va mo‘g‘il,
Hayotingning zanjirli yili,
Boshdan ne kechirding, mardona o‘g‘il,
O‘zbek tili, o‘zbek tili.

Ulug‘ tarixingga qilaman xitob,
Navoiy she’rining guli,
Kechmish zamonlarning tirik guvohi,
O‘zbek tili, o‘zbek tili.

Seni naqadarlik sevaman, ona,
Oh, yuragimning bulbuli
Bo‘lib sayragansan go‘dak chog‘imdan,
O‘zbek tili, o‘zbek tili.

### ONA TILIM

**1.**

Abut-Turk tarixdan balki bir hikmat
Biroq sen borsan-ku Turon elinda.
Shoir, So‘z aytmakka sen shoshma faqat,
Ulug‘ Alisherning qutlug‘ tilinda.
Ul olis quyoshdir kuyinib yonar,
Olis xotirotlar o‘chmas falakda.

Haqdan, haqiqatdan, ko‘ring, kim tonar?
Dunyoviy alamning tiyg‘i yurakda.
Vatan deb atalgan beshik, onajon,
Men uchun yopilgan eshik, onajon,
Men sokin sollanib ilg‘ab borarman.
Vatan deb atalgan tobut qo‘ynida,
Chuvalgan bulutni qordek qorarman,
Ruhimning panjasi chaqmoq bo‘ynida.

**2.**

Hech zot uza bilmas uzilgan jonni,
Haqiqatni uza bilmas hech qachon.
Elim, ona tilim, ruhimning qoni,
Bir imdod so‘rayman sendan, onajon.
Chayonzor yo‘lidir borar yo‘llarim,
Tanim yonmakdadir ishqsiz ochunda,
Ko‘klarga to‘qinar so‘ngak qo‘llarim,
Oyoqlarim mening tuproq ichinda.
Barchaning boshida birdek beomon,
Manxus zamonlarning o‘lik shamoli, –
Buzg‘un yigirmanchi asr a’moli…
Mening ona tilim, munis, mehribon,
Sen Turkiy Dunyoning g‘olib xayoli.
Seni yozajakman, tirilgan jahon.

**3.**

Ulug‘ Turkistonim, oltin dalalar,
Oftob sochqi sochar bosh uzra balqib,
U sening tilingda aytar allalar,
Qonim, ona tilim, oh, ona xalqim.
Navoiy baytiga o‘xshaydi yo‘llar,
Bu toshlar Hamzaning qotili, hayhot!

Nahotki umrbod o‘rtasa o‘ylar,
Umrbod zanjirband etsa xotirot?!
Zanjirbandman, ona tilim Ona So‘zingga,
Kundayin so‘larman, oydek to‘larman,
Mil kabi tortarman Seni ko‘zimga.
Men g‘arib bandangman. Bir So‘z tilarman,
Boshimni qo‘yarman Sening izingga,
Qudsiya anfosin aytib o‘larman.

## CHO‘LPON

*«Shu ojiz holimga shoirmanmi men?»*
*Cho‘lpon*

### 1.

Ona tilim, Sen ruhimning qanoti,
Abut-Turk nafasi, Oltoy chechagi.
Xun davridan omon keldi G‘iroting,
Qutlug‘ Enasoyning ezgu ertagi.
O‘rxun bo‘ylarida toshga aylanding,
Falakka sanchilding, Turon bo‘lding Sen,
Mangulik safarga qachon shaylanding?
Qachon bu alamga – kuchga to‘lding Sen?
Porloq osmoningda quzg‘unlar uchdi.
E voh, yog‘iylaring soldi yag‘moni.
Yog‘iylaring jigar – qoningni ichdi.
Jigar – qon jarangi tutdi jahonni.
Onasen. Kechirding. Qonidan kechding.
Biroq kechirmading sira yolg‘onni.

### 2.

Dunyo oq emasdir, yo‘q, qora bardosh.
Kuyib, yodimizdan kechganlar aytsin.

So‘zlarida zahar, ko‘zlarida tosh,
Tilidan, elidan kechganlar aytsin.
Tunlar bosib kelar dunyo hasrati,
Kunlar gizli tug‘yon, bosib kelar she’r.
Nechuk qismat erur, shoir qismati?!
Tushlarimni buzar hazrat Alisher...
Yillar bahorimni uchirdi chalqib,
Muzlarga ko‘churdi o‘tluq yozimni.
U muhitda xas kabi qalqib –
Men o‘z Yulduzimni, o‘z Quyoshimni...
Yulduz sen, Quyosh sen, sen ona xalqim,
Sen uchun sindirdim sinmas sozimni.

**3.**

O, shoir qismati yarqiroq, gulgun,
Zavqlarga to‘lar u, bir so‘zni izlar.
Dunyoda hech bir kas bilmas, ne uchun
Ayricha kular u, ayricha bo‘zlar.
Yo‘lsizlik yo‘ldoshi, toleyi nigun,
Hech qachon to‘yarmi axir yovuzlar.
Bu – xalq dushmani deb tutsalar bir kun,
Baribir u xalqning nomidan so‘zlar.
Boshida qora qish, oppoq bahorlar,
Yuragi yarim-u butun imoni,
Talatum olamni shivirlab chorlar.
Tani omonatdir, naqd erur joni.
Ko‘krak qafasida lovullab porlar
Buyuk muhabbatning qonli nishoni.

## YOLG‘IZ SEN UXLAYSAN

Yolg‘iz sen uxlaysan, yolg‘izim, bolam,
Maysalar shivirlar, hayqiradi tog‘.
Shovullar daryolar, dalalar uyg‘oq,
Qasamga botirar tubi yo‘q olam.
Umidning ko‘zi ko‘r, achchiqdir firoq,
Axir men alamman – chinqirar alam.
Bu g‘olib turkuda bo‘lmish edi jam,
Ona yurtim, elim, toptalgan tuproq.
Uyg‘on,uyg‘on, bolam, uyg‘ongil, ey dil,
Uyg‘ondan iborat uyg‘otlik dunyo.
Inon, seni o‘ylab ketmakdaman, bil.
Sengadir jon bolam, mushkulot, g‘avg‘o,
Uyg‘on, uyg‘on, deya ingraydi navo –
Senga bu Vatandir, senga turkiy til.

* * *

Men o‘tkinchi, men faqat mehmon,
Dargohingda, ey turkiy tilim
Menga bir she’r kerak, ey mezbon,
Yozilmagan she’r erur dilim.
Aytgil, nechun bunchalar qiziq
Eski jahon, bu eski jahon?
Bir she’r kerak non kabi issiq,
Menga bir she’r kerak, ey mezbon.
Men g‘aribman va sen beomon,
Sen Quyoshsan, men so‘ngan chiroq.
Qiynamagil meni, onajon.
Sen abadiy, men lahza, biroq
Itoat et menga shul zamon
Yo aylagil telbani tuproq.

## *Omon Matjon*
## *(1943 – 2020)*

* * *

Sukunat tillardir
...Oqshomning yulduzli tillari,
Gullarning iltijo tillari,
Vulqonning im-iliq tillari,

Sukunat tillardir.
Tog‘larimning og‘ir tosh tili,
Ko‘zning kiprik tili, yosh tili,
Butun samovotning bosh tili.

Sukunat tillardir.
Alangalar, cho‘g‘lar shu tilda so‘ylar,
O‘ylar, xotirotlar shu tilda so‘ylar,
Unut bo‘lgan zotlar shu tilda so‘ylar...

Shu tilni o‘ylagim keladi,
Shu tilda so‘ylagim keladi.
Sukunat – shoirning so‘zlari.

Ayta...
olmay...
ketgan...
so‘zlari.

## «SHALOLA» SHE’RIYAT KLUBINING QATNASHCHISIGA

Shoir bo‘lmoqchiman, debsan xatingda,
She’riyat sirlarin o‘rgating, debsan.
Sen go‘yo chaqmoqqand tutib otingga,
Borsa qaytmas yo‘lni ko‘zlab turibsan.
Shoirlik kasb emas, minba’d, ukajon,
Shoirlik hikmatdir, hikmat, ukajon.

Esimda: oq tutlar ayni g‘arq pishgan,
Yashil shoxlar aro terardik quvnab.
Shu payt qurtboqarlar kelib qolishgan,
Qo‘lida bolta-yu chopqilar o‘ynab.
Bargni obketdilar bog‘lab, ukajon,
Lekin bizlar qoldik yig‘lab, ukajon.
Insonlik – o‘z haqqing tanish, ukajon,
Shoirlik – Haq deya yonish, ukajon...

O‘shanda bolalik bir dam chekinib,
Ba’zimiz jim ko‘nib, xafa ketgandik.
Lekin birlarimiz rosa so‘kinib,
Ularga tosh ota chopa ketgandik.
Insonlik – o‘z haqqin tanish, ukajon,
Shoirlik – Haq deya yonish, ukajon.

Sen erta bahorda tokka nazar sol:
Milt-milt yosh to‘kar u gullashdan oldin,
Loygarchilik kunlar, qirg‘iyak shamol,
Kelmasdan tiklashi darkor-da qaddin...
Shoirsan – shu tok deb kuysang, ukajon,
Shoirlik – shu yoshni tiysang, ukajon.

Umr garchi uzun, kechar bir onda,
Umr kamalakdir yer va ko‘kka dol.
Ba’zi shoirlar bor – ko‘ngli osmonda,
Hatto o‘z bo‘yicha pastlashi malol.
Sen ko‘kdan izlama ma’ni, ukajon,
Avval o‘z yeringni tani, ukajon.

Bugun yurt haqida o‘y sursang agar,
Olamga bir qara: kim tanir bizni?
Paxtangdan tanisa yeringni bashar,
She’ringdan tanisin yuragimizni!
Qalbingni xalqqa et minbar, ukajon,
Jahon shunda seni tinglar, ukajon.

Ona til! U bizga ma’bad betimsol,
Har bir millat uchun o‘z tili Ona!
Til – o‘tmish, til–bugun, til – bu istiqbol,
Til – ona xalqingdan nurli nishona.
Ne bor «ona» degan so‘zdek, ukajon,
O‘zbeksan, o‘zbek bo‘l, o‘zbek, ukajon.

Ha! Shoir qalbining xaritasida
So‘z, tuyg‘u, rang, imon erur bosh tomir.
Oroldek dengiz ham qurir, aslida,
Ayqirib oqmasa Amu bilan Sir.
Cho‘qqilarga solsin larzon, ukajon,
Guvlab tursin ulug‘ ummon, ukajon.

O‘tgan ustozlarda qismat yagona:
So‘zdan nomdor ular, so‘zdan xunbag‘ir.
Qog‘oz-ku bir ohdan uchgay to‘lg‘ana,
Unga muhrlangan haqiqat og‘ir.
Yengili rizq bo‘lmas bizga, ukajon,
Qanot ber eng yukdor so‘zga, ukajon.

Sen mag‘rur kamtar bo‘l! Lekin bir chetda
Chekinib yashama yakka, xor, nolon.
Jahonda har nedan Adolat katta,
Lekin mitti qalbdir unga oshyon.
Ko‘z tutar odamlar, xalqing, ukajon,
Bosh ustida bo‘lsin qalbing, ukajon.

Sen do‘st bo‘l, vaqtida fosh et Yagoni,
Ishqda Otellodan bo‘lgin besh battar.
Asrab qolmoq uchun Mo‘min Mirzoni
Tutqaz Alisherning qo‘liga xanjar...
Shoirning yuragi dog‘li, ukajon,
Sen ham shu dard bilan og‘ri, ukajon.

Dolg‘alar goh tinib, shoirning qalbi
Afsonaviy ko‘ldek sukutda onlar –
Topilar, tosh otib to‘lqin chiqarib,
Tomosha qilishga havasmand jonlar.
Qo‘yni toshlilar ko‘p, ko‘pdir, ukajon,
To‘lqin ur, chetga sur, cho‘kdir, ukajon.

Bordi-yu, sendan hech chiqmasa shoir,
Zarur jihatlarning kam bo‘lsa biri,
O‘ksima, tongda tur, tabiat sohir,
Qara, rangin she’rdir o‘zbekning yeri.
Shu yurtni bir umr sevsang, ukajon,
Haqiqiy shoir ham sensan, ukajon!

# *Abdulla Sher*
*(1943-yilda tug‘ilgan)*

## NAVOIY SOG‘INCHI

*Turkum*

### MUQADDIMA

O‘t-u cho‘qqa urib men o‘zni,
Mashhurlikni da’vo qilmadim.
Shohlarga ham sotmadim so‘zni,
Bozorlarga parvo qilmadim.

Men Navoiy darvozasini
Tanidim-u, «Sim-sim!»ni aytdim:
Go‘zallikning andozasini
Chizib oldi o‘shanda baytim.

### BIR SIQIM OSMON HAQIDA BALLADA

**1**
Tushimda gulladi tarixning bog‘i,
Rayhonlar bo‘yiga chulg‘andi Hirot.
Darvoza ochilib ayni tong chog‘i,
Quyoshni ko‘tarib kirib keldi ot.

Men ota kasbini sevgan bo‘z o‘g‘lon,
Hirotning misgari, yosh ustazoda, –

Turardim shu tongda ko‘rib, ko‘p hayron,
Vaziri a’zamni otliq asnoda.

O‘zni qo‘lga olib, ta’zimda shu on
Nasihat so‘radim zoti oliydan.
U menga tutqazdi bir siqim osmon
So‘z aytmay she’riyat qil-u qolidan.

(Oh, qanday oltin tush, zarrin tomosha, –
Shu tushni ko‘rmoqqa umrim zor edi!)
Ustoz nazar solib ufqlar osha,
Turkiston tomonga yuzlanib dedi:

«So‘z, yerda o‘ssa-da, osmon daraxti,
Olis yulduzlardan uning urug‘i.
So‘z – shoir zotining toji-yu taxti,
E’tiqod bayrog‘i, imonning tug‘i.

Qay shoir muqaddas so‘zni xor qilsa
Yolg‘onni haqiqat rangiga bo‘yab,
Nafsini elidan ulug‘roq bilsa –
Xor bo‘lgay: tog‘lar ham qololmas suyab!..»

Banogoh uyg‘ondim. Lol qoldim boqib:
Kaftimda yulduzlar, qalamim cho‘g‘li!
Shu kundan tushimning ma’nisin chaqib,
Shoirlik qilaman men – misgar o‘g‘li.

Shu-shu, tumorimdir bir siqim osmon, –
Tiniqlik, poklikdan samoviy ibrat.
Shu-shu, so‘zni terib mis tergansimon,
Navoiy mulkida qilaman xizmat.

**2**

Ashraqatdan boshlangan devon
O‘xshab ketar cheksiz olamga.
Undagi yer, undagi osmon
Suyanadi buyuk qalamga.

Ul qalamning sehrli pati
Uchib tushmish jannatiy qushdan.
Qog‘oz bilan qalam suhbati
Odamzodni uyg‘otar tushdan.

Asrlarki, devondan porlab,
Yoritadi Ulug‘ So‘z Sharqni.
So‘nmas ovoz bizga der, chorlab:
«Angla, tun-u tongdagi farqni!»

Shohlar o‘tdi, o‘tar aysh surib,
Quyosh bilib toj gavharini.
Shoir esa oh tortar, ko‘rib,
Ul muqaddas Nur javharini.

She’riyat deb atalgan ul Oh
To qiyomat sochadi ziyo:
Alisherbek kiygan bir kuloh
Mingta tojdan a’lodir, a’lo!

**3**

Navoiyning asarlaridan
Bo‘y sochadi ilohiy, cho‘ng gul.
Unga qo‘ngan asalaridan
Qanot tilab uchadi ko‘ngil.

Unda qushlar odamlar kabi
So'zlaydilar o'zni unutib
Va qushlardek, odamlar labi
Kuylay boshlar so'zni unutib.

Unda shohlar tarashlaydi tosh,
Tog'ni kesib o'tadi doston.
Tojdan chiqib, yuksalganda bosh
O'pib qo'yar egilib osmon.

Unda falak o'z tasbehini
Misra qilib o'giradi jim:
G'azaldagi xushbo'y behini
Islab yashar Hadichabegim.

Unda Hirot doim qushuyqu,
Samarqandni izlaydi tushdan.
Vatan degan qadimiy qayg'u
Kuylab turar ming yillik ishqdan.

Ashraqatni ko'rasan unda,
Ilohiy nur ochar ko'zingni:
Anglaysanki, dunyoyi dunda
Tanimabsan hali o'zingni.

## 4. G'azal

Soqiyo, may sun bu kech, bazm ichra jomi Jam ichay,
Mayda ash'or jilvasi bor, men uni har dam ichay.

Ey mug'anniy, bu kecha nay so'zlarin tarjima et,
Eslayin moziy zamonni – ko'zlarimda nam, ichay.

Hofizo, sen kuylagil ustoz Navoiy baytini,
Intizordir tashna qalbim, zavqni xurram ichay.

Hargiz, ey, tark aylagil, zohid, u dunyo sharhini,
Qo'y, Navoiy ma'nisida o'zga bir olam ichay.

Chun ma'oniy qiblasida «Xamsa»ni mehrob bilay,
Misrayi chashmi muqaddasdin to'yib zam-zam ichay.

## 5. Zanjirband sher

*Zanjirband sher yengaman der.*

*Alisher Navoiy*

Men bilmayman, bu ne jahd-jadal,
Bu qandayin aql yetmas sir:
Men tug'ilmay, besh asr avval,
Suvratimni chizmish Ulug' Pir.

Zanjirband sher, boq, yengaman der, –
Yirtilgudek jaranglar qog'oz.
Jaranglaydi zanjirlangan sher,
Jaranglaydi po'lat bir ovoz.

Zanjirband sher, boq, yengaman der, –
Yildan yilga ul zanjir tarang:
Besh asrki, men, Abdulla – sher!
Men qilaman zanjir bilan jang!

Besh asrki, suvratim mening
Na'ra tortib yashaydi bedor...
Tugamaydi muhlatim mening
Toki She'r bor, toki Zanjir bor!

**6**

Men Navoiy ozod qilgan qul,
She'r o'sadi qutlug' erkimdan.
Yuragimda yashaydi Bulbul,
Yuragimda Humo berkingan.

Jismim – gulxan, qalamim cho'g'dir,
O'zim – xato, so'zim – bexato.
Shoirlikda armonim yo'qdir:
Ashraqatga qildim iqtido.

## 7. Navoiy sog'inchi

**1**

Chorlasam deb: «Qaydasan Farhod?»
«Men borman!» – der Yosuman kampir;
Qizil gulning o'rnida, hayhot,
Chayqaladi bir tup qalampir:

Netay, Hirot olisdir bugun,
Olisdadir Navoiy bobo, –
Hududlarga qoqilib nigun,
Tarix yig'lar asrlar aro…

**2**

Uchoqlar kerakmas, bering G'irotni,
G'irotda uchayin izlab Hirotni.

Ammo na Hirot bor va na G'irot bor! –
Allohim, peshonam muncha ekan tor:

Hirotim – yodimning olis ovozi,
G'irotim – baxshining yig'lagan sozi…

## *Farid Usmon*
## *(1946-yilda tug‘ilgan)*

### TILINGNI XORLAMA

Til o‘rgan, mayli, ammo o‘z tilingni xorlama,
Go‘zal o‘z gulzoringni hech qachon mozorlama.

Yor-yor aytib bo‘lmaydi o‘zga tilda, anglagin,
Yor-yor bilsang beri kel, bilmasang «yor-yor»lama.

Ona tilim – jon tilim, onajonim allasi,
Ranjitma bu allani, behuda ozorlama.

Bag‘ringga bos onangni, onajoning tilingni,
Bilib-bilmay onangni ko‘ksingdan «bor-bor»lama.

Qara u o‘zga tilda o‘z so‘zimiz yozig‘liq,
Til o‘rgan, mayli, ammo o‘z tilingni xorlama.

Mehring to‘ldirib so‘zla, mehring to‘ldirib yozgin,
Farid kabi tilingni ardoqla, hech xorlama.

## *Halima Xudoyberdiyeva*
## *(1947 – 2018)*

### «ESKI O‘ZBEK TILI»GA YOZUV

Mening tig‘ tilgan tilim,
Mening kesilgan tilim,
Bahaybat to‘g‘on tushib,
Yo‘li to‘silgan tilim.
Qushning unut patiday
To‘kilgan unut jonim,
Kitoblarning qatida
Rangi-ro‘yi somonim.
«Eski o‘zbek tili»mas,
Dedilar eskirgan til,
Qo‘rqib chiqarmoqqa sas,
Sandiqlarga kirgan til.
Senda bodom isi bor,
Senda bobom isi bor,
Bolam na rus, na o‘zbek,
Arosat belgisi bor.
Besh yuz yillar avvalgi
Xatni men anglayman, bas,
Men bugun aytganimni
Bolam ba’zan tushunmas.
Ko‘kragimda dod qotgan,
Yaqinlashar katta xavf,
O‘z tilini yo‘qotgan
Xalq bo‘lmasmi yerdan daf.

Oldga, safarbarlikka
Qanday yaraydi bolam,
Ortidagi jarlikka
Qanday qaraydi bolam.
Uni kim qilib qo‘ydim,
Kim bo‘ldi og‘am-inim,
Tomir-tomirim kuydi,
Sindi bo‘g‘in-bo‘g‘inim.
Guli unut xalq bo‘ldik,
Yo‘li unut xalq bo‘ldik,
Ommaviy gunglik sodir,
Tili unut xalq bo‘ldik.
Umrimning shom, kechiga
Shu o‘y sanchilib turib,
«Lug‘otit-turk» ichiga
Yoshim tomchilab turib,
Dedim: – Tig‘ tilgan tilim,
Mening kesilgan tilim.

## *Anvar Obidjon*
## *(1947 – 2020)*

### OTA O‘GITI

Har bitta so‘z – suvdek aziz,
Har bitta so‘z – nondek uvol.
Til boyligin bog‘ deb bilsak,
Har bitta so‘z – bitta nihol.

Biron so‘zni isrof qilmoq
Bir ko‘chatni yulmoqlikdir.
Bora-bora otameros –
Bog‘ni xarob qilmoqlikdir.

Ey, bolam, yot yurtga borsang,
Ne atalur eling, derlar.
Qay millatning vakilisan,
Bormi ona tiling, derlar.

Shunda mening qutlug‘ tilim –
Navoiyning she’ri, degil.
Yurtim – Ulug‘beg-u Bobur,
Amir Temur yeri, degil.

Ayt g‘urur-la, Beruniylar,
Farg‘oniylar ajdodim, deb.
Koshg‘ariylar darsin tinglab,
O‘tkirlangan savodim deb.

Maqtanma hech qimmat kiyim,
Oltinlar-u qasring bilan.
Faxr et doim qudratli yurt,
Boy til, nasab-nasling bilan.

Obro‘yingni baland tutmoq,
Ey bolam, o‘z qo‘lingdadir.
Sening olamdagi narxing
Vatan, millat, tilingdadir.

## *Matnazar Abdulhakim*
## *(1948 – 2010)*

### SIRTQI SABOQ

*«Imlo xatolarim boʻlsa kechiring,*
*hozir parishonroqman...»*
*Maktubdan*

Men seni sevaman... o, qursin esim,
Nahotki «Men» – ega?.. «Sevaman» — kesim?..
Qoidaga mahkummiz buncha nega biz?
Muhabbat emasmi, axir, egamiz?
...Sen boʻlsang maktabda – mashaqqatdasan,
Ruhimda xavotir gʻalayon boshlar.
Seni toliqtirib qoʻymadimikin
Har xil undalmalar, otlar, olmoshlar?
«Ni»ni emas, seni sevaman oʻzim,
Diydoringga yetmoq umidim ming-ming,
Sening koʻzlaringni sogʻindim, koʻzim,
Koʻzim yoʻq koʻrishga turqini «ning»ning.
Yuragim kim, oʻzi yuragim nima?
Yuragim zanjirband – zulfingga bogʻliq.
Yuragim boʻm-boʻsh uy, fayzli qilmasang,
Ochmasang berk uydir, mahkam qulflogʻliq.
Qulflar sinsinlar, kel, eshiklaring,
Uyiga oʻt tushsin kelishiklarning.
Qaratqichning oʻzi sensiz qaratqich,
Sensiz tushumni men tush koʻribmidim?!
Sen boʻlsang shu qadar kelishgansanki,
Muhabbatdan boshqa kelishiging yoʻq...
Na bir darak gap bor maktublaringda,
Na bir ergash gap bor maktublaringda,

Faqat yurak gap bor maktublaringda,
Faqat tergash gap bor maktublaringda.
Ruhimga hech tinmas g‘amdan ta’qiblar,
Maktublar ishq dardin mahzun iloji.
O‘qir, konvert yirtib, xatim raqiblar,
Yurakni olgandek ko‘ksimni ochib.
O, yuragim mening – maktab bolasi!
Tahlikaga tushmay, cho‘kmay sevadi.
Yuragim indamay sevadi seni.
Quchoqlamay sevar, o‘pmay sevadi.
Men sevmoq baxtiga ming dardda yetdim,
Biroq bu ne hikmat, biroq bu ne sir?
Lablarimda sensiz bo‘salar yetim,
Lablaringda mensiz bo‘salar yesir.
Sening yo‘qlovingsiz hislar ham sag‘ir,
Xohi gar ishonma, xohi gar ishon.
Meni unutmabsan, xayriyat, axir,
Maktublar bitibsan xotirparishon.
Biroq sendan xat yo‘q kechadan beri,
Zor etding ko‘zlarim – gadolaringni,
Meni sog‘insayding sog‘inganimdek
Jondan aziz imlo xatolaringni.
Baxt va kulfat bilan sevaman seni,
Sevaman zararlar va foydalarsiz.
Ko‘zlarim yo‘lingga termila berar
Hech qanday bir imlo qoidalarsiz.
Sen esa omon bo‘l bosh kelishikda,
Sarviqad va qalamqosh kelishikda.
Maktublar bitaver, mayli, parishon,
Ta’na kelishikda, tosh kelishikda.
Sen faqat unutma, faqat unutma,
Ko‘zlarim ko‘p yomon sog‘indi seni
Qayg‘u kelishikda…
yosh…
kelishikda…

## SAVDO

*Abdulla Qodiriyni o‘ylab*

Vatanni sotaman. Olinglar,
Quyosh – tillo tanga, oy – chaqa.
Lekin... bular kamlik qiladi,
Bo‘la bilmas hatto choychaqa.

Vatanni sotaman. Olinglar,
Sotaman hayqirib. Sotaman jo‘shib.
Bahosini kelishsak bo‘lgani,
Jonimni beraman Vatanga qo‘shib.

## *Kengesboy Karimov*
## *(1948-yilda tug‘ilgan)*

### TURKIY TILIM

Nyu-Yorkda so‘zingni bilmaslar balki,
Londonda nazarga ilmaslar balki,
BMTda majlis qilmaslar balki,
O‘zimning jonajon turkiy tilimsan.

Kultegin bobodan uqdim otingni,
Mahmud Koshg‘ariydan ko‘rdim xatingni,
«Qutadg‘u bilik»day muzofotingni
Yuksaltirgan mening turkiy tilimsan.

Naqadar qadimiy buyuk shajarang,
Serbutoq shoxingda qancha meva, rang,
Yulduzlar kabi mo‘l shevang, iborang,
Sen osmon, sen dunyo, turkiy tilimsan.

Bir ota-onaning eti-tirnog‘i,
O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman turpog‘i,
Azar, qo‘miq, chechen, qoraqalpog‘i
Ona deb so‘zlagan turkiy tilimsan.

Suyib bolam deysan, mehribonimsan,
Mening tomirimsan, mening jonimsan,
Ona suti bilan kirgan qonimsan,
Onam, ona tilim, turkiy tilimsan.

*Qoraqalpoq tilidan Rustam Musurmon tarjimasi*

*Omina Tojiboyeva*
*(1949-yilda tug‘ilgan)*

## SHIRINKALOM

Kamalak rang ajib nur tarar,
Maftun dillar mahliyo qarar.
O‘g‘il-qizlar bulbuldek sayrar
Shirinkalom o‘zbek tilida.

Shaloladan olib kuyini,
Yel eltadi gullar bo‘yini,
She’r qilmoqda shoir o‘yini
Shirin kalom o‘zbek tilida.

Qarshilaydi mehribon ko‘zlar,
Injudayin samimiy so‘zlar,
O‘zgani ham aylagay o‘zlar
Shirinkalom o‘zbek tilida.

Avlodlarga meros bu tilim,
Unga xosdir tafakkur, bilim,
Fasohat-u hikmatlar lim-lim
Shirinkalom o‘zbek tilida.

## *Shavkat Rahmon*
## *(1950 – 1996)*

### BATTOL ORZUSI

Xalaqit beradi
hamisha bu vaqt,
bemalol ishlashga qo‘ymas bizlarni.
Qancha cho‘lponlarni otuvdik paq-paq,
zo‘rg‘a yashirgandik qonli izlarni...
Ammo vaqt ochvordi...
biz gumdon qilgan
hozircha... o‘ttiz-qirq milyonta murda
sodda – go‘l xalqlarga ji-i-nday teshilgan
kalla chanoqlarin ko‘rsatib turar.
Xo‘sh, muncha vahima...
axir siyosat
vaqti-vaqti bilan qon talab qilar,
axir hurfikrlik degan riyozat
har qanday davlatni yiqita bilar.
Insonparvarlikdan qaytganimiz yo‘q,
haliyam toshlarni kesar boltamiz.
Agar kerak bo‘lsa,
o‘qlarimiz ko‘p,
hammani bir boshdan paq-paq otamiz.
Cho‘lpon-po‘lpon deysiz,
ishimiz katta,
tarixga sig‘masdan turar o‘jarlar,
jaholat bosgan to‘rt asrni hatlab
Boburni oluvdik endi mo‘ljalga.

Ammo sal kechikdik...
chala qoldi ish,
vaqt ham mudrab qolar – hali koʻramiz,
Navoiy mulla bor, tagʻin Yassaviy,
narida Koshgʻariy,
bor-ku Toʻmaris...

## BAXT SOʻZI

Baxtiyorman degan birgina soʻzni
aytish uchun kerak qancha kuch-chidam,
garchi baxt soʻzlarning eng yoqimligi,
garchi tursa hamki tilning uchida.
Ogʻir botmasmikin
bu soʻz kimgadir,
tegib ketmasmikin oh-vohlariga,
qandoq bardosh berib yashayman keyin
baxtsiz kimsalarning nigohlariga.
Avvalo bu soʻzni oʻzgalar aytsin,
aytsinlar koʻzlari sevinchga toʻlib,
elning baxti uchun umrini tikkan
shoirlar aytmasin birinchi boʻlib.
Bu soʻzni bir umr aytmay yashadim,
har shodlik kelganda yurdim sekinroq.
Gʻam soʻzin elimdan avvalroq aytdim,
baxt soʻzin aytaman,
eldan keyinroq.

## SHOIRLAR XIYOBONIDA

Har mahin laylida
jonlanar haykal,
jon kirar Navoiy hazratlariga.
Tonggacha dunyoni aylanib qaytar,
Bezib haykallarning hasratlaridan.
Ayniqsa,
bahorni xo‘p ko‘rar hazrat,
jannatday shaharning harir shablari,
bulduruq shu’lalar yoshartgan ravza
ancha ravshan qilar nozik ta’blarin.
Istaklar
shabiston qavatlarida
ishq-u noz mayidan bo‘lganda luchchak,
xo‘bro‘ylar zulumot valatlariga
bargak lablarida tutganda muchchi,
hazrat dunyo kezar,
ko‘hsor-u yovar
mazgildan o‘tarkan bamisli sharpa,
go‘yoki tagida chaqmoq takovar,
bir kech Hirot jonib,
bir kecha – Mashhad.
Doim tinglab qaytar,
Chiqar-u taxtga
tinglar haykallarning hasratlarini.
Yuragi ezilar bo‘lgancha karaxt –
oyog‘i yo‘q edi pastdagilarning...
Ammo osmon yiroq,
zamin qattiq-da
tag‘in andomiga qaytar tolg‘inlik.
Tag‘in xayol surar turgancha tikka,
hazratni qiynaydi hamon yolg‘izlik.

## *Usmon Azim*
## *(1950-yilda tug‘ilgan)*

### X ASR. SAROY SHOIRI HAQIDA AFSONA

Tomog‘imda
so‘yilgan so‘zlar
xirillar.

Qo‘rquv ikkalamiz
so‘zlarni so‘yish bilan
shug‘ullanamiz
betinim.

Malikaning esa
chiroyli ko‘ringisi kelar,
unga «xunuksan» deb
bo‘ladimi?

Qo‘rquv bo‘g‘zimga pichoq qadagan.

– Men chiroylimanmi? – deydi malika.

Husni haqida
uzun-uzun
satrlar to‘qiyman
Aruz vaznida.

– Rostini ayt, – deydi malika.

Oy-u yulduzli o‘xshatishlar
zo‘riqib sochilar
she’rimga…

U tasqara
bir mis tanga tashlaydi menga.

Halloslab saroydan chiqaman.
«Xudoga shukur,
bola-chaqam ochdan o‘lmaydi bugun.
Bir parcha non bor.
Minnatli non!..
La’nati…»

O‘n asrdan so‘ng
she’rlarimni o‘qiysiz
hayajondan
hapriqib.

Yolg‘ondan
juda dahshatli
eshitilar –
so‘yilgan so‘zlarning
xirillashi…

* * *

Kuz – Navoiy devoni. Bedor
O‘qi. Ho‘ngra – qiynasa dardlar.
Qator-qator kuzgi daraxtlar
Daho yozgan fojia baytlar.

Dil taqdirdan qaytishga moyil –
Xazon bo‘ldim! – (qo‘llagin, nabi!)
Kezinaman bog‘da Navoiy
Topolmagan yolg‘iz so‘z kabi…

## *Yo‘ldosh Eshbek*
## *(1950-yilda tug‘ilgan)*

* * *

Ijarada yashayotgan yosh,
Yurtdosh
Shoirlar, sizga achinaman.

Zax hidida qon rangi,
Ey so‘zlarning jarangi,
Ona so‘zlarim, sizga achinaman.

Tillari o‘layotganlar,
Dillari to‘nayotganlar.
Buni ko‘rib-ko‘rmayotgan rahbarlar,
Buni bilib-bilmayotgan sarvarlar,
Sizga achinaman.

Ey siz
Haqsizlikni ko‘rib,
Tomirimda sokin oqayotgan qonlarim,
Sizga achinaman.

## *Abdusaid Ko‘chimov*
## *(1951-yilda tug‘ilgan)*

* * *

So‘zni otib o‘ldirolmaysiz,
Ammo otib o‘ldiradi u.
So‘zni yoqib kul qilolmaysiz.
Ammo yoqib, kul qiladi u.
Dorga osib bo‘lmaydi so‘zni.
Dorga osar, ammo u sizni...

### HAR DOIM YAXSHI SO‘Z AXTARIB YASHA

Har doim yaxshi so‘z axtarib yasha,
Rayhonlar gullasin har bir so‘zingdan.
Do‘stlarning yo‘liga maysaday to‘sha,
Chechaklar erkalab quvsin izingdan.

So‘zlaring loladay to‘ldirsin dashtni,
Qumrilar, bulbullar sho‘x kuylar chalsin.
Yulduzlar yog‘duni, chaqmoq otashni,
Quyosh haroratni so‘zingdan olsin.

So‘zlaring sabodek sochlarin o‘ynab,
Suysin, erkalasin shaddod qizlarni.
Sevgiga to‘ldirsin buloqdek qaynab,
Oshiq yuraklarni – shaydo ko‘zlarni.

Tog‘larday yelkadosh, bog‘larday sirdosh,
Daryoday qon bo‘lsin so‘zingga so‘zing.
Aldoqchi so‘zlarga aslo egma bosh,
Ulton bo‘l, sulton bo‘l o‘zingga o‘zing.

Bahor yomg‘iriday, qishning qoriday,
Olamni yayratsin qaymoq so‘zlaring.
Baayni murodbaxsh ertakdagi nay,
Tillarni sayratsin qaynoq so‘zlaring.

Do‘stlarni kuldirsin, yovni o‘ldirsin,
O‘ldirsin g‘alamis iboralarni.
Jahonni muattar nurga to‘ldirsin,
Quvonchga to‘ldirsin shalolalarni –
Har doim yaxshi so‘z axtarib yasha.

*Sharifa Salimova*
*(1951-yilda tug'ilgan)*

## ONAJON TILIM

Onam, onajonim allasi o'zing,
Tilim tilsimi-yu yallasi o'zing.
Ulkan tog' yashirgan tillo sen o'zing
Mening o'zbek tilim, onajon tilim.

To'lin oy ishvasin tarjimoni sen,
Men faqir bir qulning xonumoni sen.
Turkiy degan xalqning toza qoni sen
Mening o'zbek tilim, onajon tilim.

Sensiz men nimaman, sensiz men kimman,
Sensiz men bo'shliqman, sensiz men jimman.
Sensiz men oyoqlar ostida chimman,
Mening o'zbek tilim, onajon tilim.

Tuproq shivirini qo'shgan jonimga,
Lavhul buzrugimsan ustixonimda,
Jonbaxsh havodirsan oqqan qonimda,
Mening o'zbek tilim, onajon tilim.

G'anim qasddan payhon qilgan chamanim,
Og'zini suvlig'i yirtgan samanim,
Kimlarga yaxshi-yu, kimga yomonim,
Mening o'zbek tilim, onajon tilim.

Umr deganlari suvdayin oqdi,
Kim chakkangga rayhon, kim tikon taqdi,
Lek daryolar yana ko‘ksingga oqdi,
Mening ona tilim, onajon tilim.

Bu kuygan dilimning yaralari ko‘p,
Cho‘lpon-u Fitratdek saralari ko‘p,
Tilim deb qismati qarolari ko‘p,
Mening ona tilim, onajon tilim.

Hazrat Navoiydek soyaboni bor,
U mangu bag‘ringda bo‘y cho‘zgan chinor,
Ming bulbul tiliga sayrab yotgan tor,
Mening ona tilim, onajon tilim.

Qorako‘z bolamga o‘zing enaga,
O‘zing darg‘adirsan turkiy kemaga,
Sensiz shoirligim arzir nimaga,
Mening ona tilim, onajon tilim.

Tarixim, taqdirim, oy oqqan buloq,
Chuchuk til go‘dagim, tillashgan inoq,
Xohla tumor bo‘lay, xohla ko‘zmunchoq,
Mening ona tilim, onajon tilim.

## *Sa'dulla Hakim*
## *(1951 – 2020)*

### ONA TILIM

Do'stga do'st-u dugona tilim,
Begonaga begona tilim.
Beshigimda yagona tilim,
Ona tilim.

«...Lug'otit turk», «Qutadg'u bilig»,
O'zbegimni o'stirgan ilik,
Odamiyga odamgarchilik,
Ona tilim.

Qizlaridek iffatli tilim,
Qardoshiga izzatli tilim,
Tilim – tilim va ilhaq tilim,
Ona tilim.

Ulus tilim, elat, xalq tilim,
Ulug' tilim, abad haq tilim.
Navoiyga zor, ilhaq tilim,
Ona tilim.

Ota bo'lib otlangan tilim,
Ona bo'lib shodlangan tilim,
Bola bo'lib yodlangan tilim,
Ona tilim.

Boshimda bosh bor ekan, borsan,
Ko'zimda yosh bor ekan, borsan,
Toki quyosh bor ekan, borsan,
Ona tilim!

## *Shukur Qurbon*
## *(1951-yilda tug'ilgan)*

# ONA TILIM

*Qasida*

Yuragimning qoshida
Sayrab turgan bulbulim,
Sensiz ochilmas gulim
Ruhiyat bo'stonimda,
Ona tilim, jon tilim.
Qadim ajdod qonida
Seni tanidi dunyo,
Insoniyat tongida
Berding qalbdan aks sado.
Suvrat bo'lib chekilding
G'orlar ichra birma-bir:
«Ona qo'shuv bola», sevmoq bu,
«Yurak qo'shuv yoy o'qi» – sabr.
Ashshuriy, bobil, okkad
Taraqqiyoti bir yon,
Bir yon bo'ldi quyoshli –
O'lka quchgan sharaf-shon.
Ma'naviyat ufqida
Noming mangu aylandi.
Shumerlar mixxatiga
Ohanglaring joylandi.
Tosh deganni kim-kimlar
Tepib o'tmagan befarq,
Lekin sen bois uni
Boshga ko'tardi bashar.

Misli ong dengizida
Zarrin mavj bo‘lib qalqding.
Buyuk «O‘rxun-Enasoy
Yozuvlari»da balqding.
Shakl misli libosdir,
O‘zgarar o‘tib zamon.
Ayniqsa, bosqinchi yov
Bo‘lsa boshda hukmron.
Ayniqsa, u bor yerda
So‘zlashsang o‘z tilingda,
Bilmay xunob bo‘lsa u
Ne borligin dilingda.
Zo‘rlab-da o‘z yozug‘in
Peshonangga o‘yar u,
Yot tilda chuldiratib
Tomoshangni ko‘rar u.
Biroq mazmun-mohiyat
Hokim erur shaklga.
Arab imlosi bo‘yin
Egdi turkiy aqlga.
Navoiyday farzanding
Dunyoga keldi shu kez.
Seni deb sarg‘ardi u,
Qon tupurdi erta-kech.
Parvoz etib nazm aro,
Osmonlarga urding bosh,
Lekin tuproqni qo‘msab,
Pinhona to‘karding yosh.
Ta’zimda bo‘y-bastingga
Yetmish olam bosh egdi.
Go‘zal «Boburnoma»da
Oyog‘ing yerga tegdi.

Yer dardlari shu ondan
Seniki boʻldi butkul,
Falakdan baxt soʻradi
Mashrab – isyonkor oʻgʻil.
Yana shoir zarur boʻldi
Sening soʻz minbaringga,
Ona tilim, chiqdi shoir
Turdi, yarab koringga.
Muqimlikni koʻrding yillab,
Yigʻlab yurding furqatda.
Koʻplar seni unutdi
Davomli bu kulfatda.
Tumtaroq xonliklardan
Turfa jaholat qoldi.
Kim necha yillar yanglish
Xalqim omi sanaldi.
Kim aytar «bu gʻalvirdan
Oson oʻtdi vatanim».
Men aytarman, «ne baxtki,
Omon oʻtdi Vatanim».
Bois – har soʻzing uni
Kelajakka chorlardi.
Sheʼriyat osmoningda
Choʻlponlaring porlardi.
Yangrarding avj pardada
Yana-da hur, yana shaʼn.
Lekin odat boqdilar
Senga ham hasad bilan:
Bir burchakda toʻplanib
Til bilmas uch-toʻrt gʻalcha,
Farzandlaring boshiga
Musibat soldi qancha.

Kitob ko'targan kimsa
Tahlikali ko'rindi,
Nonday aziz bitiklar
Yerga pinhon ko'mildi.
Asil shoirlaringni
Xalq dushmani dedilar,
Qarg'adilar, so'kdilar,
Bir-bir boshin yedilar.
Shoirni o'ldirarlar,
O'ldirib bo'lmas so'zni.
Sen tirik qolding yana,
Xalqimning ko'rar ko'zi.
Ne tong, Mustaqillikning
Shamollari esib sha'n,
Olding davlat maqomin
Qancha til aro rasman.
Peshonangga taqdirning
Saodati yozilgan.
Bugun senda Qur'oni
Karim, hadis bosilgan.
Men ham ulug'ligingga
Orqa qilgan qalamkash.
Senda qanday kuyladim,
Elga havola yakkash.
Tasodif ko'p dunyoda,
Shoir bo'lsam-da bir kun –
Hikmating men uchun, bu
Muruvvating men uchun.
Bo'lolmasam, ayb menda,
Sevolmabman seni, oh.
Har ikki holatda ham
Senga sodiqman biroq,
Ona tilim, jon tilim.

Zero, men senikiman,
Sen tuygan zavqnikiman,
Sen kuygan qaygʻuniki,
Ona tilim, jon tilim.
Sen mangusan, baqosan,
Men esam – oʻtkinchi zot.
Sen hamisha bahorsan,
Men – lahzalik xotirot.
Ona tilim, jon tilim.
Sensiz men soʻladirman,
Devona boʻladirman.
Tuqqanimga yetti yot
Begona boʻladirman,
Ona tilim, jon tilim –
Yuragimning qoshida
Sayrab turgan bulbulim.

## NAVOIYNI ANGLASH

Tarix, degani bu – jang-jadal emas,
Soʻzdir u , soʻzlarda aks etgan ma'no.
Balki turkiyni ham birov til demas,
Navoiy nazmidan tuymasa navo.

Uygʻoq shuur bilan xayolga tolsak,
Navoiy va iymon – egiz tushuncha.
Shoirga biz qancha yaqin borolsak,
Xudoga yaqinlab borurmiz shuncha.

El gʻamin oʻylagan baribir oʻlmas,
Uni kutar doim taqdir alomat.
Bu teran nolalar hech qachon soʻlmas,
Koʻngilni avaylab-asrar salomat.

«Ey, Navoiy», deya chorlar oʻzini
Muhabbat yoʻliga, mehr yoʻliga.
«Ey, Navoiy» – jahon ochar koʻzini,
Tilla tushgan kabi gadoy qoʻliga.

«Ey, Navoiy» – quyosh tushar samodan,
Ketar poy-piyoda ufqlar oralab.
Yurak entikadi toza havodan,
Metin dardlarini tilka-poralab.

Avlod-avlodlarga hamisha yor u,
Turli xalqlar aro raso qaddimiz.
«Soʻzimni eshit» – deb bizlarga zor u,
«Biz ham zor» – deyishga bormi haddimiz?

*Xurshid Davron*
*(1952-yilda tug'ilgan)*

## ONA TILIM

Kelib ketdi necha dunyolar,
Kuldi hayot, yig'ladi o'lim.
Sen deb qurbon bo'ldi bobolar,
Ular ketdi, sen qolding, tilim.

Belanchaging uzra Koshg'ariy
Kuylab o'tdi qadim navoni
Va navqiron yaproqlaringga
Dil qonini berdi Navoiy.

Samarqanddan Bobur ketarkan,
Dilda bo'g'ib hasrat sasini,
Olib ketdi ona yurtidan,
Turkiy tilim, birgina seni.

Mashrabmas, sen osilding dorga,
Nodiramas, sensan so'yilgan,
Hoziqningmas, sening, ey, tilim,
Boshing ayru, ko'zing o'yilgan.

Ammo dushman o'ldirgan botir
Tirilgandek yana qasosga,
Mangu borsan va mangu qodir
To'ldirmoqqa yerni ovozga.

Vatan uchun baxsh etib jonni,
Kechib olov, kirib daryoga,
Farzandlaring to‘kkan har qonni
Shimirding sen o‘xshab giyohga.

Ona tilim, omon bo‘l mangu,
Sen borsan-ki men ham o‘lmayman,
Tildan qolsam, seni Oybekday
Men ko‘zlarim bilan so‘ylayman.

## KOSHG‘ARIY

### 1

Olis-olislarda, ko‘k yorug‘ida
Tovlangan adirda surgancha xayol,
Osmon-u zaminning oralig‘ida
Chol turar – soqolin qo‘mitar shamol.

U daftarning oppoq varag‘i kabi
Moviyrang samoni tekislab, shaylab,
Qalamni olovga botirib olib,
«Quyosh» degan so‘zni bitar avaylab.

Shunda daryolarda to‘lib suv oqar,
Qirlarga tomchilar gullar quyoshdan.
Ufqlarga qarab chopar so‘qmoqlar,
Maysalar sakrashib o‘tadi toshdan.

### 2

Olis-olislarda, yillar qa’rida
So‘zlarni uyg‘otar o‘ychan ko‘zli chol.
Quyoshning tafti bor yurak qo‘rida,
So‘zlarning changidan oqargan soqol.

Chol bilar, ona til – xalqning yuragi,
Xalq oʻlmas – soʻzini oʻldirolmasang.
Ona tilda jodir xalqning tilagi,
Har soʻzida yashar qadimiy ohang.

Xira koʻzin uzmay oppoq varaqdan
Bitarkan eng oddiy ulugʻ soʻzlarni,
U soʻzlarni emas, zabun boʻlmoqdan
Aslida qutqarib qoldi bizlarni…

## «DEVONU LUGʻOTIT-TURK» OHANGLARI

### 1

Ketaman «Devonu lugʻotit-turk»ka,
Hasratim, quvonchim olib ketaman.
Moziyni bugunga, zaminni koʻkka,
Qalbimni «Devonu lugʻotit-turk»ka
Ulay deb ketaman, bir kun yetaman.

Qoyalarga chiqib qushdek boqaman,
Koʻkshin yaproqlarda nurdek oqaman.
Qora koʻk chodirin soʻz bilan tilib,
Mangraygan chaqmoqni olaman yulib,
Koʻksimga tilmochdek una taqaman.

Qop-qora tun chiqib kelar botordan,
Qip-qizil kun chiqib kelar tugʻordan.
Ularga basma-bas yelib boraman,
Boychechaklar chanqab chiqar qoshimga,
Tomirimni yorib, qonim beraman.

Arko‘zlardan hatlab, soylarni ichib,
Yatika shu’lasin bolamdek quchib,
O‘tloqlar qo‘ynini ohudek kechib
Yetaman – eshikni asta chertaman,
Koshg‘ariy chiqadi eshikni ochib.

U aytmas: – Shayton, – deb, u aytar: – Bayot.
U aytmas: – O‘lim, – deb, u aytar: – Hayot.
U aytmas: – Kecham, – deb, u aytar: – Ertam.
U aytmas: – Bugunim. Aytar: – Budunim.
– Xayr! – demas. – Salom, – der, – salom, nabiram!

## 2

«Devonu lug‘otit-turk»da quyosh sochar nur,
Ko‘kshin yaproqlarda yangraydi bahor.
Tumanlar siljiydi misli oq uyur,
Barchin bulutlar-u o‘tloqlar bedor.

«Devonu lug‘otit-turk»da sayrar sandovuch,
Totlig‘ qo‘shiqlarin aytar sunduloch.
Qarg‘iloch aylanur, qimiz to‘la mesh
Shivirlar: – Sog‘inchni so‘qmoqlarga soch!

«Devonu lug‘otit-turk»da oqarar tunlar,
Yabkinlar qo‘ynida yelar qulunlar.
Yam-yashil o‘tlarni qo‘mitib shamol,
Yomg‘ir taqib ketgan durlarni yular.

«Devonu lug‘otit-turk»da ochun yorug‘dir,
Yo‘llar xo‘b uzundir, yulduzlar yirik.
Yetmoqlik – gumondir, ketmaklik – zarur,
Yuraklar – dolg‘ali, orzular tirik.

* * *

Yuki og‘ir to‘rva bordir yelkamda –
Yo‘l yurib, suv kechib, tog‘-u tosh oshib
Qishloqlarga kirib boraman,
Yo‘lda
Uchragan darvoza zulfin uraman.
So‘z so‘rayman, «So‘z bormi?» deyman,
Ba’zan bolalar,
Ko‘zlari qop-qora bolalar
Yugurib ichkariga kirib ketishar,
So‘ng chiqarib berishar ushoqqina so‘zni –
Ranjimayman,
To‘rvamga solaman…

Yana yo‘lga tushib, yo‘lda uchragan
Eshiklar zulfini qattiq qoqaman,
Eshik ochganlarga qo‘rqib boqaman,
So‘z so‘rayman, «So‘z bormi?» deyman.
Ba’zan: «So‘zni so‘rab nima qilasan?
Pul so‘ragin, to‘rvangni to‘ldiraylik», deb
Xaxolab kulishar, masxaralashar,
Aslida ular meni emas,
so‘zni masxaralashar…

Ba’zilar tirqishdan, tirqishdan mo‘ralashar,
«Bu tilanchi nega so‘z so‘raydi?
Bu juda shubhali», – deyishar,
Har ehtimolga ko‘ra kaltaklashar –
Ranjimayman,
Burnimdan oqayotgan,
Yorilgan labimdan oqayotgan
Qonni artib yo‘lga tushaman.
Yo‘limda uchragan eshik zulfini

Ikki-uch bor qattiq qoqaman,
So‘z so‘rayman, «So‘z bormi?» deyman.

Ba’zan endigina tug‘ilgan chaqaloqning
So‘zini chiqarib berishar,
Shunda
Dunyoga sig‘masdan xursand bo‘laman.
Chaqaloq so‘zga hayratlanib boqaman,
Go‘yo oy nurida guldek oqaman…
So‘zlarni rayhonday hidlayman,
So‘zlarning shivirin tinglayman
Va birdan anglayman, birdan anglayman:
Yuragim bepoyonlashar bu ohanglardan,
Yuragim tiniqlashar bu sha’n ranglardan!

…Qoq tun menga qayda yetib olsa,
O‘sha yerda birga tonggacha uxlayman
To‘rvamdagi so‘zlar bilan.
Ularni quchoqlab yotaman,
Shundoq biqinimdan, to‘rvam yirtig‘idan
Boshini chiqarib
So‘zlar maysalar bilan gaplasha boshlar,
So‘zlar yulduzlar bilan gaplasha boshlar.
Ba’zan yarim tunda uyg‘onib, qarasam,
So‘zlar oppoq tulporlarga aylanib
O‘tlab yurgan bo‘lar tevaragimda…

Ba’zan yo‘qotib qo‘ygan so‘zni izlab
Toshlarni ko‘chirib, ko‘rib qolaman –
Boychechakni quchoqlab yotgan bo‘lar so‘z.
So‘zlarni bag‘rimga bosaman,
Gul hidi qoladi dimog‘larimda,
So‘zlar yuragimdagi qorlarni teshib

Ochiladi quchoqlarimda.
So‘zlar menga afsonalar so‘ylar,
So‘zlar menga qadim qo‘shiqlarni kuylar,
So‘zlar yolg‘izlikda men bilan o‘ylar,
So‘zlar bola kabi men bilan o‘ynar…

So‘zlar yolg‘izlikda men bilan bo‘zlar,
So‘zlar ko‘tarar hasratim tobutini,
So‘zlar xotiram qabriga gullar o‘tqazar.
Meni kelajakka yetkazar so‘zlar,
Men qaytib kelmayman hech qachon,
So‘zlarim, albatta, qaytadi.
Ketgan yuraklarning afsonalarin
So‘zlar kelib aytadi…

Yo‘l bosib, suv kechib, tog‘-u tosh oshib
Qishloqlarga kirib boraman,
Yo‘lda
Uchragan eshikning zulfin qoqaman,
So‘z so‘rayman, «So‘z bormi?» deyman…

## ONA TILI HAQIDA BALLADA

– Nima istar bizdan bu odamlar, ayt,
Ota, ular bilan borma… ota… o-ta-a, qayt.

Nega, ayt, otamning ko‘kraklari qon,
Nega, ayt qo‘lingda kishan, onajon?!

Bola o‘ksib yig‘lar, yov o‘qi uchar…
Ota boshi og‘ib, tuproqni quchar.

Bola yig‘lar, ona qo‘lida kishan –
Onaning tilini kesadi dushman.

So‘ng uchqur otiga qamchi urar sho‘x,
Yulduzni qulatar ko‘kka uchgan o‘q.

Bola tilsiz ona yonida omon,
Dushman yelib borar qichqirib shodmon.

Qichqirar: «Hech qachon endi bu bola
Boshida onasi aytolmas alla.

Hech qachon ocholmas ona dilini
Va go‘dak unutar ona tilini».

Tilin unutgandan qo‘rqmaydi dushman,
Tilin unutganning farqi yo‘q toshdan.

Ammo dushman bilmas: bor ekan Vatan,
Bu daryo, bu dala, bu tog‘ bor ekan,

Ona tili aslo bo‘lmagay unut,
Agar ishonmasang, qulog‘ingni tut:

Onaning qayg‘uga to‘lgan ko‘zlari –
Ona tilining eng buyuk so‘zlari.

Tingla, bog‘da daraxt shu tilda gullar,
Dashtda bo‘rilar shu tilda uvillar.

Yalpizlar, buloqlar, ko‘kda yulduzlar
Bola bilan ona tilida so‘zlar…

Otasining qoni, vayron qal’alar
Tunlari bolani kelib allalar…

## *Mahmud Toir*
## *(1952-yilda tug'ilgan)*

### ONA TILIM

Qadrim so'raganda qayrog'im, tilim,
Yorning ta'rifida qaymog'im, tilim,
Yovning yuragiga titroqlar solgan,
Alpomish belida belbog'im tilim.

Yassaviy baytida tumorim, tilim,
Navoiy nazmida sen orim, tilim,
Kumushning vasfida betakror malak,
Qodiriydan qolgan yodgorim, tilim.

Onam allasida bayotim manim,
Bolam og'zidagi novvotim manim,
Oq-sariq ilonlar bo'ynidan bo'qqan,
Tanglayda tosh qotgan faryodim manim.

Toshlar to'fonida bag'ri tilimsan,
Ko'ksin changallagan qonli qo'limsan,
Oyga almashmasman, kunga bermasman,
Cho'lpon yuragida ungan gulimsan.

Ko'zlarning gavhari, ko'ngil oynasi,
Izhor iffatidir yorning ginasi.
Mashrab qalamida devona tilim,
Tinglagan, entikkan ishq ashulasi.

Jismimda demangiz, jonimda tilim,
Yetmish ikki tomir-qonimda tilim,
O‘g‘limga ham mening jonimdan o‘tgan,
Qizimga qatralab qonimdan o‘tgan.

Qadrin so‘rasangiz qarog‘im tilim,
Ko‘ngil osmonida chaqmog‘im tilim,
Nonidek totli-yu, choyidek issiq,
O‘zbek ko‘ksidagi bulog‘im tilim.

*Dilbar Haydarova*
*(1952-yilda tug'ilgan)*

## ONA TILIM

O'tgan buyuk ajdodlar ruhida to'lg'anasan,
Urug'i, elati ko'p, xalq bilan uyg'onasan.
Bolamning, nabiramning tilidagi onasan,
Ona tilim, jon tilim, men uchun yagonasan.

Amudaryo, Sirdaryo bo'ylarida makoning,
Ammo yetti iqlimda bir xilda jaranglaysan.
Toleyimga bitilgan Simurg'day o'chmas shonim,
Har qayda yo'l xarita bo'lib yo'lga boshlaysan.

Ona so'zin anglatgan, Vatanday mehrigiyo,
Ona tuproq qatidan gul bo'lib ochilding yo?
Ishq seliday dunyoga dur bo'lib sochilding yo,
Jonimga jonsan tilim, yuragimdagi ziyo!

Qulog'imda hamisha jaranglagan torsan sen,
Yetmish ikki urug'im tilidagi bolsan sen,
Vatan so'zin aytganda, ko'ngildagi orsan sen,
Ota-onadan me'ros avlodlarga yorsan sen!

Ozodlik, tenglik so'zin tilimdagi totisan,
Sen – onasan, sen – nonsan, sen Vatanning otisan,
Navoiy, Bobur, Mashrab, Usmonning bayotisan,
Ona tilim deganning tilidagi totisan!

Hech qachon ayirmasin tirnog'imiz shu etdan,
Bu bizning tilimizdir, asrang olovdan, o'tdan.
Yerdan oyoq uzilib, parvoz etsak G'irko'kda,
Axir tildan ajragan bir kun ajrar millatdan!

*Jahongir Ismoilov*
*(1952-yilda tug'ilgan)*

## MILLAT TIMSOLI

Do'stim, atak-chechak bolakay avval,
Hijjalab so'zlashni o'rganishi rost.
Ilk bor qo'lga kitob olgani mahal,
Til bilgani bois qo'yadi ixlos.

Yoki hech kim ilk bor ochib daftarni,
Til bilmasa ravon yozib ketmagan.
Zakiy qaysi zot bor ayting-chi, qani,
Tilning qudratini idrok etmagan?!

Bashariyat paydo bo'lgandan beri,
Oliy haqiqat bor barchaga ayon.
Har millat tilining qudrati, sehri,
Boyligi, mazmuni so'zda namoyon.

Jamiki yuksaklik boshlanar yerdan,
Garchi ilg'ayvermas ko'z adog'ini.
So'z mulkin sultoni mir Alisher ham,
Avval puxta olgan so'z sabog'ini.

Mustahkam poydevor bois aslida,
Qad rostlab turganday obida, bino.
Ilmin tilda bayon etmaganida,
Chaqnab chiqarmidi Beruniy, Sino?!

Kamsitmasman o‘zga tillarni aslo,
Va lekin kam erur do‘stim, hoynahoy;
O‘zbek so‘zimizday ma’nan serjilo,
Ifodada o‘zbek tilimizday boy.

Inkor qilib bo‘lmas bir haqiqatni
Tan olmoq, e’tirof etmoqlik joiz.
Ona tilim deya qadrlangani,
Til millat timsoli ekani bois.

Kamol topgan sari navqiron avlod,
Kengayib boradi idrok, shuuri.
U balki samoda quradi hayot,
Balki qolmas dardning bedavo turi.

Buloqlar ko‘p erur bugun ko‘zi berk,
Erta ochilar, vaqt o‘tib bormoqda.
Hozirda ham qancha Alisher, Sino,
Beruniylar tildan saboq olmoqda.

Vatanim dunyoga tutgan yorug‘ yuz,
Ko‘p millatli xalqmiz dili bir, ahil.
Buyuk ajdodlarning azmiga voris,
Qancha zamondoshlar chiqmoqda dadil.

Bizga Haqdan nasib o‘zbekcha o‘ylab,
O‘zbekchada burro gapirish baxti.
So‘zlashgan, yozganda g‘urur tuyar qalb,
Jon-u non, shon qadar, quyoshday tafti.

*Umida Abduazimova*
*(1953-yilda tug‘ilgan)*

## O‘ZBEK TILI

O‘zbek tili mening uchun asosiy til,
Bugun, erta-indin, kecha... huvv, moziy til.
O‘zin hurmat etar odam o‘zin bilar,
O‘z tilida o‘ylab, aytar so‘zin bilar.

Kecha paydo bo‘lgan emas o‘zbek tilim,
Oltoy tillar oilasida o‘zdek tilim.
Turkiy tillar ichida o‘z o‘rni bordir,
Hayajoni, xotirasi, qo‘ri bordir.

Ona-ota, Vatan, millat yagonadir,
Din, e’tiqod iymonliga bir donadir.
Fors, arab, rus tillaridek jozibador.
Millat ruhi.
Ruh oldida o‘zbek qarzdor!

## O‘ZBEKCHA TUSH KO‘RAMAN

Ustozim o‘z tilimda
So‘zlatar meni ravon.
Chunki o‘zbek tilida
So‘zlashar O‘zbekiston.

O‘zbek tili ona til,
Rus, nemis…
Jonona til.
Qaysi yurtda yashasang,
Shu yurt tilin hurmat qil.

Men ko‘p tilni o‘rganib,
Muomala qilaman.
Ammo o‘zbekcha yig‘lab,
O‘z tilimda kulaman.

Enasoyning ertagi,
Go‘zal Oltoy chechagi,
Xun davridan G‘irotda
Kelgan tarix kechagi.

Bugunimni ortmoqlab,
Ertamga shoshiladi.
Borsa qaytmas tomonga,
Kelganini biladi.

O‘z tilimda o‘y surib,
O‘zbekcha tush ko‘raman.
O‘zbekman, – deb har yerda,
G‘ururlanib yuraman.

## *Hakim Sattoriy*
## *(1953-yilda tug‘ilgan)*

### ILK SO‘Z

Mo‘jizalar kabi tillar ham bisyor,
Har biri Vatandir bitta dunyoga.
Tillarni o‘rganish – takror va takror
Qalb ko‘zin ochmoqlik nurga, ziyoga.

Lekin o‘zbek tili jonimdek aziz,
(Bunday his tanhodir inson dilida).
Chunki ilk bor eshitganim so‘z
Yangragandir o‘zbek tilida.

## *Muhammad Yusuf*
## *(1954 – 2001)*

### ONA TILIM

Garchi zug‘um qilganlarni yoqtirmadim,
She’r yozdim-u bo‘lak ishni qotirmadim.
Tilim turib o‘z tilimda gapirmadim,
Bir eslasam eziladi bag‘ri-dilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Onam «erkam» deb quchganda tunlar yarim,
Erkim yo‘q deb zirqirardi bir joylarim,
Parovozni hansiratgan bug‘doylarim,
Oltinlarim, ma’danlarim, ipaklarim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,
O‘zbekni qon qaqshatganni o‘zbek siylar,
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,
Topganimiz handalakdek tilim-tilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimdir mayda millat bo‘ldi, kimdir katta,
Katta millat – Afandisi yo‘qdir hatto,
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,
Zulm o‘tsa faqat sendan o‘tdi zulm,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo‘lmasang nima bizga silliq she’rlar,
Bu dunyoda tili yo‘qda dil yo‘q derlar,
Bahoying-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to‘ridagi so‘lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Bir qarasam har shevangda ming jilolar
Har novdangda, har mevangda ming jilolar.
Qodiriylar, Cho‘lponlar-u Abdullolar,
Sening qaytgan kuning men tug‘ilgan yilim,
Ona tilim, ey muqaddas ona tilim.

*Enaxon Siddiqova*
*(1954-yilda tug'ilgan)*

## ONA TILIM

Navoiydan tabarruk zar, gavharim,
Koshg'ariydan qolgan durdona tilim!
O'zbekning o'ziday jafokash, haqgo'y,
Donishim, latifim, mardona tilim!

Ulug' ona tilim, o, go'zal ismat,
«Hibatul haqoyiq» so'ylasin bir-bir.
Navoiyni bergan sohibi qudrat,
Azal kotibidan sen ilohiy sir!

Qutlug' ona tilim, kechmishingni dol,
Tillari kesilgan bobolar aytsin.
Oybek aytsin, haqsizlikdan gung-u shol,
Buyuk yolg'onlardan adolar aytsin!

Kafansiz ko'milgan shahidlar yodin
Shu qonli choh aytsin!
Chirmashib yotgan –
Qabrida ham o'ylab, munglig' el dardin,
Hatto so'ngaklari birlashib yotgan!

Aytsin alamazon yongan kitoblar,
Qurbon qushday uchgan so'zlar gulxanda,
Kesgan sari o'sding! Surayi soflar,
Ozodlikday undi kulda, kundada.

Sudsiz otilgan Qodiriy koʻziga
Dodlab tushgan qora tuproqlar aytsin!
Mashrab osilgan dor aytsin, yuziga,
Qon tomib, ingragan yaproqlar aytsin!

Usmon Nosir ruhi aytsin urib charx,
Zulmlar tiygʻidan Sibirda uv, sil.
Asramoqni udda qilmading-ku charx,
Qandogʻam chidading jonim ona til?!

Uzun yigʻi kelar qati qatingdan,
Uzun yigʻilardan qurigan koʻzim.
Bugʻdoyzorlaringni toptaganlarga
Bugʻdoy nonlar tutgan, o, bugʻdoy soʻzim!

Choʻlponga tutilgan oʻlim qadahi,
Xiyonat zahridan hamon oqar qon.
Ey yarador qushim, jonim chah-chahi,
Sen Bobur – sogʻinchda ado boʻlgan jon!

Tiriklik nishonim oʻzing, erk tugʻim,
Mangu oqar daryom sening oʻzingsan!
Oʻzbek tili jahon aro qutligʻim,
Sharaf tojim, unvonim, oq yuzimsan!

Oʻzbek onasisiz gʻaribdir ochun,
Tafakkur beshigi tebranmasdi soz.
Birgina Navoiy tuqqani uchun
Dunyo taʼzim qilsa oʻzbekka bu oz!

Tafakkur ufqida oftob yangligʻ balq,
Hurlik boʻlib chiqqan maydona tilim!
Charx ur olam uzra, kabutarday charx,
Ozod, hur vatanday afsona tilim!

# *Asror Mo‘min*
## *(1954-yilda tug‘ilgan)*

### TAVALLUD

Nazmbozlar tosh otib ona tilimga,
Elim o‘rtasiga soldi g‘uluni.
Axiyri, bu toshlar botdi elimga,
Dunyoga keltirdi shoir o‘g‘lini.

Har til qudratining cheksizligiga,
Alisher Navoiy qo‘ydi e’tiqod.
Timsol etib tilim tengsizligiga,
«Xamsa» haykalini ayladi bunyod.

Tinim neligini bilarmi zamon,
Qancha o‘zgartirdi suvlar yo‘lini.
Biroq bizning elda o‘shandan buyon,
Shoir tug‘ilyapti suyib tilini.

*Boqiy Mirzo*
*(1954-yilda tug‘ilgan)*

## DOSTON TILIM

Ona tilim, jon tilim, tarixda doston tilim,
Orzular ro‘yobiga ming bitta imkon tilim.

Sen Navoiy g‘azali, Boburning kalomisan,
Oshiqlarga arg‘umoq kelinlar salomisan.

So‘zlaring jaranglasa, tildan uchar navolar,
Ruhiyatim qa’ridan kelar yangi sadolar.

Har so‘zing g‘ururimga kuch berar, qanot berar,
Ko‘ngil izhorlarimga mangulik, bayot berar.

So‘zlaring gul chechakday bahorning tarovati
Dilimga joylasharkan, donishmand zakovati.

Sen borsanki, millatim o‘rni sobit dunyoda,
Orzu-yu havaslarim qolib ketmas ro‘yoda.

## *Abdunabi Boyqo'ziyev*
## *(1954-yilda tug'ilgan)*

* * *

So'z ham arazlaydi
Yo'qlab turmasang,
Boshin olib ketar xotirlaringdan.
Xayol so'qmoqlari o'char, yurmasang,
Iz ham qoldirmaydi botinlaringda.

Bir so'z o'chsa nima, dema, og'ayni,
O'sha bir so'z sening tiling – so'zingdir.
Bir so'z o'chsa nima, dema, og'ayni,
Shu so'z balki mendir, balki o'zingdir!

* * *

Ona tilim –
O'sayotgan tog',
Ona tilim – beorom ummon.
Qirlariga chiqolganim yo'q,
Tublariga yetmog'im gumon.

Ona tilim – Ona obidam,
Pushti-pushtim yoritgan mayoq.
Xira tortsang so'lg'indir diydam,
Charaqlasang, yuzlarim charog'.

Sen borsanki,
Ko'nglu ko'ksim tog',
Borligingdan borman, ey, tilim!
Sen yashasang borman, yo'qsan – yo'q,
Borligingday borman men, Tilim!

## *Ziyoviddin Mansur*
## *(1954-yilda tug‘ilgan)*

### SHOHONA TILIM, JONONA TILIM

Koshg‘ariyning til iqlimin,
Xoqoni qilib,
Turkiy hikmat bo‘stonini
Yashnatgan tilim.
Navoiyning g‘azal mulkin
Sultoni qilib
She’riyatning osmonini
Chaqnatgan tilim!

Noming onamga esh,
Egiz
Onam o‘zingsan,
Ilk azon,
Ismim bo‘lgan so‘z,
Kalom o‘zingsan,
Men olamni ko‘zdan ko‘ra,
So‘zda but ko‘rdim,
Men uchun keng
Olamdan keng
Olam o‘zingsan!

Yallalarning jarangi bor
Qay bir jarangda?
Nolalaring ohangi bor
Qay bir ohangda?

Olamdagi eng sha’n qo‘shiq
Ruhi barqaror
Ona bo‘lib, beshik uzra
Aytgan allangda?!

Bir so‘zga o‘nlab sinonim
Senda bor xolos,
«Iffat», «Hayo»,
«Jonim», «Xonim»
Senda bor xolos.
Amir amri bo‘lib,
Yarim dunyoni olgan
Qudratli kuch,
Ey, zabonim, senda bor xolos.

Davlat tili bo‘lganliging
Davlat emasmi,
Kemtik eding,
To‘lganliging
Savlat emasmi?
Hatto buyuk yurtlar seni qilgay tarjima,
Olamni rom qilganliging
Rag‘bat emasmi?

Zabon bo‘lib yaralganing
O‘zi bir dunyo,
Navolarga o‘ralganing
O‘zi bir dunyo.
Nechun jo‘shib aytmay
«Davlat madhiyasi»ni
Qo‘shiq bo‘lib taralganing
O‘zi bir dunyo!

Bek, amir-u xonlar tili,
Shohona tilim,
Munisa jononlar tili,
Jonona tilim.
Senda so'ylab,
Senda kuylab,
Sen-la faxr etgum
Koni ilm,
Jon-u dilim,
Jon ona tilim!

## *Nazar Shukur*
## *(1954 – 1985)*

### «DEVONU LUG‘OTIT-TURK»

Sochilib ketgandi xalqim har taraf,
Sochilib ketgandi so‘zlar ham butun.
«Oq tanli» til edi forsiy va arab,
Turkiy til – «qora tan», turkiy til – yupun.

Oxir turkiy so‘zlar chidolmadi, bas,
Bari til topishdi,
Bari sirlashdi.
Yo‘q, Qullik bayrog‘i ostida emas,
«Devonu lug‘otit-turk»da birlashdi!

*O‘ktam Mirzayor*
*(1956-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

Otamga bobosidan,
Bobomga otasidan,
Momomga onasidan,
Onamdan meros tilim,
Sen bilan yorug‘ dilim.
Bir quchoq hayajonim,
Tuynugi bo‘lmasa-da,
Ko‘nglimda nur, jahonim.
Asal, obinovvotim,
Qovunimsan bir tilim.
Ona tilim, jon tilim,
Mening onajon tilim.
Bobolarim so‘zladi,
Dovrug‘ solib olamga.
Kahkashonni ko‘zladi
Ruhing qo‘nsa bolamga.
Onamdan meros tilim,
Sen bilan yorug‘ dilim.
Biyron o‘zbegim, elim,
Ona tilim, jon tilim,
Mening jonajon tilim.
Onasi alla aytib,
Mirbobomni tebratgan.
Bobom tilla beshikda

She’riyatni uyg‘otgan.
She’riyat har eshikda
Ko‘ngillarni yayratgan.
Ona tilim, jon tilim,
Shunqorlarni ulg‘aytgan.
Bu olam mehvarida
To bordir turkugo‘ylar,
Jarangi kelib turar
O‘zbekcha o‘qigo‘ylar.
Ona, deb emranadi
O‘zbekning chaqalog‘i,
Onam, deb tebranadi
Munkillagan chollar ham.
O‘tmishin unutmaydi,
Kelajak ham bir tutam.
Biyron o‘zbegim, elim,
Ona tilim, jon tilim,
Abadiy yangroq dilim.

## *Mirza Kenjabek*
## *(1956-yilda tug'ilgan)*

### JAHON O'ZBEKLARIGA

*(Turli munosabatlar bilan chet ellarga*
*ketgan vatandoshlarimizga)*

Ko'nglim yumshab, bo'g'inlarim bo'sh endi,
Fe'lingizni asrang, ko'chgan o'zbeklar.
Sizni tuproq asrolmadi, xo'sh endi,
Tilingizni asrang, ko'chgan o'zbeklar.

Dehqonmisiz, tujjormisiz, yo'l boqar,
Qolayotgan Vatan sizga lol boqar.
Xorijlarda, bilmam, qanday hol boqar,
Tilingizni asrang, ketgan o'zbeklar.

Ulgi oling Sir va Amu nahrimdan,
Mendan keching, kechmang yurtning bahridan,
Siz ko'chdingiz, lekin yurak-bag'rimdan –
Tilingizni asrang, ko'chgan o'zbeklar.

Turkiy kuyda Dulbarjinning yodi bor,
Koshg'ariy ham Mir Alisher dodi bor,
Til yo'qotgan zotning qanday zoti bor? –
Tilingizni asrang, ketgan o'zbeklar!

«Alla» koʻrmay oʻsgan «qulun» qulunmas,
«Yor-yor» koʻrmay tushgan kelin kelinmas,
Hali sizga yotlik makri bilinmas,
Tilingizni asrang, ketgan oʻzbeklar.

Balki unda rizq-nasiba toʻkinroq,
Tuz-qum – ajal boʻroni yoʻq, sokinroq,
Endingizmi Enasoyga yaqinroq,
Tilingizni asrang, koʻchgan oʻzbeklar.

Hali yurtda handalakning boʻyi bor,
Olish-uloq, karnay-surnay toʻyi bor,
Ona tilda onaning dard-oʻyi bor,
Tilingizni asrang, ketgan oʻzbeklar.

Xiyonatlar qilib ruhi poklarga,
«Nasrulloh»ni alishdikmi «rok»larga?
Tangri madad bermas tili yoʻqlarga,
Tilingizni asrang, koʻchgan oʻzbeklar.

Til – yurakning intiqomi, asrori,
Oʻzbek qizin mehri, oftob uzori,
Begonaga qoʻshilmagan mozori,
Tilingizni asrang, ketgan oʻzbeklar.

Siz ketsangiz, men netayin, bor boʻling,
Hech xor boʻlmang, burgut boʻling, sor boʻling,
Lekin bir bor yurt mehriga zor boʻling,
Tilingizni asrang, ketgan oʻzbeklar!..

## QORA SEVINCH

*(Turkiy-o‘zbek tili davlat tili deb e’lon etilgan kun)*

Kimga xatlar yozdim,
Kimni ranjitdim.
Kimning mehr ipin uzdim,
Bog‘layman.
Siz kuling, quvoning,
Siz chekkan ranjdan
O‘zim yig‘layman.

Bu kun qizil rangdan
Nafrat qilmangiz –
U mening unimdir,
Xunimdir!
Sho‘x kuling, quvoning siz,
Bugun
Mening yig‘laydigan kunimdir!
It azobin totgan ko‘p, biroq
Kim mendek xo‘rlikda kuladi?!.
Toshkentning kattakon ko‘chalarida
Navoiy yurgandek bo‘ladi!

Men dedim:
Maqtama, mayli, yaxshini,
Va lekin yomonni so‘kib qol.
Yig‘lamaslik uchun endi ko‘p zamon
Ko‘zim, sen boringni to‘kib qol.

Kim dedi:
Rohat yo‘q,
Zulm bor.
Yo‘q, kurash deyilgan ilm bor!
Balki so‘zim yo‘qdir,
Ovozim yo‘qdir,
Lekin endi mening tilim bor!

Men xasman, maysaman,
Tuproqman,
Yaksonman tarixning izlari bilan.
Lek bugun olamga
Mag‘rur boqaman
Hazrat Navoiyning ko‘zlari bilan!

## O‘ZBEK TILI

Ko‘ksim ichra bir sharor o‘zbek tili,
Etgay olamni bahor o‘zbek tili.

Sochgay ochunga go‘zal chechaklarin,
Yog‘sa ham boshida qor, o‘zbek tili.

Bitta turkiy til daraxtin shoxlari –
Turk, qozoq, qirg‘iz, totor, o‘zbek tili.

So‘z bitiktoshlarda or-nomus bo‘lib,
Toshni ham so‘ylatdi zor o‘zbek tili.

Qoldi Yofasdan aziz yodgor bo‘lib,
Parchalanmas bir diyor – o‘zbek tili!

Tutma pinhon: olam ichra bo‘ldi goh,
Do‘stga zor, dushmanga xor o‘zbek tili.

Necha imlo o‘zani o‘zgardi-yu,
Oqdi mangulikka yor o‘zbek tili.

Do‘st bu tilni bemalol o‘rgangusi,
Yovni etgay tor-u mor o‘zbek tili.

Yassaviy, Bobur, Alisher, Mashrabing
Topdi sen deb e’tibor, o‘zbek tili!

Qaysi tilkim, bo‘lsa Haqning zikrida,
Ul lisonga Tangri yor, o‘zbek tili!

Yashna, ey dil, bu jahon chiltorida,
Hech uzilmas bitta tor – o‘zbek tili!

Toki olam barqarordir, toabad,
Olam ichra barqaror o‘zbek tili!

*Bahriddin Sadriddinov*
*(1956-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

Elimning lisoni turkiydir,
Lisonlar olamin ko‘rkidir.

Bu tilda yaralgan «Qutadg‘u bilig»,
Toshkitob – Enasoy, O‘rxuniy bitik.

Toshlarga jon bergan qutlug‘ kalom bu,
O‘zbekcha g‘urur bu, bitta salom bu!

Hazrat Navoiyni so‘ylatgan til bu,
Sog‘inchi Boburni yig‘latgan til bu.

«Xamsa»ning dong‘ini senga aytayin,
Bong erur «Muhokamat ul-lug‘atayn!»

Yassaviy pirimning «Hikmat»i bu til,
Elimning ijodi, himmati bu til!

Bu tilda yangradi yurtda istiqlol,
Elimning toleyi, baxti bezavol.

Sorbonim bu tilni atadi mayoq,
U mangu porlagay, o‘chmagay,biroq!

Tinchlikdir bu tilning asl mevasi,
Dunyoga taralar o‘zbek shevasi!

*Zamira Ro‘ziyeva*
*(1957-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

Qancha to‘zon, chang tuproqni yutding, tilim,
Soqovlanib ko‘kdan nima kutding, tilim,
Yuksalish deb muhojircha chuldirab men,
Tik qaddingni mung‘aytirib o‘tdim, tilim.

Koshg‘ariyning devonida shams, oy eding,
«Xamsa» ichra dunyo kezgan chiroy eding,
Taxlam-taxlam lug‘atlarda eng boy eding,
Notavonday toting bilmay ketdim, tilim.

Senga sodiq bobom quvg‘in bo‘lgan yillar,
Kesak bo‘ldi qo‘rquv quchgan necha dillar,
Sen yangragan kitoblarni ko‘mdi kimlar,
Ingrasang sen, o‘zni garang etdim, tilim.

Ulkanlikdan kun-kun bo‘la bordim mayda,
Sensiz, axir, izzat qayda, hurmat qayda,
Ismim yo‘qdir na «izdrast», na «gudbay»da,
Boshi bekik bir ko‘chaga yetdim, tilim.

Mustabidlik ne, Hurlik ne, mendan so‘ra,
Bugun hurman. O‘zim bek-u o‘zim to‘ra,
Endi g‘urur gulshanimni bosmas sho‘ra,
Onamsan-ku, bo‘lmagayman yetim, tilim.

Dunyo kezib yurar, lahjam manim go‘zal,
Lol qolarlar Navoiydan aytsam g‘azal,
Bul malohat, bu chiroy-ku azal-azal,
Bir shukronam men aslimga qaytdim, tilim.

* * *

Chiroy, sehri maftunkor ona tilim,
Yuragimga iftixor ona tilim.

Koshg‘ariy bobom bitgan sifoti ming,
Mangulikka daxldor ona tilim.

Kechmishda ne zulmkor zulmin ko‘rdi,
Sabr-u saboti bisyor ona tilim.

Kamsitar jonga yovman, eng yomonman,
Bu ahd bobomdan takror, ona tilim.

Tushmagay aslo dilim mehrobidin,
Tushsa ham bo‘ynimga dor, ona tilim.

Turfa ellar, demakkim, turfa tillar
Qatorida qaddi minor ona tilim.

Tanirlar o‘zbekcha ismim yangrasa,
Hamishalik jarangdor ona tilim.

O‘zligim bor, o‘z so‘zim, o‘z ovozim,
Qomusimda ustuvor, ona tilim.

Ey Zamira, bolang, nabirangga ayt,
Mulkin asrasin hushyor, ona tilim.

## *Avliyoxon Eshon*
## *(1957-yilda tug'ilgan)*

### ONA TILIM, ONAJONIM

So'z amiri – amir Alisher
Semurg'day yo'lchidir abad yo'linda.
Qush tili nimadir, yangradi, axir,
Ko'klarning payg'omi – turkiy tilimda.
Endi hech yerlamas osmonim –
Ona tilim, onajonim.

Yig'lasam, o'ttiz uch holidan aytding,
Qosh bilan ko'zimning arosidasan.
Koshg'ar cho'llaridan ko'nglimga qaytding,
Nekqadam zabonin yarosidasan.
Ro'yobi yulduzday hadsiz imkonim –
Ona tilim, onajonim.

Lang demishlar… oh, bu buyuk tazoddir:
Dunyo qachon ko'rmish bunday «Tuzuk»ni;
Bosh olib ketmoqni tilaydir bir sher,
Bir soch savdosida otib shohlikni.
Hinddami, Afg'onda bitgan devonim –
Ona tilim, onajonim.

Sen, axir, otamdan qolgan dalamsan,
Eksam dardlarimni gulday o'stirgan.
Qodiriy bog'ida billur shabnamsan –
Tangrim jamolini aks ettirgan.

Qaro nasrda ham kuyday ravonim –
Ona tilim, onajonim.

O‘tgan-u o‘tmagan kuningda sir ko‘p:
Gulday o‘g‘illarga balchiq otarlar,
Oh! Sen binafshaning g‘amdoshisan-ku!
Yopishmagan gajjak – tuhmat bitarlar.
Xuruj qilaverar nechun tug‘yonim?..
Ona tilim, onajonim.

Iblis shevasida so‘zlovchilar, ey!
Men «Xamsa»da me’roj etib qaytganman!
Men endi o‘lmayman, O‘rxun soylarda
Parvozim toshlarga naqsh etganman.
Toshlarda uyg‘og‘im, isyonim –
Ona tilim, onajonim.

*Ashurali Boymurod*
*(1957-yilda tug'ilgan)*

## ONA TILIM

Ona suti bilan singding tanimga,
Ajdodlar o'giti senda mujassam.
O'zing ohang berding mitti jonimga,
Sen bilan aytilur Vatanga qasam.

Millat borki, so'z gavharin saqlaydi,
Sen kenglikda, qo'lim yetmas falaksan.
So'zlar go'yo yulduz bo'lib chaqnaydi,
Sen osmondan tushgan o'ttiz malaksan.

Sen Navoiy, Bobur, Mashrab, Furqatsan.
Asrlardan olib o'tding nomani.
Sen ko'nglimda so'z aytmoqqa ilhaqsan,
Bor hayotin kecha qilding xomani.

Kurashlardan iboratdir bu hayot.
Chala, yonbosh, halol deya aytilur.
Sen borsanki, parvozimga shay qanot,
O'zbekcha so'z go'yo o'qday otilur.

Oshiqlar ham maktub bitgay sen bilan,
Dil izhorin aytguvchi xush zabonim.
Eng so'nggi dam bo'g'zimdasan men bilan,
O'z so'zinmi aytgay ikki jahonim.

O'rgatuvchim o'zing hayot imlosin,
Sening bilan sevgim, dilda hayajon.
Olam ahli endi bizni tinglasin,
O'z tilimda yangrar Vatan – onajon.

## TARJIMONGA

Har kimning oʻz dardi oʻziga ayon,
Birovning ichida birov chin yonmas.
Oʻz dardin oʻzidek etolmas bayon,
Navoiy tilida soʻzlash osonmas.

Tilingni topdim-u qiynar muammo,
Koʻngling chizgilarin bila olmadim.
Tilingni tilimga oʻgirdim, ammo
Koʻnglingni tarjima qila olmadim.

Noshud tarjimonman, balki shundaydir,
Mitti mashqlarimdan topmadim jarang.
Odatiy soʻzlar ham baʼzan qiynaydir,
Oʻzbekcha yigʻlolmas olmon-u farang.

Ajab saodatdir tilni oʻrgansak,
Oʻzbekcha soʻzlaydi xorijlik shovvoz.
Dunyo sanamlarin vasfin oʻgirsak,
Oʻzbekcha madonna chiqsa, qanday soz!

Til – millat koʻzgusi, desangiz haqsiz,
Navoiy tiliga boqmangiz hayron.
Oʻzbekcha gapirar Shekspir shaksiz,
Oʻzbekcha sheʼr oʻqir Pushkin-u Bayron.

Qoʻlimga oldim-u oʻshanda sezdim,
Buyuk muhabbatni va soʻzning kuchin.
Koʻngling toʻgʻri boʻlsin, avvalo, doʻstim,
Koʻngilni koʻngilga oʻgirmoq uchun.

*Asqar Mahkam*
*(1958 – 2007)*

## MEN BITOLMAGAN SHE'R

Men tunlar qo'ynidan uni izladim,
Yulduzlar tirnadi nigohlarimni.
Ma'badlar poyiga yupun tizladim,
Tuproqlar chaynadi tirnoqlarimni.
Sahroyi ko'ksimda girdubod qo'pdi,
Boshimga shovullab tushdi quyunlar.
Men – turkiy lahjaning oddiy bir quli,
Sharaqlar bo'ynimda kishanband unlar.
Eng qashshoq so'zlarga bosdim yuzimni,
Eng buyuk so'zlarga haddim sig'madi.
Ona til poyiga tashlab o'zimni
Baqirdim, bo'g'zimdan sado chiqmadi.
«Bitaman. Bihistun bitigi kabi!»
Olisga o'qtaldi sarkash ko'zlarim.
Izladim so'ng shahid kalomlar qabrin,
Izladim. Izladim. Izlab bo'zladim.
Enasoy labida tumanda kezdim,
Yo'qladim toshlarga do'ngan so'zlarni.
Sangloqlar oralab o'yga toldim jim,
Go'dakday quchoqlab ko'r yozuvlarni.
Dovonlar oshgancha devonasaro,
Devonlar daxmasin daragin surdim.
Boshimda yulduzlar bo'ldi huvaydo,
Falakda turk tili ma'budin ko'rdim.
Men dedim: «Hazrati Odam davridan
Yo'qolgan so'zlarni istab yuribman.
Nishon ber, tilimning tilsiz qabridan,
Yo'q esa, nishon ber mening qabrimdan».

Sur bulut majusiy kulohi kabi
Suzardi ma'budning kumush boshida.
Xuntalosh ufqning yirilgan labi
Osilib yotardi O'rxun toshida.
Qoyalar qilichin siltab ayovsiz
Yuzardi go'yoki ming boshli tog'lar.
Gung ma'bud g'oyibga singdi sadosiz,
G'oyibga aylandi yovuq-yiroqlar.
«Bitaman, bitaman O'rxun toshidek
Sochilib ketsa ham bor ustuxonim.
Buvimning bir umr oqqan yoshidek
To'kilib bitsa-da jismimda qonim!»

* * *

Tilim, sayra endi ko'hna usulda,
sitilgan anordek chirsillar yaro...
Ko'ngil suv istaydi qaqragan cho'lda,
yurak Ishq istaydi maxluqot aro...

Kesilgan ilkini cho'zar cho'qqilar,
tosh to'la tomog'i – daralar ham jim...
Falakdan shovullab yoshlar to'kilar,
qip-qizil bulutga aylanar jismim...

Yarim oy o'rnida qalqiydi xochlar,
tobora muteroq egilar bo'yin.
Odamlar yirtqichga aylana boshlar,
yirtqichlar odamga aylanolmay xun...

Qaytaman. Odamning qo'lin olmayman,
goh patak...
goh tuproq...
gohida tojman...
Men o'zim o'zimni taniyolmayman:
kecha bog'bon edim bugun og'ochman...

## *Sirojiddin Sayyid*
## *(1958-yilda tug'ilgan)*

### KIM TILNI BILUR – ELNI BILUR

*(Avaz O'tar g'azaliga muxammas)*

Gar ushbu Vatan bizga azal ota makondur,
Sultonlaridin sha'ni aning ro'yi jahondur.
Kim tilni bilur – elni bilur, shoniga shondur,
Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur.

To yog'masalar boshingiza ta'na-yu toshlar,
Toshdin ham qatiq bo'lgusidir ilm ila boshlar,
Ey siz, qorako'z-u qorasoch-u qoraqoshlar,
G'ayri tilini sa'y qiling bilgali yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar bilaki andin ayondur.

Bo'lmas kishiga ko'rk-u husn so'zni gulidek,
Har tilni biluv – dilni biluv, dilni – elidek,
Tilni yo'li ham shoh jahongirni yo'lidek,
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g'ayrat eting, foida kondur.

Haq sizga beribmish suvingiz ham dalangizni,
O'z bog'ingiz-u qir-adiringiz, lolangizni,
Teng aylab jahon ahliga kuch-hafsalangizni,
Ilm-u fan uyiga yuboringlar bolangizni,
Onda o'qug'onlar bori yaktoyi zamondur.

Umr oʻtgusidur suv kabi yo suvdagi xasdek,
Dilbandlaringizning bari daryoyi havasdek,
Ilm olmasalar umr boʻlur tiyra qafasdek,
Zor oʻlmasun onlar dagʻi til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidan oni bagʻri toʻla qondur.

## TIL VA MILLAT MAQOMI

Bu dunyoda millat boʻlsa – davlat yashar,
Davlat boʻlsa – bu dunyoda millat yashar.
Davlating bor – millating bor, agar bilsang,
Millating bor – davlating bor, asray bilsang.
Yofas bobolardan yodgor xilqatimsan,
Ona tilim, millatimsan, davlatimsan.

Toshbitiklar poyin oʻpgan Enasoylar,
Soylaringda kokil yuvgan Momo oylar.
Koʻnglim aro uch ming yillik avjlaring bor,
Uch ming yillik javlonlaring, mavjlaring bor.
Uch ming yillik qoyalarday qudratimsan,
Millatimsan, ona tilim, davlatimsan.

Oq fotiha soʻrab bordim qoshlariga,
Oq togʻlarim oʻxshar bobom Koshgʻariyga.
Kim dunyoga kelib faqat dunyo buzgan,
Bobolarim mening soʻzdan dunyo tuzgan.
Dunyolarga dalolatim, tilxatimsan,
Ona tilim, toj-u taxtim, davlatimsan.

Hech bir avlod oʻzi shunday bino boʻlmas,
Oʻz-oʻzidan Beruniy yo Sino boʻlmas.
Yer yuziga hikmat ekding arobiyda,
Qancha ilm-u irfon bordir Forobiyda.

Jaholatga qarshi mangu da'vatimsan,
Millatimsan, ona tilim, davlatimsan.

So'z mulkida sultonlikni bola sherga –
Lutfiy bo'lib lutf etgan zot Alisherga.
Samarqandsan – buyuklarga beshik bo'lgan,
Ma'naviyat dunyosiga eshik bo'lgan.
Olam ahli aro hamon hayratimsan,
Ona tilim, millatimsan, davlatimsan.

Bobur Mirzo sog'ingan ul qovunlarday,
Qolib ketding ne-ne dovul quyunlarda.
«Boburnoma»ng jabrnomang bo'ldi sening,
Har nomang bir sabrnomang bo'ldi sening.
Avlodlarga mangu meros dastxatimsan,
Millatimsan, ona tilim, davlatimsan.

Yoddan chiqmas Qodiriy ham Cho'lponlaring,
Jonlar berib to'lab ketgan o'lponlaring.
Adabiyot yashasa gar – millat yashar,
Millat yashar – Adabiyot yashasa gar.
Avloniysan, Behbudiysan, Fitratimsan,
Davlatimsan, ona tilim, millatimsan.

Yangi davr-u davronimsan desam haqdir,
Bir yuz o'ttiz to'rt millatga o'zing taqdir.
Yangrab ketdi tomirlarim, jon-u dilim,
Olam uzra yangraganda ona tilim.
Millatlarni birlashtirgan millatimsan,
Davlatimsan, ona tilim, davlatimsan.

Har qizing, har bolangni men bolam, dedim,
Bolam, dedim, bag'rimdagi lolam, dedim.

Ay bolam-ay, qand-u asal tillaringdan,
Tillaringdan aylanayin, tillaringdan!
Bu dunyoda qolar mehr-u shafqatimsan,
Davlatimsan, ona tilim, millatimsan.

Davr-u zamon shiddatlidir – ortga qaytmas,
Inson umri mehnatlidir – sayr-u gashtmas.
Vatan Vatan boʻlgaymu biz jon chekmasak,
Jondan kechib, zahmatin har on chekmasak.
Yangi azm-u shijoatim, shiddatimsan,
Davlatimsan, ona tilim, millatimsan.

Tasanno deb yozgan edim, yana yozay,
Yonib yozay, kecha-kunduz yonib yozay:
Shavkatli el bu dunyoda davlatlidir,
Davlatli el olam aro shavkatlidir.
Olam uzra yuksak sha'n-u shavkatimsan,
Davlatimsan, ona tilim, davlatimsan.

* * *

Har bir kalla,
Har bir bosh
Jaholatdan qoʻrqishi kerak.
Har bir bola, har bir yosh
Navoiyni oʻqishi kerak!

Har bir ota,
Har bir moʻysafid
Umr hikmatlarin koʻrsatib,
Nafs arqonlarin qirqishi kerak,
Farzandlari, nabirasiga
Navoiyni oʻqishi kerak!

Bir bolaga butun mamlakat,
Ba'zan esa qirq kishi kerak.
Beshiklardan tushib bolalar
Navoiyni oʻqishi kerak!

Samarqand-u Buxoro, Termiz
Toʻylarida barchamiz jammiz.
Bizlar axir kimlardan kammiz?!
Elga olam olqishi kerak,
Olamga tik boqishi kerak,
Navoiyni oʻqishi kerak!

Beruniylar, Ibn Sinolar,
Ulugʻbeklar, Bobur Mirzolar
Qurib ketmish qanday binolar!
Yosh koʻngillar qalqishi kerak,
Navoiyni oʻqishi kerak!

Vatan azal bitta Vatandir,
U biz uchun soʻlmas chamandir.
Shul sababdan bola chogʻlardan,
Maysa chogʻlar, lola chogʻlardan,
Oʻzni urib yulqishi kerak,
Navoiyni oʻqishi kerak,
Dilga nedir yuqishi kerak!

## *Kavsar Turdiyeva*
## *(1958-yilda tug'ilgan)*

* * *

Navoiyning nazmi ila qanot bog'lagan,
Boburshohning iztirobin xatga joylagan,
O'z yurtida toptalsa ham sabot aylagan,
Ichimdagi asirimsan yoki pirimsan –
Podshohimsan, vazirimsan, ona tilimsan.

Qulog'imga ilk bor kirgan azoning bo'ldi,
Ham o'ylatgan, ham so'ylatgan mezoning bo'ldi,
O'zligimni anglatuvchi lisoning bo'ldi,
Qayg'umsanmi, quvonchimsan yoki sirimsan –
Dardim bilgan tilmochimsan, ona tilimsan.

Onam bo'lib tunda alla aytarding o'zing,
Yupanch bo'lib dildan g'amni haydarding o'zing,
Duo bo'lib ne baloni qaytarding o'zing,
So'zda kechgan oy-u kunim, necha yilimsan –
Tariximsan, taqdirimsan, ona tilimsan.

Qayg'uraman senda mudom ko'zim yoshlansa,
Oh chekaman senda giryon dardim boshlansa,
Iydiraman yuraklarni dillar g'ashlansa,
Yo'qlovimsan, yig'lovimsan, mening birimsan –
Yor-yorimsan, alyorimsan, ona tilimsan.

O‘tda yonding, nurga to‘lding, goho muzlading
O‘zbegimning taqdirini elga so‘zlading,
Ingrarding-u titrarding goh, dodlab bo‘zlading,
Qodiriylar taqdiridan tilim-tilimsan –
Hayqiriqsan, chaqiriqsan, ona tilimsan.

Sen borsanki, men ham borman, el ham tirikdir
Har farzanding g‘ururi ham ulkan, yirikdir.
Shundan millat, shundan qudrat, shundan birlikdir,
Volidamsan, Vatanimsan, ona yerimsan –
Salomimsan, kalomimsan, ona tilimsan.

*Munavvara Yusupova*
*(1958-yilda tug'ilgan)*

## HAR TONG

Bobolarim jahon kezdi, qanotlaring sehrgar,
Ukpar kabi halol-u pok vujudlarni mindirib.
Noziknihol qarashlarni olib uchding tong sahar,
Ruhga loyiq g'unchalarni yulduzlarga indirib.
Ko'ngillarning mehrobida go'zal ona tilim mening,
Zamonaning oftobidan isindi-ku dilim mening.

Do'st-u yoron jamlanishib, diqqatlarga bog'lansin,
Navoiydan kelar bukun yilqi mingan bir chopar.
Issiq kalom, o't nafasga burishgan lab chog'lansin,
G'avg'olarga yasab yakun, g'avg'olarga alhazar...
Sahifada sarg'aydi ul, qadim o'zbek tilim mening,
Muz yo'llardan xo'p toydi ul o'ziga bek dilim mening.

Do'st-dushmanga teng ochiqdir bu kamtar dasturxonim,
Mehmondo'stlik xolisligi ... kimga qanday tushuncha?
Siz tasavvur qilib ko'ring, qanday yashar dehqonim,
Xolis bo'lsak vijdonlarda qolmasmi bir tuguncha?
Andishalik dilin qisgan, guldek o'zbek tilim mening,
Qon-qardoshlik tuyg'usidan nurdek, o'zdek dilim mening.

E'tiqod bu baxtdan ham yuksakroq go'zal tuyg'u,
Erishmoqlik – bir umrlik sinov bo'lgan haqiqat...
Mehnatkash-u jafokash xalq ranj chekmasin deb mangu –
Orol yig'lab turibdi-ku ko'nglimdagi muhabbat!!!
Parvoz baland, qutlug' endi tinchlik qo'llar tilim mening,
Har tong azim ul quyoshga salom yo'llar dilim mening...

## *Shoyim Shernazar*
## *(1958-yilda tug'ilgan)*

### ONA TILIM

Temur aytgan,
So'zimni qaytar,
Qaytar mening ona tilimni.
Har bir go'dak o'z so'zin aytar,
O'z so'zi bor Turon elimning.

Bu so'z onam aytgan so'zimdir,
Bu so'z yer-u osmon, o'zimdir.
Shu tuproqqa gavharin tikib,
Yonib turgan ikki ko'zimdir.

Men tinglagan allalar yodi,
Yuragimga ildizdek botgan.
Ilk so'zimni aytganim chog'i,
Boshim uzra oppoq tong otgan.

Shu yog'duga yo'g'rilgan tilim,
Chashmalari poklanib chiqqan.
Vatan, senga qilaman ta'zim,
Sen-ku meni so'z bilan tuqqan.

## *Zulfiya Mo‘minova*
## *(1959-yilda tug‘ilgan)*

### ONA TILIM

Ona tilim oltindan qimmat,
Sensiz qolsam kim bo‘laman men?
Borsa kelmas yo‘llarda g‘oyib,
Tosh bo‘laman, chim bo‘laman men.
Ona tilim sensiz sarg‘ayib,
Bir chekkada jim bo‘laman men.
O‘zga tillar saltanatida,
Bir yugurdak yetim bo‘laman men.
Kimdir aytdi: «Baxtsiz til – bu til»,
Seni baxtsiz qilgan menmasmi?
O‘z onasi bir chetda qolib,
O‘zga tilga mahliyo, mastmi?
Nima qilsam kechirasan ayt?
Kuygan nondek isrofligim ayt!
Buxoriydek imonligim ayt!
Termiziydek insofligim ayt!
To O‘rxundan Enasoy qadar,
Xoqon tilim, qurbon tilim ayt!
Xos Hojubdek eshon tilim ayt!
Shoh Boburdek cho‘l-u dasht aro,
Tojsiz qolg‘on sulton tilim ayt!
Kel poyingga boshimni qo‘yay,
Olovlardan chiqqansan omon.

Sen bolam – deb, beshikdan olib,
Qulog‘imga aytgansan azon.
Mening uchun sendan ulug‘ yo‘q,
Ona tilim – buzrukvor shohim.
Mendan o‘tdi kechir, afv ayla,
Ona tilim – olampanohim.
Allohimni tanitgan hayrat,
Nima qilsam mendan rozisan?
Navoiydek muhtasham, hazrat,
Koshg‘ariyning joynamozisan.
Avliyolar tutgan tasbehsan,
Sochilmassan, tuproq bo‘lmassan.
Olovlardan o‘tgan Qaqnussan,
Sen o‘lmassan! Yo‘q sen o‘lmassan!
Qo‘lyozmalar yonmaydi, yonmas,
Asrab turar mustahkam devor.
Loqaydlikning qo‘ldan gugurtin,
Tortib olar tilshunoslar bor.
Mening uchun sendan ulug‘ yo‘q,
Ona tilim – buzrukvor shohim.
Sen bordirsan? demak, o‘zbek bor,
Ona tilim – olampanohim.

## *A'zam O'ktam*
## *(1960 – 2002)*

### TIL

Kech edi. Izlagay odamimiz yo'q,
Bizning esa borar joyimiz.
Tavakkal deb kirdik bir uyga,
Huv qadimgi musofirlardek.

«Tiq-tiq» qildi eshik.
Mezbon yuzi yorishib ketdi –
Mahbusxona devorin chertib
«Gaplashganlar» yuziga o'xshab.

Bildim shunda bilmaganimni –
Nedir hijob, taqvo degani.
Sig'mayapman endi hech yerga,
O'xshayman to'qayda qolganga.

Jannat bo'yi ufurar undan,
So'zi yo'q,
Eng boy, go'zal til,
Chet tilimi, ona tili bu?

Jannat bo'yi ufurar undan,
Tuydim farishtalar sharpasin.
Qurgim kelar shundayin suhbat,
Vidolashgim kelar shu tilda.

## ONAM FOTIHASI

Endi sen hukumat odami, bolam,
Qo‘lingga bir qog‘oz berdi o‘qitib.
Unutma – sen kimsan, kim ota-onang,
Yurma qog‘oz bilan elni qo‘rqitib.

Seni jo‘natishsa olis yurtlarga,
Agar xalqi o‘zga tilda gapirsa –
Hech taqlid qilmagin sur, beburdlarga,
So‘kmagin uyidan senga joy bersa.

O‘qrayma «Sen bizga mehmon» deganga,
Qiyiq axtarmagil hech qachon qildan.
Beshik bo‘lsin, tobut bo‘lsin ekkanga,
Kesma daraxtlarin, ek kelsa qo‘ldan.

Oyoq tiqaverma tish g‘ijirlatib,
Sendan qochgandayin oqmasin soylar.
Tegirmon borligin doim yod etib,
Qovog‘ini solib o‘sar bug‘doylar.

Bilsang, qonga o‘xshar lolalar qirda,
Maysa yot oyoqlar ezganda qaqshar.
Qo‘ziqorin bodrab chiqqanda yerdan,
Zarb bilan tug‘ilgan mushtlarga o‘xshar.

Onangning bisoti faqat oq yo‘ldir,
Seni tortib tursin tuproq, ona til.
Qayda yurma, qancha umr ko‘rma, baribir,
Tobutda bo‘lsa ham yurtingga intil!

## *Odil Ikrom*
## *(1960-yilda tug'ilgan)*

### QUSH TILI

Meni boshlab ketar bir kun qadringga,
Armonim ko'milgan yolg'izoyoq yo'l.
Eng uzun afsona so'ylar qarshingda,
Ohiga osmonlar yetmagan bir qo'l.

Benavo tuyg'ular ochirmaydi ko'z,
So'zlarim to'kilar yurakka sig'may.
Bo'g'zimda qaltirab turibdi bir so'z,
G'ilofida qolib zanglagan tig'day.

Ko'ngildan chiqmadi men suygan kalom,
Tilimni tushunmas yor-u do'stlarim.
Nomingdan yo'llaydi samoviy salom,
Qanoting ostiga olgan so'zlarim.

Yig'loqi bulbullar qoldi benavo,
Quzg'unlar to'dasi aylaganda daf.
Tanish qarg'alarni bilmadim, ammo,
Men bilgan chumchuqlar chirqillar benaf…

Kuylarim sabrsiz sukut ichradir,
Shovqinlar ostidan chiqmadi butun.
Ohanging oldida tilim qisqadir,
Osmoning ostida qo'llarim uzun.

Entikib ketadi ehtiroslardan,
Bag‘ringda o‘lgisi kelgan bir vujud.
So‘zingdan iqtibos keltirolmayman,
Senga keltiraman yurakdan sujud.

O‘q tekkan oqqushday qoldi oh urib,
Meni tiriltirgan jimjit hasrating.
O‘zimni o‘zimdan asramay turib,
Sen meni o‘limdan nechun asrading?!.

Surur sahrosiga izlayman ma’vo,
Dardlar daryosiga sohil yollayman.
Kimdan qo‘rqishimni angladim, ammo,
Qachon qo‘rqqanimni eslay olmayman.

Men seni oldinroq topmadim nechun,
Nechun ketolmayman jonimdan to‘yib?..
Tilsiz orzularim yig‘laydi beun,
Armon yelkasiga boshini qo‘yib.

O‘tib ketaman jon talvasasida,
Fursatim qisqadir, yo‘llar cho‘zilgan.
Ishqning so‘nggi manzil, martabasida,
Ba’zan, tildan qoldim, ba’zan, ko‘ngildan…

Bir kun boshlab ketar g‘am kulbasiga,
Tilini yolg‘iz men tushungan yig‘i.
Yaraqlar do‘zaxiy sham shu’lasida,
Tandan sug‘urilgan jonimning tig‘i…

## *Amirqul Karim*
## *(1960-yilda tug'ilgan)*

### HAQ SUYGAN EL

Haq suygan el erurmiz asli,
Inson qilib yaratdi bizni.
O'n sakkiz ming olamda Yerni
Makon qilib, yaratdi bizni.

Zulmat ichra nur erur Qur'on,
Iymon bilan yaratdi bizni.
Duch kelganda past-u balandlar,
Osmon qilib yaratdi bizni.

Bulbul tili – lisonim, o'zbek,
Zabon qilib yaratdi bizni.
Farzandlarga mard yelkamizni
Narvon qilib yaratdi bizni...

Go'zal bog'dir har bir oila,
Bog'bon qilib yaratdi bizni.
O'zbekiston – Vatanim, jonim,
Qalqon qilib yaratdi bizni.

Taqdir suygan elmiz, aslida,
Inson qilib yaratdi bizni.
Bir tog'dan ming jilg'a, yaxlit xalq –
Ummon qilib yaratdi bizni...

*Halima Ahmad*
*(1960-yilda tug'ilgan)*

## NAVOIYNI SOG'INIB

Dunyoga keltirding buyuk ko'ngilni,
Ishq ahli haq so'zga bo'lganda mahtal.
Dillarni poklagan shu nazm haqqi,
Senga sharaf bo'lsin tabarruk fevral…

…Hirot bog'larida kezgan xayolning
Qalbida taralgay o'zbekona his…
To hanuz o'zini izlab yurganlar –
Siz ham Navoiyni sog'inganmisiz?

Farhod na'rasidan uyg'onganmisiz
Vijdon kengliklarin bosganida is.
Mol-dunyo jangidan g'olib chiqqanlar –
Siz ham Navoiyni sog'inganmisiz?

Navoiy kirmagan uylar qorong'i,
Navoiy kirmagan ko'ngillar zindon
O'ziga mahliyo, ey nazmbozlar –
Ko'ring, Navoiydan mast bo'ldi jahon.

Sham torin parishon aylangizlar bot,
Toki yorug' bo'lsin botinning azmi.
Ming yilda ham balki qaytib kelmaydi
Navoiydek shoir va uning nazmi.

Ishq gavhari hinhon erur jon ichra,
Ushshoq hajr tuni choʻkmagaydir tiz.
Ey, oshiqlik dardin ermak bilganlar –
Hali Navoiyni oʻqimagansiz...

Ey dolgʻali asr, qoʻrqmayman sendan
Qancha turlanmagin, boʻlma shiddatkor.
Koʻksimdagi ishqning alangasida
Sening shiddatingdan baland junun bor.

Navoiy baxsh etdi menga bu ishqni,
Toki tomirimda oqib turar qon.
Bu ishq Oʻzbekiston boʻlib boqadi
Yarmida zamin-u, yarmida osmon.

...Fevral, yuragimga qoʻygin boshingni,
Shunda nur oqadi jismimda sim-sim.
Nogoh qush tilida sayraydi jonim:
Navoiy, Navoiy, sizni sogʻindim!

## *Abdunabi Hamro*
## *(1961-yilda tug'ilgan)*

### ONA TILIM

Otam ham onam ham o'zbek edilar
Ammo go'daklikda men qush edim-ov...
Chug'ur-chug'ur qildim, «chumchuq» dedilar,
Keyin g'o'ldiradim, dedilar «soqov».

Sen esa abadiy g'olib jangchiday,
Sezdirmay zabt etding ruhim, ko'nglimni.
Allaning betimsol dard-ohangiday
Kuyga oshno etding, oxir, tilimni.

Men kuylay boshladim bulbul tilida,
Tabiiyki, yana «Bu – qush!» dedilar,
O'zbekchaning bulbul til ekanligin
Bechora g'ofillar bilmas edilar.

Kuylayverdim tinmay ona tilimda,
Kimlardir xo'rsinib, ko'zin yoshladi.
Qushmas, insonligim anglab yetdi-yu,
Bulbul ham o'zbekcha kuylay boshladi.

O'g'illarim, qizim, barchasi o'zbek,
O'zbek tug'ilgandir nabiralarim.
Yoqimli so'z bormi o'zbekcha so'zdek,
O'zbekcha uyg'onar xotiralarim.

Ona tilim, maqtay olmasam, kechir,
Sen oʻzing ruhimning quyoshi, oyi.
Axir, meni ming bor duo qilgandi
Tushlarimga kirib hazrat Navoiy.

Tilim, abadiysan, men ham oʻlmayman,
Tilning rivoj yoʻli – bulbul yoʻlidir,
Hatto qargʻadan ham xafa boʻlmayman:
Qagʻillash – qargʻaning ona tilidir.

## *Bahrom Ro‘zimuhammad*
## *(1961-yilda tug‘ilgan)*

### SO‘Z

Shundoq til uchida turibdi-ku u,
nega aytolmayman bu so‘zni?
Oh, qanday muloyim so‘z,
qanday yalang‘och!
Yurakdan til uchiga keldi-da,
shunday turib qoldi aytilmay.
Ichiga fikr solinib
bo‘yni chilvir bilan bog‘langan qop...
Tunda
shubhalar chizindek tarqab ketadi,
ko‘zlar uxlab star opg bilan,
o‘shanda chilvir yechiladi-da
bexosdan otilib chiqar
bir og‘iz so‘z.

* * *

So‘zlar hazm
bo‘lmadi
ichida.
Nimadir yaltirar
paypaslab ko‘rdim
kaftimga sanchildi
ignadek
bitta
so‘z.

*Jumagul Suvonova*
*(1961-yilda tug'ilgan)*

## ONA TILIM

Tarixlarning yobonida yelgan tilim,
Asrlar-la odim bosib kelgan tilim.
Kecha biroz horg'in eding, bugun shaxdam,
Istiqloli bilan birga kulgan tilim.

Mir Alisher qalamida jilva qilding,
Ming bor to'lib, ming to'kilib ko'ksing tilding.
Bugun yo'ling to'sganlarga saboq berib,
Dovrug'ingni bayrog'ini ko'kka ilding.

Oh, tilima!.. Seni qanday ezgandilar?
Kesib tashlash rejasini tuzgandilar.
Usmon, Cho'lpon kabi novda niholingni
Ko'ra-bila poyin yerdan uzgandilar.

Sen hayotsan, gurkiragan – ona tilim,
Mening uchun sendan o'zga sha'n-u shaxd yo'q!
Osmon kabi, quyosh kabi, Vatan kabi,
Quchoq ochib chorlab turgan, haqiqat yo'q!..

Ona tilim, olg'a tilim boshlayapman,
Tilimdagi kishanlarni tashlayapman.
Men ham sendek, quyunlarda qaddim rostlab,
Ona tilim, elim deya yashayapman!..

Ona tilim, yo‘ling uzra yo‘l ochilsin,
Borlig‘ingga baxt o‘zanin burish uchun.
Odim-odim, qarich-qarich o‘sayapman,
Bo‘ronlarda qo‘ling tutib turish uchun!..

Mardonavor kelayapsan, yovdan kulmay,
Ancha-muncha manqurtlarni pisand qilmay.
Ona tilim! Qadring buyuk!..
Qadding tutib,
Yasha endi mangulikda,
O‘lim bilmay.

*Zikrilla Ne’mat*
*(1961-yilda tug‘ilgan)*

## AZIZ ONA TILIMSAN

O, sen qadim o‘zbegimning go‘zallikka boy tili,
Qarluq, qipchoq, o‘g‘uzimning serzavq, serchiroy tili,
Goh «turkiy til» atalding sen, goho «chig‘atoy tili»,
Ming asrlar osha kelgan, qadim ona tilimsan,
Mehri dilga jondek ingan, aziz ona tilimsan!

Tog‘-u toshlarga bir go‘zal bitig bo‘lib tushding sen,
So‘ng sopol-u yog‘ochlarni misli guldek quchding sen,
«Avesto»dek so‘ng teri-yu qog‘ozlarga ko‘chding sen,
Massaget-u saklar suygan sug‘diyona tilimsan,
Koshg‘ariylar mehr qo‘ygan aziz ona tilimsan!

Saodatga yo‘llagaydir chin «Qudatg‘u bilig»ing,
Ul «Devonu lug‘otit-turk» birla to‘qdir iliging,
Ham «Hibat-ul haqoyiq»dir – Haq yo‘lida suluging,
Rabg‘uziylar qissa bitgan sof, xalqona tilimsan,
Haqiqat deb Haqqa yetgan, aziz ona tilimsan!

Dong‘ing ketmish Bosfordan to Oltoy, Hindistongacha,
Ahli Kushon, Eftalit-u to Turki Xoqongacha,
Kezib O‘rxun-Enasoydan mulki Xurosongacha –
To‘marisdek ko‘ksin kergan chin mardona tilimsan,
Shiroqlarga shuur bergan aziz ona tilimsan!

Oromi-yu so‘g‘d, pahlaviy, runiy, uyg‘ur xatingda,
Goh arabcha, goh kirillcha, goh yozilding lotinda,
Bir kun sirtga chiqmay qolmas ne dard bo‘lsa botinda,
Goh yombidek pinhon yotgan bir durdona tilimsan,
Goh bulbuldek xandon otgan aziz ona tilimsan.

Sen – Lutfiy va Atoiylar lutfida ko‘z ochgan nur,
Mir Alisher qalamida qayta sayqal topgan dur,
Mirzo Bobur bobom senga shohona to‘n yopgandur,
Shohlari ham shohbayt bitgan chin shohona tilimsan,
Peshonamga Olloh bitgan aziz ona tilimsan.

Ogahiydek ogoh etding elni yovning qahridan,
Otash bo‘lib otilding sen shoh Mashrabning qalbidan,
Muqimiy-u Furqat bo‘lib so‘z ochding el dardidan,
Gulxanidan nur taralgan baxshiyona tilimsan,
«Zarbulmasal»lar yaralgan aziz ona tilimsan!

Behbudiy-u Avloniylar kechdi sen deb jonidan,
Cho‘lponlaring tushdi hatto seni deb osmonidan,
Sening-da bag‘ring qon bo‘ldi Qodiriyning qonidan,
«Vo bolam!» deb faryod chekkan, bag‘ri tilim-tilimsan,
Tilkalanib ko‘z yosh to‘kkan aziz ona tilimsan!

Ba’zan sendan ayirmoqchi bo‘ldi bizni nokaslar,
O‘z onasin ham unutgan manqurt, benavo kaslar,
Lek o‘zlari yo‘qlik sari uchdi o‘shal xor-xaslar,
Zafar quchib kulib turgan, g‘olibona tilimsan,
Boshiga baxt qushi qo‘ngan aziz ona tilimsan!

Endi davlat tilidirsan, dur-u hikmat tilisan,
Istiqloldan baxti kulgan, buyuk millat tilisan,
Bosh Qomusda qadr topgan, shon-u shavkat tilisan,
Elimning jon dilidirsan, mening-da jon dilimsan,
Dilimning jon gulidirsan, aziz ona tilimsan!

Sen shundayin bir bog‘sanki, so‘lmagaysan toabad,
Quyosh kabi porloqsanki, so‘nmagaysan toabad,
Jonim tilim, o‘lmagaysan, o‘lmagaysan toabad,
Kelajag-u ertasi bor, sen yakdona tilimsan,
Manguliklarga daxldor, aziz ona tilimsan.

Aziz Vatan quchog‘ida yuksak erur parvozing,
Jahon ayvonlari uzra yangragay hur ovozing,
Zikrillongga ham ne’matdir bergan yangroq bu sozing,
Qaddi baland, qadri baland, chin sharqona tilimsan,
Baxti quyoshdek sarbaland, aziz ona tilimsan!

*Eshqobil Shukur*
*(1962-yilda tug‘ilgan)*

## TO‘QQIZINCHI FEVRAL

Men ertaga o‘laman, ona,
Agar sen bu kecha boshimda
O‘zbek tilidagi qo‘shiqlarni aytib turmasang.

Men ertaga o‘laman, ona,
Agar sening kelinlaring bu kecha
Buyuk shoirlarni tug‘masa agar.

Men ertaga o‘laman, ona,
Agar sening baxshilaring bu kecha
Tonggacha tugatolmasa «Alpomish» dostonini.

Men ertaga o‘laman, ona,
Daraxt shoxlarida qushlar bu kecha
«Lison ut-tayr»ni takror etmasa,
Men ertaga o‘laman, ona.

Uxlay olmadim men...
Boshimda qadimiy qo‘shiqlar aytding,
Kelinlaring tug‘di ulug‘ shoirlaringni.

Baxshilar...
Nafasi tiqilib bo‘g‘izlariga
«Alpomish» so‘ngini aytdilar tongda.

Qushlar...
Daraxt shoxlarida titragan qushlar,
Navoiy tilida gapirib chiqdi.
Men hech qachon o‘lmayman, ona!

## KOSHG‘ARIY YODI

Siz nega notinchsiz, Mahmud Koshg‘ariy,
Toshni yorib chiqar ulug‘ yo‘lchilar.
Toshlar to‘lg‘og‘iga doya bo‘lmasmi
O‘zbekistondagi tilchilar?

Siz nega notinchsiz, Mahmud Koshg‘ariy,
Tilning chehrasini yorgan qamchilar
Sinmasi, «Erk» degan So‘zga aylansa,
O‘zbekistondagi hamma tilchilar.

Siz nega notinchsiz, Mahmud Koshg‘ariy,
Horitib qo‘ydimi adashgan yillar?
Tunlari «Devonu lug‘otit-turk»da
Qushlarday chug‘urlab chiqmasmi dillar?

Siz nega notinchsiz, Mahmud Koshg‘ariy,
Til – ega, davlar aniqlovchilar.
Yig‘larmi o‘lgan so‘z uzra «bolam!» deb,
O‘zbekistondagi tilchilar.

Siz nega notinchsiz, Mahmud Koshg‘ariy,
Yurakday yorilib bormoqda toshlar,
Ulardan shoirlar chiqib kelmoqda,
Ko‘ksini to‘ldirgan alvon quyoshlar.

*Ruqiya G‘oziyeva*
*(1962-yilda tug‘ilgan)*

## BU O‘ZBEK TILIMDIR

Boqiy tariximda nafasi ilm,
Ta’rifga sig‘magan bu xuddi ko‘nglim,
Ming-ming sharaflarga boshlagan yo‘lim,
Bu o‘zbek tilimdir, bu o‘zbek tilim.

Tarovat baxsh etgan ahli Turonga,
Ovozasi yetgan hatto Yunonga,
Buyuk ona so‘zin o‘rgatgan xonga,
Bu o‘zbek tilimdir, bu o‘zbek tilim.

Tinglang sabosida havas shiviri,
Taqrizlar qilmoqni o‘rgatmoq siri,
Boz go‘zal izhorda qarang har biri,
Bu o‘zbek tilimdir, bu o‘zbek tilim.

Bo‘lgan bee’tibor iqtidor bilan,
Mehrni qo‘llagan iftixor bilan,
Adolatin topgan yaxshi kor bilan,
Bu o‘zbek tilimdir, bu o‘zbek tilim.

Buylagan jahonga shuurlar bois,
Adolatda sobit shukurlar bois,
Tafakkurga eltar shu kunlar bois,
Bu o‘zbek tilimdir, bu o‘zbek tilim.

Yaxshi g‘oyalarni ruhida eltgan,
Ifodasin Vatan tilida etgan,
Bugun dovrug‘i bor olamga ketgan,
Bu o‘zbek tilimdir, bu o‘zbek tilim.

Ulug‘lik yo‘l sari chog‘lab to jonni,
Dillarga ko‘prikday bog‘labon onni,
Kezdirgan sahnida butun jahonni,
Bu o‘zbek tilimdir, bu o‘zbek tilim.

*Zebo Mirzo*
*(1964-yilda tug'ilgan)*

## ONA TILIGA QASIDA

Hali bashariyat murg'ak uyquda
Bilmaganda qalam, harf-u imloni.
U tog'lar ko'ksiga gul qilib chizdi,
Gul deya anglatdi yorug' dunyoni.

Odamlar qulonlar ortidan quvib
Jonlig' keltirganda omoch-molaga.
U buloq suvini uzatdi quyib,
Gul bargini bitib loy piyolaga.

Balki o'sha tasvir, balki o'sha sir
Havvoning Atoga bo'lgan dilidir?
Bilaman, qaysi so'z bo'lmasin o'sha,
U mening yuragim – O'zbek tilidir!

Bobolar tili bu, ey, Ona tilim,
Sendan kelar olis dala-dasht isi.
U uchar arg'umoqlar qanotida sen
Qoldirgan izlarda kurashlar izi.

Sen demaysan: «O'ldir, yondir, qasos, qon!»
Sen degaysan: «Bag'rim, sevaman, ishon!»
Million yillik ochiq dasturxoningda
Bug'doy so'z-u, bug'doy yuragingdir non!

Samo uzra sochib lavh xattoti
Hikmatlar kitobin etganda tamom.
Bir so‘z-la jam qildi ajdodlar yodin
«Qutadg‘u bilik»ka Xos Hojib bobom!

Kimdir buzib o‘tar, kim esa tuzib,
Baxt na Maqdun, Chingiz olgan taxtdadir!
Qilich soyasida jannatdir, va lek
«Kuch birlikda, qudrat Adolatdadir!»

O‘ylaganmi tarix ming yillar nari
Ko‘rayin deb dunyo o‘zbeklarini.
Sohibqiron tutgan tug‘ bilan g‘olib
Tuzganida «Temur tuzuklarini!»

Olis yulduzlarga cho‘zib qo‘lini,
Zamin izlaganda yillar qa’ridan,
Yorqin tafakkurning yorug‘ yo‘lini
Topdi Ulug‘bekning jadvallaridan!

Sen – osmon ilmini bitguvchi kitob,
Senda giyohlarning rangin tushlari.
Senda ochiladi axir bobma-bob
Milliard yulduzlarning nurtovushlari...

Sen – maysalar tili, bulbul ko‘z yoshi
Sen – she’rning qanoti, ruhdir mukammal.
Besh doston besh qit’a bo‘lib porladi
Navoiy hayratdan she’r aytgan mahal!

«Oson emas bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig‘a panja urmoq!»
She’r ahli yuz yillab tuzgan dunyoni
Bir sher panjasi-la oldi u biroq!..

Hazrat Navoiydan qolgan qutlug‘ so‘z,
Ilohiy ilhomdan yaralgan tilim.
Boburni yig‘latgan, yetti iqlimga
«Boburnoma» bo‘lib taralgan tilim.

Seni unutmadim istibdod chog‘i
Har lahza qonimda qilichdek o‘sding!
Chirmab kelganida zulmat quchog‘i
Qalbimni quchoqlab nur bo‘lib to‘sding!

Qadim ohanglardan men seni topdim
Izladim tafakkur osmonlaridan.
Bir buyuk xalq bo‘lib chiqib kelding sen,
«Go‘ro‘g‘li», «Alpomish» dostonlaridan.

Kim seni tanimas, tan olmaydi kim,
Kamtar kamolingni maqtash shart emas!
Futbol maydonida eng odil hakam,
Shaxmat qirolining yurishiday bas!

Olimp sahnasida o‘zbek kurashi,
Bugun dunyo bilan «yonbosh», «chala»ni.
Halollik yo‘lini o‘rgatding jangda
O‘rgatding mehrning siri – allani!

Hatto do‘ppisning chetida bir she’r,
Kashtali ko‘ylagin yoqasi – g‘azal.
Jannat eshigini ochguvchi bir sir –
O, balki, o‘zbekiy kalomdir azal!

Sen – tilim tagida turgan achchiq tosh,
Sensiz men hech kimman, yo‘qdirman, bildim!
Sen- tirik xazina, sen – tirik afsun,
Seni angladim-u, dunyoga keldim!

Qisinib-qimtinib yurmayman chetda,
Kibr yo manmanlik emas falsafam.
O‘zbek kalomida Iymon, Nomus, Or
Va ikki dunyoning saodati jam!

Sen – muhabbat tili hamda erk tili,
Sen – borki, Haq bilan sirlashamiz biz!
Sen – jasorat tili va mardlik tili,
Sen borki – xalq bo‘lib birlashamiz biz!

## *Salim Ashur*
## *(1964-yilda tug‘ilgan)*

### ONA TILIM

Parcha toshga mangu umr baxsh etgan
Ona tilim.
Qoyalarga boqiy bitik naqsh etgan
Ona tilim.

Ko‘zlarimga dunyoni chin ko‘rsatgan
Ona tilim.
Otam, onam, kimligimni o‘rgatgan
Ona tilim.

Mudrab qolsa, butun xalqni uyg‘otgan
Ona tilim.
Kitoblarda yongan, goho muz qotgan
Ona tilim.

Bir millatni bir Vatanga jamlagan
Ona tilim.
Farzand uchun cho‘ng tarixlar g‘amlagan
Ona tilim.

Tandirlarda onam yopgan issiq non –
Ona tilim.
Tuproqqa men tashlamayman hech zamon –
Ona tilim.

Har o‘zbekka or-u nomus bo‘lding sen,
Ona tilim.
O‘zgalarga qiyomatli do‘st bo‘lding sen,
Ona tilim.

Bir bolangman, ustim yopding sovqotsam,
Ona tilim.
Men qalqonman birov senga tosh otsa,
Ona tilim.

Daholarga alla aytgan oltin beshik
Ona tilim.
Bulbullardan yosh oqizgan oltin qo‘shiq
Ona tilim.

Qulog‘imga tilla ishqdek quyilgansan,
Ona tilim.
Yuragimga ismim bo‘lib o‘yilgansan,
Ona tilim.

## *Jamoliddin Muslim*
## *(1965-yilda tug'ilgan)*

### OZOD QUSHNING O'GITI

Parvonadek o'zing urib chiroqqa,
Yomonlar qo'lida tushma tuzoqqa,
Yurtni sotib, yurtdan ketib uzoqqa,
Ayrilmagin ota-onang, elingdan,
Ayrilmagin, tanitgan bu tilingdan.

Yurtni sevgin, undan kechish or bo'lar,
Bevatanga ikki dunyo tor bo'lar,
Ona tilin unutganlar xor bo'lar,
Begonalar chiqar o'ngu so'lingdan,
Ayrilmagin, tanitgan bu tilingdan.

Qancha zotlar o'tdi yurtni qadrlab,
Shoh Boburdek she'rga solib ulug'lab,
Ibodatda tinchlik tila saharlab,
Vatan madhi o'taversin dilingdan,
Ayrilmagin, tanitgan bu tilingdan.

Hijrat qilgan ne-ne olim, zukkolar,
Buxoriydek fikri dono daholar,
Hech birlari qilmadilar nizolar,
Ibrat olgin ota-bobo – piringdan,
Ayrilmagin, tanitgan bu tilingdan.

Ezgulikdan el-u yurting bog' bo'lsin,
Xirmonlarda g'alla, bug'doy tog' bo'lsin,

To‘ylar qilib xalqing ko‘ngli chog‘ bo‘lsin,
Gullar unsin dasht-u sahro cho‘lingdan.
Ayrilmagin, tanitgan bu tilingdan.

O‘zbekdirsan, baland tutgin qadringni,
Har nomardga doston qilma dardingni,
Aziz bilgin Olloh bergan xokingni,
Haq yo‘lida adashmagin yo‘lingdan,
Ayrilmagin, tanitgan bu tilingdan.

## O‘ZLIGIM – TILIM

O‘zbegimning nurli yuzi – onajon tilim,
O‘zbegimning shirin so‘zi – onajon tilim,
O, qadimiy ko‘hna izi – onajon tilim,
Sen xor bo‘lmaysan, zor bo‘lmaysan.

Tarxingga g‘isht qo‘ygan Mahmud Koshg‘ariy bobom,
Yuksakka ko‘targan hazrat Navoiy bobom,
Sen bois o‘lmadi dorda Mashrabiy bobom,
Sen xor bo‘lmaysan, zor bo‘lmaysan.

Senga tosh otganning toshi, uchmay qulaydi,
Armon bilan ko‘kka boqib tunlar uvlaydi,
Jarangingga chidolmasdan to‘zim tilaydi,
Sen xor bo‘lmaysan, zor bo‘lmaysan.

Ona tilim, boqar ko‘zim o‘zingsan faqat,
Ona tilim, totgan tuzim, o‘zingsan faqat,
Farzandingman aytar so‘zim, o‘zingsan faqat:
Sen xor bo‘lmaysan, zor bo‘lmaysan!

## *Nodira Afoqova*
## *(1966-yilda tug'ilgan)*

* * *

Ko'zlaring – tutilgan oftobday, sermung,
Ko'zim – dengiz osti daryolariday.
Go'dakday boqamiz gohi dunyoning
Ibtidoiy-oddiy savdolariga.
Olisladi ertak so'ylagan olam...
G'ijjak kamoniday ezsa tuyg'ular,
Tomda yashayotgan odamqush bilan
Hanuz arvoh-arvoh o'ynagim kelar.
Bilaman, Senga ham ayondir bu hol,
Bilaman, bilmaslar ul ahli tarab:
Ishorat etganday yulduzlar xushhol
Jimlik ovozida aytadirmiz dard.
Tug'ilmoq... nima u? Balki, isyonsan –
Otilding kuzakning qoq o'rtasida
Yig'ilgan yig'iday, so'nmas vulqonday
Tog'lari ulug'vor So'z o'lkasida.
Malaklar mahbubi. Va So'zga majnun,
Falaklar qalbining kuchlig' zarbisan.
Mening anduhimni kuylamak uchun
Zaminga bir qo'nib o'tgan kabisan.

## *Iqbol Mirzo*
## *(1967-yilda tug‘ilgan)*

### SUMLIM

Varaqlab «Devonu lug‘otit-turk»ni
Bir so‘z topib oldim ko‘nglimga uyqash.
Ko‘nglim ko‘rdingmi deb yelkalab turtdi,
«Qara, butun o‘dlak sumlimga uyqash».

So‘zlar qanotidan to‘kiladir sas,
Turna safidan ko‘z uza olmayman.
Qamishqalamlarim sinar basma-bas,
Tovushim suvratin chiza olmayman.

Nonga zor emasman, zarga zormasman,
Ilkimdagi chog‘ir jivirlar lim-lim.
Birovning lutfidan mast-u alastman,
Kosagulim sumlim, o‘rtog‘im sumlim.

Yaltir-yulturga o‘ch olahakkaday
Archa bezagiga chumduk urgan ko‘p.
Bolaga yot tildan ot tanlab atay
Otasin so‘zini olmay yurgan ko‘p.

O‘nov o‘lib, ikov tuqqanlarim, o‘v,
Tangritovga esh-qo‘sh chiqqanlarim, o‘v,
Joniga jonimni suqqanlarim, o‘v,
Bobosin o‘gitin danagin chaqmay
Birovlar unini uqqanlarim, o‘v!

Dilimdan yuz burib ketyapti tilim,
Uni kim to‘xtatar? Kim qaytarar? Kim?
Bir o‘lgim qistaydi, bir kelar kulgim,
Nomsiz qushcha sayrar erinib: «sum-lim».

Varaqlab «Devonu lug‘otit-turk»ni
Bir so‘z topib oldim ko‘ngimga uyqash.
Chin-Mochinda yurgan o‘g‘limga uyqash,
O‘zimga o‘zimning zulmimga uyqash.

Kesim-kesim ketdi ko‘kka qo‘shig‘im
Alla aytayotgan singlimga uyqash.
Aylandi yazloqlar, aylandi ochun,
Voh, tilim aylanar sumlimga uyqash!

* * *

Qat-qatingda ko‘rinur fe’lim,
Yuragimsan, qalbim va dilim.
Birlashtirding, xalq bo‘ldi elim,
Ota tilim, o, Ona tilim!

Bilga qog‘on hayqirig‘i sen,
Koshg‘ariyning chaqirig‘i sen,
Tengriqutning adl tug‘i sen,
Ona tilim – yagona tilim!

Senda suron solmishdi Temur,
Senda sobit qolmishdi Temur,
Bir so‘z-la yurt olmishdi Temur,
Ona tilim – mardona tilim!

Toyg‘oq, Arab-Ajamdan to Chin
Qanot yoyding misoli lochin.
Xurosonda ochding quloching,
Ona tilim – durdona tilim!

Alisherning ilkida chechak,
Kimga mehnat, kimgadir emgak.
Shayboniydan armonli ertak,
Ona tilim – afsona tilim!

O‘raltovlar qayragan tilim,
Hindi elda yayragan tilim,
Sanduvochlar sayragan tilim,
Ona tilim – mastona tilim!

Sog‘inganlar seni deb ado,
Vidolarda berursan sado.
Yaxshi so‘zsan, men senga gado,
Ona tilim – shohona tilim!

## *Sirojiddin Rauf*
## *(1967-yilda tug‘ilgan)*

### ONA TILIM

Ulkan handalakday zamin bag‘rida
Handalak tarxiday oh tilim-tilim –
Nuhning to‘fonidan, balki naridan
Qalqib kelayotgan, ey, turkiy tilim!

Urholar yangragan olis safarning
Zahmati, shavkati tojdir boshlarda,
Yashashga kafolat harb-u zarblarning
Shonli muhri qolgan bitiktoshlarda.

Turon darj etilgan tarix xatida!
Ammo bu gapimga gumrohlar kular:
Nainki, Chin-Mochin, ummon ortida
Aks sado bergandi, desam, turkular!..

Quyoshni orqalab olgan sher yanglig‘
Zabt etding mardona kurrayi arzni.
Istading va olding, bo‘lmadi tanglig‘,
Bir olsang, o‘n qilib to‘lading qarzni.

Lug‘at-bisotingni yoysang, albatta,
Molini taniydi arab, rus, tojik...
Bu so‘zlar farovon, obod davlatda
Fuqarolik olgan sodiq xorijlik.

Dunyoning toshqin soy, daryolaridan
Simirib, muhtasham dengiz bo‘lolding.
Hazrat Navoiyning jilolaridan
Illo, nazmda ham tengsiz bo‘lolding.

Tengsizsan, mengzasam ulkan og‘ochga,
Har tomon bo‘y cho‘zgan o‘nlab shoxlaring.
Har biri bir daraxt! Ildizdan qochgan...
Yer-u ko‘kka sig‘mas ba’zan ohlaring.

Lovullab yonadir buyuk xotirot,
Zimiston qa’rida qolmagay navo.
Orzular so‘ngsizdir, sen-da barhayot,
Moziyni uyg‘otgan abadiy sado!

Ulkan handalakday zamin bag‘rida
Handalak tarxiday oh tilim-tilim.
Nuhning to‘fonidan, balki naridan
Omon kelayotgan, *ey*, ona tilim!

## *Davron Rajab*
## *(1967-yilda tug‘ilgan)*

* * *

Iltimos, so‘z aytganda
Chap ko‘krakni soxta tutmang siz,
Samimiylik sun’iy, juda oz!
O‘tinchim shu – til haqda aslo
Gapira ko‘rmang balandparvoz!
O‘z holiga qo‘ying zabonni,
Toki borligicha to‘kilsin...
Gard yuqqanmi, alaf bosganmi,
Undan amon qutulib olsin!
Eshitaylik shundayligicha,
Chunki tilning sizu bizsiz ham
Qobiq tilli sodiqlari bor.
Qofiya bog‘lab o‘tirmay men ham,
Yangrasin toki borligicha...
Tinch qo‘yaylik o‘tganlarni ham,
Til deb tildan qolganlarni ham,
Mayli,
Kimdir gapirsin go‘yo ilk bor
Soqov tilga kirgandek o‘qchib,
Kimdir yursin gapirmay qochib...
O‘rtamaylik tilni, iltimos,
Kim bilmasa, unutsin, mayli,
Chunki mening tilim muhtojmas
Badtabdil va suxanbozlarga,
Iltimos, til haqda xo‘b gapirib,

Zada qilmang boshqalarni,
Ko'krakka qo'yib o'ng qo'lingizni!
Poylab turar zotan Shayton
Qachon yo'ldan ozib
Tildan qolishimizni...
Iltimos, bu tilda to'qiy ko'rmang so'z
Faqat istagingiz ayting, xolos!
Bu tilda yolg'on gapirib bo'lmas.
Iltimos,
Siz mening tilimda gapira ko'rmang!

## *Shahlo Ahrorova*
## *(1967-yilda tug‘ilgan)*

### ONA TILIM

Ilk ko‘z ochganimda onam so‘z ochib,
Shu tilda bag‘riga olgan, bolam, deb.
Ilk qadamlarimga yong‘oqlar sochib,
Shu til meni yo‘lga solgan, bolam, deb

Mehrning o‘zbekcha rangin ko‘rsatib,
Onam yuragimga allalar quygan.
Momom chakkasiga rayhonlar taqib,
Meni tong suysa ham, o‘zbekcha suygan.

Ehtimol, «aya»dir, ilk bor deganim,
Balki «dada» so‘zin aytganman, xolos.
Biroq men yagona – shudir bilganim:
Men ilk bor o‘zbekcha so‘ylaganim rost.

O‘zbekcha jilmayar menga quyosh ham,
Yulduzga o‘zbekcha so‘ylayapman men.
Jon bolam, degan so‘z – buncha xushkalom!
Baxt haqda o‘zbekcha o‘ylayapman men.

Jon tilim, onamdan qolgan merosim,
Momolardan kelgan dostonlarimsan.
Navoiy desam gar, mangu bayozim,
Gar Ulug‘bek, desam, osmonlarimsan!

Minglab asrlarning qa’ridan kelgay,
Har aytarim, har bir so‘zim tomiri.
Hey, desam, ovozim ko‘kka yoyilgay,
Har so‘zim – o‘zligim, o‘zim tomiri!

Ketsam, el topmasman, odam topsam ham,
Shu el mehrin, qo‘msab qaytaveraman.
O‘zbek tug‘ilarkan to bu zaminda,
Men o‘zbekcha alla aytaveraman!

*Ulug‘bek Hamdam*
*(1968-yilda tug‘ilgan)*

## NAVOIY BO‘LMOQ KERAK

Tilim doim bo‘lsin desang,
Elim mangu yashasin,
Navoga to‘lmoq kerak,
Navoiy bo‘lmoq kerak!

Tilim mening elimdir,
Elim mening tilimdir!
Meni men qilgan asli
Navoiycha dilimdir!

Navoiy bo‘ldimmi men,
Navoiy bo‘ldingmi sen –
Bizni hech kim yengolmas,
Navoiyga bo‘lsak teng!

Tilim doim bo‘lsin desang,
Elim mangu yashasin,
Navoga to‘lmoq kerak,
Navoiy bo‘lmoq kerak!

Navoiy bo‘l, ey qalbim,
Navoiy bo‘l, ey xalqim!

*Ja'far Muhammad*
*(1968-yilda tug'ilgan)*

## O'ZBEK TILIM, DAVLAT TILIM

Ulug'larga hurmat tilim,
O'zbek tilim, davlat tilim,
Kichiklarga izzat tilim,
O'zbek tilim, davlat tilim!

Onam sutidan ibtido
Olgansan-u yo'q intiho,
Ishq-u mehr-u shafqat tilim,
O'zbek tilim, davlat tilim!

Alpomishning kamonidan,
Barchinoyning zabonidan,
Uchib kelgan bir xat tilim,
O'zbek tilim, davlat tilim!

Sohibqiron qo'rg'oniday,
«Xazoyin ul-maoniy»day,
Asli buyuk shavkat tilim,
O'zbek tilim, davlat tilim!

Xos Hojibning «Qutadg'u»si,
Hazrat Navoiy orzusi,
Muqimiy-u Furqat tilim,
O'zbek tilim, davlat tilim!

Sig‘magansan devonlarga,
Qasr-u ko‘shk-u ayvonlarga,
Bor-u buding savlat tilim,
O‘zbek tilim, davlat tilim!

Bobur Mirzodek shoh – o‘zing,
Ogahiydek ogoh o‘zing,
Tojmahaldek hayrat tilim,
O‘zbek tilim, davlat tilim!

Avloniy-u Cho‘lpon – o‘zing,
Qodiriydek o‘g‘lon – o‘zing,
Allomayi Fitrat tilim,
O‘zbek tilim, davlat tilim!

Qutlug‘ bo‘lsin maqomlaring,
Yuksak izzat-ikromlaring,
Olloh bergan ne’mat tilim,
O‘zbek tilim, davlat tilim!

O‘zligimni anglatgan – sen,
Dunyolarga tenglatgan – sen,
Rahmat senga, rahmat, tilim,
O‘zbek tilim, davlat tilim!

*Ikrom Iskandar*
*(1972-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

Sen g‘ururim, iftixorim, sharafim, shonim,
Hayotimsan, tomirimda jo‘sh urgan qonim,
Alla aytib ulg‘aytirgan yorug‘ jahonim,
Ona tilim, jon-u dilim, omon bo‘l mangu!

Tarixingga boqsam, ming-ming yillar qadarsan,
Asrlarni tutashtirgan ezgu xabarsan,
Sen xalqimning yuragisan, chin mo‘tabarsan,
Ona tilim, jon-u dilim, omon bo‘l mangu!

Navoiysan, mo‘jizalar yaratgan o‘zing,
Har bir dilni bulbul kabi sayratgan o‘zing,
Vatan nomin dunyolarga taratgan o‘zing,
Ona tilim, jon-u dilim, omon bo‘l mangu!

Bugun ozod yurtda sening e’zozing baland,
Jahon aro yangrab turar ovozing baland,
Qanoting yoz, doim bo‘lsin parvozing baland,
Ona tilim, jon-u dilim, omon bo‘l mangu!

## *Muhammad Siddiq*
## *(1972-yilda tug'ilgan)*

### ONAMGA XAT

Qara, johil chiqdi shayxim deganing,
Shoirim deganing – battol, badkirdor.
Bolam keltirgan, deb halvo yeganing –
Podshohlar poyida toptalgan, murdor.

Ayozning qo'llari sochingga tekkan,
Bahorning barmog'i yetmas kissangga.
Beg'am o'g'lingga boq –
Sen sori ketgan
Ajalning izlarin qilmas pisanda!

Yetar, bas! Orziqib kutganing bekor!
Kelsa ham eltmagay baxtning ko'shkiga,
U parvoz qilmoqda – yuksak, telbavor,
O'tkinchi yel kabi she'rning ishqida.

Ne bor, arzigulik allang satriga,
Qani, siyoh yutgan dunyoning gashti?
Menmi, ayt,
Kun kelib, hatto qabringga
Bir tup gul qo'ymoqqa qolmagan shashti?

Ona, nomard chiqdi alpim deganing,
Shoirim deganing – so'z yuqmas nolang.
Sog'ingan mahaling, topsin deb taskin,
Men o'sha – she'r yozib ovungan bolang...

* * *

O‘zimdan beruxsat umrimga ega
chiqmoqqa
shaylanar
shamollar, bermam!
Axir quvg‘indiman, shundog‘am yerga
Shoir yozib qo‘ygan
yoziqman – she’rman.

Ular so‘ramaslar ixtiyorimni,
qonim shirinmikan,
so‘rib to‘ymaslar?
Axir qurbon qildim –
oling borimni,
ey qulga erkini ravo ko‘rmaslar!

Ko‘zlarimni o‘ying,
terimni shiling!
Bo‘ynimga dor soling –
aytolmay bir so‘z...
Murdamni bozorga otdim, shoshiling,
faqat yuragimga teginmang, ey do‘st!

Mayli, istasangiz qabrimni berdim,
kun kelar – ajrini olar qora yer.
Tug‘ilib ingragan tovushim she’rdir,
ibtidoyim she’rdir,
intihom ham – she’r
va yana oxirgi...
Intiqom ham – she’r.

## *Ma'mura Zohidova*
## *(1973-yilda tug'ilgan)*

### MEN

Yo‘q! Umrimda bo‘lmagay yakun!
Poyon yo‘qdir na ruh, na tanda.
Meni yuz bor chopsalar bugun,
Ming bor ko‘klab qo‘yurman tanda.

Toki tilim bo‘lmas muqarrar,
Toki tilim yayramas chunon,
Men o‘lmayman qiyomat qadar,
Umrim ado bo‘lmas hech qachon.

Agar farah insa falakdan,
Agar tilim bo‘lsa sarbaland,
Men ko‘z ochib yangi tilakdan,
Dunyoga bot kelaveraman.

Men shu elga erkalik bilan,
Sig‘may ketgum yo‘rgaklarimga,
So‘zni tinglab, o‘zlikni anglab,
Singdirib to so‘ngaklarimga.

Men qo‘l cho‘zib chinqirib yig‘lab,
«Nanna» deya so‘rayman rizqim,
Yer emaklab, chuchuk chuldirab,
Tuproq tutib kelgum bir siqim.

Men kitobga ilk bor termilib,
Bo‘g‘inlayman O‘z-be-kis-tonni,
Ham yagona ruhida bo‘lgum
Unga doir hamma insonning.

Men qora qosh yorga chin-chindan
Haq yorlig‘i bilan bog‘lab ishq.
Suymoqlikning bol shevasidan
O‘z tilimda kuylarman qo‘shiq.

Men o‘g‘limni polvon o‘stirib,
Yurtga qalqon bergum bir haybat,
Uning shoni sening sha’ning deb,
El alpini etgayman, albat.

Men tilimni tildirmam hech vaqt,
O‘g‘ilmanmi, qizmanmi, ne farq
Chunki shunday ulug‘ qudratman,
Men! Bir Xalqman!
O‘zbek degan Xalq!

*Alisher Nur*
*(1974-yilda tug'ilgan)*

## ONA TILIM

Dunyoda yagonasan,
Ey, mening ona tilim.
Sen tufayli doimo
Ravondir yurgan yo'lim.

Alla bilan kirgansan,
Tanamdagi jonimga.
Sadolaring yo'l ochar
Tomirdagi qonimga.

Sen borsanki, yuragim
Oshnodir she'r, bayotga.
«Chuh» deganda qo'llarim
Aylanadi qanotga.

Osmonlarda uchaman,
Orzularim ijobat.
Ona tilim navosi –
Tengi yo'q bir saodat.

## *Mirzohid Botirov*
## *(1974-yilda tug'ilgan)*

### ONA TILIM – JON TOMIRIM

Lutfiyning lutfi bilan
Loying she'rga qorgansan,
Boburning nafasida
Hindistonga borgansan,
Navoiy Xamsasida
Yuragimda qolgansan,
Ona tilim, ona tilim!

Jadidlaring otilgan,
Kechgan sen deb jonidan,
«O'tkan kunlar» bitilgan
Qodiriyning qonidan,
Cho'lpon voz kechib ketgan
Seni deb osmonidan,
Ona tilim, ona tilim!

Sohibqiron Temurning
Ko'ksidagi g'ururasan,
Mirzo Ko'ragoniyning
Rasadida mashhursan,
Ellik million yurakning,
Toleyisan, mag'rursan,
Ona tilim, ona tilim!

Massaget, saklar hayron,
So‘g‘diyonam,  hur tilim,
Koshg‘ariylarga armon,
Mashrabonam, dur tilim,
Shoiring boshi osmon,
Yuragi pora-tilim,
Ona tilim, ona tilim!

Otash bo‘lib yonib kelding,
Yetmish yilning qa’ridan,
Daryo bo‘lib oqib kelding,
Behbudiyning bag‘ridan,
Bir allang deb jondan kechgum
Va dunyoning bahridan,
Ona tilim, ona tilim!

## *Umida Ermatova*
## *(1974-yilda tug'ilgan)*

### ONA TILIM

Vatanim ko'rkisan, millat g'ururi,
Tuproq hidlarida yashagan tilim.
Somonshuvoq uyim, paxsa devorim,
Hatto tandirimda yashnagan tilim.

Sen menga moziydan so'zlaysan ertak,
Qancha tazyiqlarda o'tgan hayoting.
Kirza etik kiygan To'maris qizlar,
Dalalarda qolib aytgan bayoting.

Sen o'zbek sha'nisan, xalqim shukuhi,
Samodan so'zlaydi bitiktoshlaring.
Eng qadim Turonim, O'rxun-Enasoy,
Turkiy tillar ichra ko'p qardoshlaring.

Yusuf Xos Hojib-u, Koshg'ariy bobom,
Oltindan bezalgan bo'stonlaring bor.
Sening dovrug'ingni aylab yakqalam,
Navoiyda buyuk dostonlaring bor.

O'z erkin talashgan adiblar tili,
Qatag'on qurboni Usmon Nosirlar.
Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lponlar
Elim deb jon bergan, u mavhum sirlar.

Buyuk daholarning jonisan, tilim,
Qonidan yozilgan o'lmas asarlar.
Bugun o'zbek eli senga ta'zimda,
Yashaysan abadiy, mangu asrlar.

*Yulduz Alimova*
*(1974-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

Onam allasida jarangladng sen,
Bobom ertaklarni aytardi oqshom,
Shirin jozibangga maftun bo‘ldim men,
Qalbimga quyilding sen bo‘lib orom.

Tilim chiqdi ilk bor «Vatan», «ona» deb,
So‘ng biyron so‘zladim shu tilda kalom,
O‘zga tillarga men qancha bermay zeb,
Senga, ona tilim, qalbda ehtirom.

Sen sabab tanidim o‘zbek, o‘zligim,
Bobolar hikmatin o‘rgandim sendan,
«Onajon» deganda o‘g‘lim va qizim,
Baxtliroq zot yo‘qdir o‘shanda mendan.

Sen buyuk Navoiy g‘azallarisan,
Sen bobom Boburning nola-fig‘oni,
Qodiriy, Mirtemir asarlarisan,
Sen yurtim erishgan sharafi-shoni.

Sen elga tanitding o‘g‘ling Erkinni,
Abdulla Oriflar madh etdi tongdan,
Usmonlar, Cho‘lponlar bermay erkini,
Seni deb kechdilar, hattoki, jondan.

Men ham bitdim senda she'r-u dostonlar,
Davralarda aytdim senda xush kalom,
Qay yurtga bormayin, oshmay dovonlar
Bilaman, sen bilan baxtliman mudom.

Tomirimda oqar «oʻzbek» degan qon,
Shundan magʻrur boshim, koʻksimdir osmon,
Mehmonimga siylov – osh-u patir non –
Oʻzbekona lutfu saxiy dasturxon.

Mehmondoʻstligimning boisi oʻzing,
Qalbimdan otilar «salom-assalom»,
Bu kun e'zoz etar har oʻgʻil-qizing,
Ham berildi senga yuksak bir maqom.

Ona tilim mening, onajon tilim,
Rivoj topgin endi, koʻrma hech zavol,
Senla qudratlidir millatim, elim,
Ming yillab jarangla, oʻlma, yashab qol!

## *Zuhra Begim*
## *(1975-yilda tug‘ilgan)*

### O‘ZBEK TILIM

Sendan kechib ketolmasman,
Sensan bag‘ri kuyik dilim.
Orzuyimga yetolmasman,
Sensiz faqat gungdir tilim.

Necha yilki, qadring bilmay,
Toptashdilar guldek noming.
Istiqlolning kaftlarida,
Ko‘tarildi shuhrat-shoning.

Ikki olam ganjinasi,
Tomirlarda to‘lib oqar.
Qo‘shiq bo‘lib ovoz bersang,
Quloqlarga mayin yoqar.

Sen tufayli qadrim baland
Saboqlaring tengsiz bilim.
So‘zlagayman dildan jo‘shib,
Hamnafasim – o‘zbek tilim.

*Shodmon Sulaymon*
*(1975-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

Humo qanotida sehrli maktub –
Keksa Nuh yo‘llagan o‘g‘li Yofasga.
Bir zot ehtirom-la kaftida tutib,
Sayyoh so‘zlaringni «soldi qafasga» –
Ustoz Koshg‘ariydan meros «Devon»im,
Ona tilim, onajonim.

Sen – «Irq bitigi»dan kelgan bashorat,
Bobo Afrosiyob so‘ylagan kalom.
Ko‘zga surtar ekan harfing, ishorang,
Yo‘llug‘ Tegin ko‘ksin chulg‘agan ilhom.
To‘nyuquq, Kultegin, Bilga xoqonim –
Ona tilim, onajonim.

Yassaviy bag‘ridan taralgan hikmat,
Ne baxt, sado berdi har bir yaproqda.
Go‘yo mudrab yotgan turkona jur’at
Porladi Alisher yoqqan chiroqda.
«Besh doston» arshidan boqqan Turonim –
Ona tilim, onajonim.

Uyg‘ondi Yugnakiy tortgan fig‘onlar
Tinglab dunyo chekkan faryod sasini.
Urush olovini yoqqan nodonlar
Tinglasin Xos Hojib taronasini.
Bashar dardlariga bo‘lgan darmonim –
Ona tilim, onajonim...

Xira tortmagaymi qadimiy izlar,
Yilda bir bor soʻrab qoʻysam koʻnglingni.
Erib borayotir kaftimda soʻzlar –
Kechir tashbehlarga noʻnoq oʻgʻlingni.
Onam allasidan bunyod qoʻrgʻonim –
Ona tilim, onajonim!

## *Botir Ergashev*
## *(1975-yilda tug‘ilgan)*

### ONA TILIM

Onam deya gar suysa kim,
Seni suysin, ona tilim,
Madhing uchun turguvchi jim,
Dillar kuysin, ona tilim.

Senga boqqach ko‘p «ola ko‘z»,
Chin do‘sting ham bo‘lmadi do‘st.
Har gapida bir g‘ayri so‘z
Tillar kuysin, ona tilim.

Bu kun qochib yovlar tobi,
Boshingda hurlik oftobi.
Yuzingga surilgan obi –
Gillar kuysin, ona tilim.

Qancha kaslar yo‘ling to‘sgan,
Yo‘q qilishga hissa qo‘shgan.
Bog‘ingda yot bo‘lib o‘sgan –
Gullar kuysin, ona tilim.

Bu kun qayta tug‘ilgansan,
Shukr ayta tug‘ilgansan,
Seni hanuz olmagan tan –
«Sillar» kuysin, ona tilim!

Ko‘rdim, topolmay bir habib,
Xasta yotding xo‘p betabib,
Sensiz o‘tgan ul mustabid
Yillar kuysin, ona tilim.

## *Farog‘at Xudoyqulova*
## *(1975-yilda tug‘ilgan)*

### HAQIQATGA QO‘YILGAN QAFAS...

*Rauf Parfi O‘ZTURK xotirasiga*

**1**

Ishonch buzolmasmi eski dorlarni,
Suyanmoq istasak vijdonimizga?
Quyosh tark etmasmi mash’um g‘orlarni,
To‘zimlar tilasak mo‘rt jonimizga!..

Mudragan mudrasa bo‘lib muttaham,
Yurtning botirlari otilib ketsa.
Bo‘g‘zimizda qolsa olov ham, dud ham,
Tiriklar xoinga sotilib ketsa.

Ko‘zimiz o‘yilsa ko‘rganimizdan,
Eshitib tom bitsa quloqlarimiz.
Tog‘lar to‘qaylarning poyini o‘psa,
Og‘uga kon bo‘lsa buloqlarimiz...

Oh, buncha azobli bedor yashamoq!
Mudramoq aslida undan ham azob!
Chiqarmi qismatning sahifasi oq,
Qadim manbalardan axtarsam javob?

Qaysi ma’volarda chashmalar oqmay,
Ko‘ksimdan ko‘zimga toshib chiqar qon.
O‘g‘ling sendan olis ketdimi, boqmay?..
Darding ololmasdan, ona Turkiston?..

**2**

Ortiq chidab turolmas yomg‘ir,
Ta’qib qilar shoirni bulut.
Borliq ichra bir sevgi sag‘ir –
O‘tgan kunday bo‘larkan unut.

Oy shoxida tushkun yaproqlar
Alla aytar shoirga so‘ng bor.
Tongni quchib so‘ngan titroqlar
Va manguga kuzatgan dildor...

Baridan, tun, sen bo‘lding ogoh,
Chidab berding olmasdan nafas.
Shoirni mahv etdi-ku nogoh
Haqiqatga qo‘yilgan qafas...

**3**

Sen tomondan esar mayin yel –
Tuyg‘ularning baland parvozi.
Ey, sen, mudroq, yuragimni til,
Yashil sukunatning ovozi.

Ruhim – sahro, chayqalaman goh,
Po‘rtana – so‘z va keskir ovoz.
Ko‘rolmasman ko‘zlaringni, oh,
Mayin yelni ilg‘ayman, xolos.

Bog‘lar – shaddod yomg‘ir ostida
Cho‘milishar ko‘ylagin yechib.
Borayapman sevmoq qasdida
Sen tomonga umrimdan kechib...

**4**

Ohudayin hurkak yuragim bilan
Qancha nigohlarni saraladim men.
Qaysiki do‘stimga suyanch bo‘lay deb,
Qaysiki g‘animni yaraladim men.

Keskir qilich kabi qanotim dami,
Ko‘kka yuksaltirar umid tulpori.
Tonglarim tonglarga ulanib hali,
Poyimda yastanar cho‘qqining qori.

Oy-u yulduzlarga ayon qismatim,
To‘lg‘anib dard chekkan daryoga ayon.
Hech nega arzimas qilgan xizmatim
Va umrim sahrosi besarhad, shoyon...

Ismimni manguga olib qaytarkan
Poklangan maqbarlar ko‘rkli shukuhi,
So‘ng bor yuragimda zobitlar o‘pgan
Bayroqday hilpirar Turkiston ruhi.

*Abdulla Urozboyev*
*(1975-yilda tug‘ilgan)*

## TO‘TIQUSH

Men shularni o‘ylayman nogoh,
Barq urganda hissiyot o‘ti.
«Shirinzabon» deya sevarlar,
Sen baxtlisan, baxtlisan, to‘ti!

Ingliziy, rusiy – farqi yo‘q,
Na ma’no anglab yo o‘ylaysan.
Ko‘p odamga o‘xshashliging bor,
Deylik, o‘ylamasdan so‘ylaysan.

To‘ti odamdaymas aslida,
Odamlar to‘tiday gapirar.
Uchqun qadar bo‘lmas-u o‘zi,
Namrudning o‘tiday gapirar.

To‘tiday gapirib kecharmiz,
Umrning necha oy, yilini.
Qush tilini qush bilar, ammo,
Qay qush bilar to‘ti tilini?!

## *Zuhra Ochilova*
## *(1975-yilda tug‘ilgan)*

### VATANIM – O‘ZBEK TILI

Yozilgan quyoshli qalam-la
Qismatim xaritasida
Yozilgan yuragim g‘ururi bo‘lib
Ayta olgum baralla:
Vatanim – o‘zbek tili.

# *Nodir Jonuzoq*
## *(1976-yilda tug'ilgan)*

### SO'Z

*(Doston)*

*Insonni so'z ayladi judo hayvondin,*
*Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin...*

**Alisher Navoiy**

Bilmam, qanday tilsim, qanday sir,
So'z yo'qoldi – gungga aylandim.
Tevarakka boqqancha sassiz,
sukut ichgan mungga aylandim.

Yoppasiga so'zlar etdi tark,
turnalarday bo'lishdi g'oyib.
Tilsiz bo'shliq quchdi dilni talx,
so'z izladim o'ksiz, mung'ayib.

Shu chog' ilkis tilim chetidan
sakrab tushdi yoqutday bir So'z:
«Men ketmadim ular ketidan –
senga sodiq qolaman, ey, Do'st!

Dadil bo'lgin. Tur, o'rningdan qalq,
bizni kutar uzoq yo'l hali.
So'zlasa bas ko'ksingdagi qalb,
uning so'zi – riyodan xoli...»

Ikkilandim. Holimga boqsam,
undan boshqa sirdoshim yo‘q hech.
Shubha-gumon sari uloqsam,
u ham ketar – keyin bo‘lar kech.

«Mayli, berdim qismatimga tan,
yo‘l boshlagin – sendadir izmim.
Faqat... avval So‘z Sohibidan
birgalikda so‘raylik izn...»

AVVALGI SO‘Z: IZN
Avvalboshda So‘zni yaratib,
Jilo berding bittalab O‘zing.
Koinotga yog‘du taratib,
Hayrat sochdi har bitta so‘zing.

Har so‘zingdan kengaydi olam,
Ortaverdi borliq zalvari.
Nedir – hali anglamasa ham,
So‘z so‘radi hamma yolvorib.

Samovotni bosdi mast yig‘i...
«Sadafi bor So‘zlarning!» – deding.
So‘ng Odamni yaratib, yig‘ib
So‘zlaringni birma-bir berding.

Novvot kabi solding tiliga,
Shimsin, deya, bilsin mazasin;
Naqsh aylasin So‘zni diliga –
So‘zga hayot berib yashasin...

So‘zlaringni oliy tug‘ qilib,
O‘tdi mayoqko‘ngil insonlar.

Yangi soʻzlar bir-bir tugʻilib,
Ranginlashdi goʻzal lisonlar.

Jamol ochdi oʻzbekiy tilim –
Bu dunyoga aytar soʻzim bor!
Soʻzim bormi, demakki, dilim,
Jonim, ruhim, ya'ni Oʻzim bor!

Garchi qurbim yetmas, yoʻq quvvat,
Arzigulik bir soʻz demakka.
Tirishaman baholi qudrat
Biror soʻzga hayot bermakka.

Toki haq kun huzuringda zor,
Bejon qotib, turarkanman gung,
Shu tirik Soʻz aytsin istigʻfor,
Mening uchun yigʻlasin yum-yum...

Hozir esa izn ber, shu Soʻz
Soʻylamoqchi menga hikoya.
Ergashaman ortidan soʻzsiz,
Ergashaman misoli soya.

Zora, buloq kabi yumilgan,
Qumlar bosgan koʻzim ochilsa:
Koʻz yosh toʻksam – yana yuvilgan,
Gard qoplagan soʻzim ochilsa.

Oʻzing qoʻlla!
Yiqilsam – nomus...
Soʻz topolmay, toʻlgʻanar ohim.
Shukr, ziyo sochdi uch fonus:
Bismillahir Rohmanir Rohim!

Yo‘lga chiqdik. Tog‘ni ko‘rsatib,
So‘z so‘radi: «Nima bu, o‘rtoq?»
Ensam qotdi, dedim kesatib:
«Igna emas, har holda, bu – tog‘!»

So‘z jilmaydi: «Yo‘q, tog‘ emas bu...
Bu – cho‘zilgan, zalvarli oyat.
Yo‘l tanobin gurung tortar-ku,
tingla, aytay, senga hikoyat...»

IKKINCHI SO‘Z: OCHUN
Olam asli so‘zdan iborat,
Olti tomon va to‘rtta unsur –
So‘zdan bino bo‘lgan imorat,
Izlab topa olmaysiz qusur.

Metin so‘zdan yaralgan tog‘lar,
Sharqiroq so‘z oqar daryoda.
Yashil so‘zni yuksaltar bog‘lar,
So‘z jivirlab yotar sahroda.

Kiyik emas qochgan – hurkak so‘z,
Fil emas bu – vazmin so‘z, ayon.
Yo‘lbars demang – yovqur so‘z, shaksiz,
Zaharli so‘z – qoraqurt, chayon.

Aqlli so‘z, shubhasiz, Odam,
Jonli-jonsiz so‘zlar sarvari.
Lek... aqlidan ayro tushgan dam
Qulaydi u tuban so‘z sari.

Ko‘kni bezab turgan yulduzlar –
Bu olamda mangu mayoq so‘z.

Har so‘z mudom o‘zini izlar,
Har mavjudot – sirli, sayyoh so‘z.

Hech kim boqiy qolmaydi bunda,
Fursat yetsa, hamma qo‘zg‘alar.
Tirik so‘zga tashna ochunda
Ma’nosini topgan So‘z qolar...

«Demak, izlar har kim ma’nisin,
pinhon erur o‘zlik javhari.
Kim o‘zini ichdan tanisa,
chekinadi to‘siqlar bari.

G‘oyib bo‘lar dag‘al pardalar,
uziladi zanjirlar qat-qat.
O‘char zulm, g‘azab, zardalar –
tug‘iladi toza muhabbat...»

UCHINCHI SO‘Z: MAVLUD
Balki sizga tuyilar erish,
Haqiqat shu:
Bu So‘z – ikkiqat!
Garchi yo‘qdir boshida eri,
Maryam kabi pokiza xilqat.

Ixlos ahli tushungay uni,
(Imonimiz saqla, Rabbano!)
Tug‘ilajak, to‘lgach oy-kuni,
Masih kabi xaloskor Ma’no!

U dunyoga kelgani hamon
Malham bo‘lgay yetim-muhtojga.

Faqat uni johil olomon
Mixlamasa ayovsiz xochga…

Sudramasa hislar havoyi,
Munkir hirslar toshlar otmasa.
Etagini tutgan havoriy
Kalimalar pinhon sotmasa…

Ka’ba kabi yuksalar Ma’ni,
Tasbeh misol aylanar so‘zlar.
Ko‘rmaysiz hech yot kalimani –
Zikr dilga daricha izlar.

To‘siq bo‘lar na din va na til,
Yaxlitlashar ko‘ngil olami.
Anglagaymiz hammamiz yakdil
Yakka-yolg‘iz Voiz kalomin…

«To‘g‘ri, dedim, xaloskordir So‘z –
hikmat bilan to‘lsa botini.
Ming vovaylo, dunyoda, afsus,
Ma’noning ham ko‘pdir qotili.

O‘lja izlab izg‘iydi besar,
o‘z ishidan zavq tuyar g‘oyat.
Agar ranjib qolmayman desang,
so‘ylayman bir ezgin hikoyat…»

TO‘RTINCHI SO‘Z: QOTIL
U so‘zlarni so‘yadi pinhon,
Jon beradi so‘zlar hirqirab.
Jilmayadi (usti-boshi qon)
O‘layotgan so‘zlarga qarab.

O‘z qatlini kutadi qator
Qafaslarga solingan so‘zlar:
Qay biri jim – yotar bemador,
Qay biri-chi, yulqinib bo‘zlar.

Qilt etmas u,
Bezrayar mamnun,
Qalbi – qotib qolgan qayroqtosh.
Pichog‘ini qayraydi kun-tun,
Kundasiga so‘zlar qo‘yar bosh.

Murg‘ak so‘zlar bo‘ladi nobud,
Keksa so‘zlar o‘ladi bir-bir:
Kerak emas ularga tobut,
Kerak emas ularga qabr.

Aza ochib, tutilmas motam –
Hech kim kiymas na ko‘k va na oq.
Dunyodagi birorta odam
Bel boylamas so‘zlar o‘lgan chog‘.

U biladi buni...
Dasti qon –
Bo‘g‘izlaydi so‘zlarni qo‘yday.
Yozsa hamki elga dasturxon,
Qovurilgan so‘zlarni qo‘ygay.

Oh, Xudoyim,
Panoh ber menga,
Asra o‘zing ul g‘ayir ko‘zdan.
Umid bilan keldim zaminga,
Men odammas, men, axir, So‘zman...

So‘z mung tortdi. Asta tortinib,
dedi:
«Esga tushdi eski g‘am.
Sen so‘ylagan o‘sha qotilning
changaliga tushgandim men ham.

Bir amallab qutuldim, shukr,
yo‘liqmadim unga qayta, bot.
Lek uzlatga chekindim tushkun –
ranglarini yo‘qotdi hayot...»

Bosh irg‘adim: «Menga ham ayon,
so‘zlar borki – to‘zg‘igan soya:
zamirida zaif tortgan jon...
Kel, shu haqda qilay hikoya...»

BESHINCHI SO‘Z: SUIQASD
Qayga qochmay, qayga bekinmay,
Noxush xabar kelar basma-bas:
Olis-yaqin yurtlarda tinmay
So‘zlar qilar o‘z joniga qasd.

Qaysi so‘zda charchagan asab,
Shovqin ichra aqldan ozgan:
Mikrofondan baland dor yasab,
Tokli simga o‘zini osgan.

Qay kalima alam komida
Tubanlarga tikib ko‘zini –
Qirq qavatli kitob tomidan
Pastga qarab otmish o‘zini.

Men ham kecha yo‘lda, rosti gap,
Bejon so‘zning yotganin ko‘rdim.
Guvoh dedi: «Moshin ostiga
O‘zin atay otganin ko‘rdim».

Bu qandayin qayg‘uli maslak?
Bu qandayin dard jilvalari?
Nega so‘zlar bizlarni tashlab
Ketayapti sukunat sari?

Javob qildi menga shu zahot
Minoraga naqsh bo‘lgan kalom:
«So‘zlay olmas boshqa hech jonzot,
Sizdan esa... toliqdik tamom!»

«Ha, zerikdik... – dedi So‘z beruh, –
ammo boshqa na choramiz bor.
Shukr, Ma’no quch-quvvat berur –
yashagimiz keladi takror...»

«Haq, rost, – dedim – laziz juda jon,
insonlar ham bordir xo‘b, sara –
so‘zlar bilan yashar jonajon...
Huv, bittasi kelyapti, qara...»

OLTINCHI SO‘Z: PIYODA
Yaxshi tanish menga bu odam,
Yo‘l bosadi har kun piyoda.
Garchi bordir mashinasi ham,
Garchi obro‘, sha’ni ziyoda.

Sukunat-la sassiz kengashib,
Kezar yerga tikib ko‘zlarin.

Goho birdan toʻxtar... Engashib,
Olar yoʻlda yotgan soʻzlarni.

Manavi soʻz – sut tishidek pok,
Biror bola ogʻzidan tushgan.
Manavi soʻz – choʻgʻ kabi qaynoq,
Shaksiz, oshiq qalbidan uchgan.

Manavi soʻz – rangi koʻp zahil,
Xasta dilning ezgin nolishi.
Manavi soʻz – ancha badjahl,
Tuflagandir puldorroq kishi.

Manavi soʻz – juda serajin,
Yoʻqotgandir cholmi yo kampir.
Manavi soʻz – chinlar ichra chin,
Kimdir yoʻlga koʻmib ketgan sir.

Manavi soʻz – oʻlguday badboʻy,
Gʻiybatlarning sassiq qoldigʻi.
Manavi soʻz – kuygan... Hasadgoʻy
Yuragida yongan qobigʻi.

Manavi soʻz – billurday tiniq,
Xolis duo, zikrning qismi.
Manavi soʻz – turar qimtinib,
Qaysi mohichehraning ismi...

Xullas, bir-bir terib olar u,
Uflab, artib, qoʻyniga solar.
Parda tortgach zulmat-qorongʻu,
Soʻzlar bilan yuzma-yuz qolar.

Shu’la sochib turar har bir so‘z,
Taratadi sha’n tuyg‘ularni –
Ochilganday go‘yo basir ko‘z...
She’r qiladi odam ularni!

Nahot, deysiz, bu sirli saslar
Kimlardandir qolmish to‘kilib!?
O‘qib qolsa endi ul kaslar,
Panalarda yig‘lar o‘kirib...

Ta’zim qildi So‘zga piyoda,
Piyodaga so‘z ham yukundi:
baxti bo‘lgan kabi ziyoda,
xalos bo‘lgan misol yukidan...

«Battol emas odamning bari,
qotil emas kimki qilsa ov.
Yur, boramiz Dildaryo sari...»
– yetakladim, So‘z ko‘ndi darrov...

YETTINCHI SO‘Z: OV
Ko‘ngil degan daryo bo‘yida
Solib turar har kuni qarmoq.
Baliq so‘zlar suzar o‘yida,
Fikri ezgu – faqat qutqarmoq.

Suv qa’rida nahanglar kezar,
Sho‘ng‘ib yurar ochko‘z yuholar,
O‘lja isin olisdan sezar –
Yutilgan so‘z tamom yo‘qolar.

U so‘zlarni birma-bir tutib,
Solsam deydi akvariumga –
Ya’ni, she’rga... Bu shaffof quti
Najot bo‘lib tuyilar unga.

So‘zlar esa Qaysdek qaysar,
Qarmoq insa, qochadi gurra.
Hur o‘limni ko‘radi afzal –
Tor kulbada yashashdan ko‘ra.

Lek nasiba degan gap ham bor –
Uch-to‘rtta so‘z ilinar har kun.
Yashayverar yana umidvor
Hayotidan axtarib mazmun.

Tushida ham ov qilar, hayhot,
To tonggacha qizir og‘ir jang:
Qarmog‘iga ilinar bot-bot
Dunyodagi eng ulkan nahang!

So‘z tik boqdi: «Yashirma, sen ham
goh-goh qarmoq solib turasan.
Dildaryodan quruq qaytgan dam
omadingdan nolib turasan...»

«To‘g‘ri, – dedim, – bu ko‘p nozik jang,
mag‘lub uchun yo‘qdir bahona...
Hozir esa qarshi bo‘lmasang,
bizni chorlar tomoshaxona...»

SAKKIZINCHI SO‘Z: HUQQABOZ

Gir aylana, to‘garak davra,
Hayrat ichra hamma hang-u mang.
Nigohlarni sehrlab, avrab,
Ko‘zboylog‘ich ko‘rsatar nayrang.

Cho‘ntagidan cho‘g‘day so‘z olib,
Odamlarning qo‘liga tutar.
So‘ng shu so‘zni yengiga solib,
Bir silkisa – uchar kabutar.

Boshqa so‘zning ostiga o‘tin
Qalab, olov yoqar ustma-ust.
So‘ng «suf» deya so‘ndirib o‘tni –
Kul ostidan olar parcha muz.

Uzun so‘zni yotqizib to‘g‘ri,
Qoq belidan tortadi arra.
Bo‘linadi u bo‘g‘in-bo‘g‘in,
Sochiladi zarra va zarra.

Va ustidan yopar-u belbog‘,
Silkitadi sirli tayog‘in.
Sakrab turar chaqqon so‘z – bebok,
Butun boshi, qo‘li, oyog‘i...

Davom etar tilsim-tomosha,
Mo‘jizaga to‘la sir sandiq.
Dillar hayron, aqllar shoshar,
Kovushini yo‘qotar mantiq...

Hayrat ila tarqar olomon,
Huqqabozni Xizr chamalab.
Yolg‘iz qolar... Bo‘lganday talon
O‘tiradi boshin changallab.

G‘ijimlaydi to‘zg‘in sochini,
So‘z topolmas – ovozsiz bo‘zlar.
Tegrasida yotar sochilib
Kuygan, singan, yarador so‘zlar...

«So‘z o‘yini – eng sirli san’at,
so‘z ustasi – mohir huqqaboz.
Faqat ko‘zni qilib shamg‘alat,
mohiyatdan sirg‘almasa – soz...»

«Mohiyatga koʻzgu soʻzlar bor –
sof goʻshada yetar voyaga.
Afsus, ular e'tiborga zor.
Kel, quloq tut shu hikoyaga...»

TOʻQQIZINCHI SOʻZ: JINOYAT
U qishloqda yurgan Soʻz edi,
Yashar edi elning ogʻzida.
Baxshi bilan yaqin doʻst edi,
Yashnar edi uning sozida.

Bir kun qoʻqqis yuragi siqdi,
Goʻyo unga yetmasdi nafas:
«Bu yerlarda juda zerikdim,
Shahar sari yoʻl olaman, bas!»

Xeshlar bilan xayr-xoʻsh qilib,
Yoʻlga chiqdi erta saharda.
Mardikorlar bilan qoʻshilib,
Yetib keldi azim shaharga.

O, ochildi sodda ogʻzi lang,
(Unga hayron tikildi koʻzlar)
Gangib qoldi – qildi hangu mang
Poson soʻzlar, olifta soʻzlar.

Va nihoyat, yigʻib es-hushin,
Izlab ketdi biror qoʻnim joy.
Mashhur hofiz esiga tushdi:
«U bagʻriga olgay, hoynahoy».

Katta kentda tentirab, ayni
Shom mahali manzilin topdi.
«Tanimayman seni, ogʻayni» –
Hofiz shartta eshigin yopdi.

Ranjimadi, qilmadi ta'na,
Taqillatdi olim eshigin:
«Bizga kerak ilmiy atama –
Sen-chi, fanga yotsan, kechirgin».

So'nggi ilinj – shoir...
Tantife'l,
Hotam deya qozongan u nom:
«Mayli, faqat, erta-indin kel,
Hozir esa yo'q sira ilhom...»

So'z izg'idi, hasratda to'zdi,
Taskini yo'q – ovozsiz bo'zlar...
...Bexos uning yo'lini to'sdi
Jinko'chada ajnabiy so'zlar.

Biri keskin sermadi pichoq,
Biqiniga biri musht soldi.
Cho'ntaklarin qilishdi-ku qoq,
So'z yiqildi – cho'zilib qoldi.

Nobud bo'ldi.
Odamlar loqayd,
Yotar biror daydi mast, deya.
Qishloqda-chi, kuylaydi shu payt
Baxshi juda g'amgin marsiya...

Men xo'rsindim: «Tanirdim uni,
mol boqardik, o'ynardik birga.
U shaharga yo'l olgan kuni
men ham taslim bo'ldim taqdirga.

Asrolmadim... Ha, zimmamda ayb,
shu ekan-da odamning holi:

turaverar tilsiz mung‘ayib,
kuchlidir goh undan chumoli...»

O‘NINCHI SO‘Z: MASLAK

Chumolining ishini qarang
(Uvoqcha ham kelmaydi o‘zi),
Yumalatib ketmoqda arang
O‘zidan ham kattaroq So‘zni.

Yo‘lda kimlar qilmaydi daxl,
Pistirmada yotvolib poylar –
Tekintomoq, qaroqchi, baxil,
So‘z o‘g‘risi bo‘lgan gadoylar.

U hech kimga qilmaydi parvo,
O‘ylamaydi mag‘lubiyatni.
O‘nqir-cho‘nqir, chalkash yo‘l aro
Mayoq qilgan yorug‘ niyatni.

Kurashadi, manzili uzoq,
Javob bermas hech kim sasiga.
Dumalatar, ters sudraydi goh,
So‘zni eltar o‘z uyasiga.

Yuksaltadi so‘z xirmonin, rost,
Kunda shunday bir juft so‘z to‘ksa...
Hayron bo‘lmang,
Bossangiz bexos,
Bir kun sizni odamday so‘ksa!..

«Quvvat bordir so‘z tiynatida –
qumursqa ham devga aylanar.
Nafis so‘zning zeb-ziynatidan
oddiy tosh ham durday shaylanar».

Bosh silkidim: «Ha, so‘zda qurb bor,
mag‘zidagi malhamday g‘oya
ta’siridan tuzalar bemor…
Bu haqdamas, ammo hikoya…»

O‘N BIRINCHI SO‘Z: ESKI DARD
U yiqildi ko‘ksin changallab,
Yomon sanchdi yuragi bu kez.
Hamkasblar-u do‘stlar amallab
«Tez yordam»ga olib bordi tez.

Turfa asbob-uskuna ila
Tekshirdilar avra-astarin:
Jilla gumon qolmasin dilda,
Ne usul bor – qo‘llashdi barin.

Bosh chayqadi oxiri jarroh:
«Tig‘ tegmasa degandik zora,
Havas emas bizgayam yormoq,
Ne qilaylik, yo‘q o‘zga chora…»

Chap ko‘ksini ochdilar kesib,
Pardalarni nozik tildilar.
Yurak degan olamni kezib,
Tomirlarni sayr qildilar.

«Yo Xudoyim!..»
Notanish hisdan
Jarroh so‘zsiz tilin tishladi.
Nafis qisqich bilan ohista
Nimanidir olib tashladi.

Yengil tortdi.
Chiqdi tashqari,

Chekdi. So‘zga majoli yo‘qdir.
O‘rab oldi do‘st-u xesh bari:
«Nima bo‘ldi, bir so‘z deng, do‘xtir!?»

U jilmaydi:
«...Qutqarib qoldik,
Shafqat qildi Xudoning o‘zi...
Yuragining tubidan oldik
O‘ttiz yillik zanglagan So‘zni...»

«Ha, so‘zlar bor tig‘ kabi keskir,
yuraklarga behis qadalar.
Toza qonni qilgaydir tez kir,
tomirlarga tushsa, maddalar.

Shubhasiz, bu – Zulmatning ishi,
so‘rib olgay so‘zlarning nurin,
tong ufurgan shu’lani shimib,
joylaydi so‘ng qop-qora qurum...»

«Ombor kabi so‘z yig‘ar Yurak,
farqi yo‘qdir ne bilan to‘lsa.
Bir parcha til – beminnat kurak,
olib chiqar unda ne bo‘lsa.

Qadrli so‘z bir chetda turmas,
yombi mangu qolib ketmas sir...
Til qoraysa, demakki, durmas –
yurakni zich to‘ldirgan ko‘mir...»

O‘N IKKINCHI SO‘Z: QORA ISH
So‘z yig‘adi u mijoz kutib,
O‘z korini savobga yo‘yar:

Qorday oppoq so‘zlarni tutib,
Qora, quyqa ranglarga bo‘yar.

Kabutarday beozor kalom
Aylanadi zumda boyqushga...
...Oq so‘zini izlar beorom –
Kimdir zordir u boyoqishga.

Bu yoqda-chi, qoradil kosib
Qushlarini qo‘lma-qo‘l pullar.
Xaridorlar kelar munosib –
Qora so‘zga ishqiboz ular.

Yuraklari yig‘adi kuya,
Tomirlari tortar qora qon.
Ruhi – qora qushlarga uya,
Ongi – zog‘lar charx urgan makon.

Tunday qora, mubham qushlarni
O‘qday otar ko‘zlarga joylab.
Yaralaydi oppoq tushlarni,
Qorong‘ida o‘qrayar poylab.

Tipirchilar oq tilak nochor,
Oydin orzu potirlar halak:
Boyo‘g‘lilar cho‘qilab qochar,
Tashlanadi quzg‘unlar lak-lak.

Lek qo‘qqisdan to‘zg‘iydi zulmat,
To‘kiladi ko‘kdan oq kukun.
Yoziladi yerga oppoq xat –
Adolatli, charog‘on hukm.

Simurg‘ so‘zi –
Xolis, hur, odil:

Oq qanotli so‘zlar qutular.
Qora qushlar topmay murodin,
Qonga tashna bo‘lib quturar.

Qahri qo‘zib qaytar iniga,
Qora qismat xatin o‘qiydi:
Sodiq qolib qora ishiga,
Egasining ko‘zin cho‘qiydi!

«Ko‘rdim ig‘vo-bo‘hton yuqidan
yuzi qora bo‘lgan so‘zlarni,
shu so‘zlarning og‘ir yukidan
qaddi bukik qorako‘zlarni...»

«Yaxshiyamki, oftobdillar bor,
haqqa qalqon – mustahkam qoya.
Yuraklarga obkirgay bahor...
Shu haqida endi hikoya...»

## O‘N UCHINCHI SO‘Z: SAXIY

U saharlab chiqadi yo‘lga,
Cho‘ntagini so‘zga to‘ldirib.
So‘z tutar har uzangan qo‘lga,
Uylarga ham o‘tadi kirib.

Sado berar: «Kimga so‘z kerak?
Tarqataman beto‘lov, tekin.
Faqat uni qilmaysiz ermak,
Uni uvol qilmaysiz lekin».

Har bir so‘zga loyiq odam bor,
Kalima bor har kimsaga teng:
Kimgadir bir so‘z tuyilar tor,
Kimgadir bir so‘z keladi keng.

Kim ulushin himmatga yoʻyar,
Rozi boʻlmas kimdir oziga...
...Qandday shirin soʻz solib qoʻyar
Yigʻlayotgan bola ogʻziga.

Qatqaloq qalb yoʻliqsa tuyqus,
Soʻz quyadi suvday singguvchi.
Sovuq qotsa qay dilda tuygʻu,
Tomizadi soʻz – isitguvchi.

Koʻngli choʻkkan, siniqqan kimsa
Umidiga suyar tirgak soʻz.
Zimdan kimga xatar tikilsa,
Tuhfa qilar hushyor, sergak soʻz.

Yengil kaslar oʻpkasin bosib,
Zilday soʻz-la boylaydi poyin...
Soʻz uzatar, xullas, munosib –
Har bir soʻzning topadi joyin.

Soʻz ulashar kezib har yonni,
Qoldiradi yoniq soʻzli iz.
Shom mahali, boʻshab hamyoni,
Qaytib kelar uyiga soʻzsiz.

Rafiqasi soʻzdan choy damlab,
Yonboshiga qoʻyar soʻzyostiq.
Farzandlarin davraga jamlar,
Soʻzbezakli dasturxon yozib.

Yashar mehr, ishqqa qongancha,
Ahil, totuv, inoq yashaydi.
Oilasi bilan tonggacha
Yana yangi soʻzlar yasaydi!

«Ha, tanidim. Meni ham, oʻzi,
senga oʻsha saxiy ulashgan.
Koʻpayadi kun sayin Soʻzi –
zulmat yoʻlin toʻsuvchi lashkar...»

«Rost, tonmayman, ulgʻaydim durkun
shunday hotam insonlar bois.
Soʻz yoʻlida borarkan bu kun,
ularga bosh egmogʻim joiz...»

«Balli. Bu – hech ado boʻlmas qarz,
kamsuqumlik – oqil xislati.
Hammamizga boʻlgay achchiq dars
havolangan soʻzning qismati...»

OʻN TOʻRTINCHI SOʻZ: QISMAT
U kitobda tugʻildi avval,
Juda sokin, vazmin soʻz edi.
Xilvat joyni koʻrardi afzal,
Maʼno bilan yaqin doʻst edi.

Bir kun ilgʻab qoldi qay muxbir,
Gazetaga koʻchirdi sudrab.
Gʻunchaladi magʻzidagi sir,
Ayon boʻldi yashirin qudrat.

Nashrlarda boʻldi qoʻlma-qoʻl,
Maqoladan xabarga koʻchdi.
Qogʻoz uzra bosib uzoq yoʻl,
Qanot qoqib chopdi-yu... uchdi!

Toʻlqinlarga ilashib, qarang,
Chiqib oldi zangor ekranga.
Endi har kun sochadi jarang,
Tuslanishni qilmaydi kanda.

Usiz o‘tmas endi biror to‘y,
Biror aza, biror marosim.
Hali kelmay fikr, xayol, o‘y,
Ko‘rsatadi darrov qorasin.

Ulfatlari o‘ziday sergap,
Gap otadi, qilar tamanno.
Uni hech kim qo‘ymaydi tergab –
Allaqachon tark etgan Ma’no.

Ohori yo‘q siyqa libosi
Zo‘rg‘a yopib turar tanini.
Qo‘zg‘alganda eski ibosi
Eslab qolar kim ekanini.

Ayriladi shunda tinchidan,
Alamidan sochini yular.
Tushlarida... Kitob ichida
Ma’no bilan egizak yurar...

Biz ham So‘z-la egizak kabi
yo‘limizda etardik davom.
Ortda qoldi sahrolar – kabir,
ortda qoldi necha bir dovon.

Va... duch keldik nogoh majlisga,
anglamasdan qo‘shilib qoldik.
Berilgancha otashin hisga,
chaynar edi bir so‘zni notiq.

O‘tirardi yuzlab qorako‘z,
qilt etmasdan na tuk, na eti.
Evoh, notiq og‘zidagi so‘z –
o‘zgalarning saqichi edi...

O‘N BESHINCHI SO‘Z: SIR

Har oqshom shu:
O‘chganda chiroq,
Uxlayman deb kirsam o‘ringa –
Nimalardir o‘rmalar, biroq
Chiroq yoqsam, hech ne ko‘rinmas.

Yuguradi yuz, bo‘ynim bo‘ylab,
Goh qitig‘im, goh g‘ashim kelar.
«Nimadir bu?» – yotaman o‘ylab,
Xayolimga kelmaydi nelar.

«Nahot meni bosgan bo‘lsa bit?
Yo ko‘rpamda ko‘paygan burga?» –
Hamma yoqni qilaman tit-pit,
Xotinim ham izlaydi birga.

Natija yo‘q.
Har tun shu ahvol,
Uxlayman deb kirsam o‘ringa,
Nimalardir o‘rmalar, alhol,
Chiroq yoqsam, hech ne ko‘rinmas.

Va nihoyat, bir kuni chaqqon
Hamla bilan tutvoldim birin...
Shundan buyon qiynoqdadir jon,
Shundan buyon chaqadi sirim.

Axir, kimga aytayin buni,
Aytsam, tag‘in ko‘paymasmi gap?
Mayda urchib yotgan qayg‘uni
Yolg‘iz o‘zim qanday qilay daf?

Bo‘ldi, sabrim tugadi, do‘stlar,
Yengil tortay, sirimni aytib:
...Yuragimga yetmagan so‘zlar
Qulog‘imdan chiqarkan qaytib...

«Har bir odam asli So‘zsandiq,
umr bo‘yi so‘z yig‘ar inson.
Kimdir o‘lsa, bu – bitmas chandiq,
odam bilan so‘zlar berar jon...»

«So‘zdaryoga o‘xshar har elat –
millat to‘zsa, tili ham o‘lik...
Boshiga shum savdolar kelar...
Shu to‘g‘rida tingla bir o‘tuk...»[1]

O‘N OLTINCHI SO‘Z: KO‘MCHU[2]
Shahar cheti. Tush. Terlab-pishib,
Qadimshunos qiladi emgak[3].
O‘ra kavlar... Uning bu ishi
Kimlargadir tuyular ermak.

Kimdir kular: «Bu dalli odam
Yer tubidan izlaydi ko‘mchu...»
Parvo qilmas pichingga hech ham,
Avut-avut[4] tuproq elar u.

Avom gapi bo‘lmaydi evshuk[5],
Alinidan[6] oqar reza ter.

---

[1] O‘tuk – ertak, hikoya
[2] Ko‘mchu – xazina
[3] Emgak – mehnat
[4] Avut – hovuch
[5] Evshuk – to‘siq
[6] Alin – peshona, manglay

Moziy sari axtarar eshik,
Bag‘rin ochar unga Ona Yer.

Goh ivriqqa[1] duch kelar hayron,
Goh chiqadi sirli sirichg‘a[2].
Tasavvuri bilmaydi poyon –
Yetsam deydi olam siriga...

Tark etmas hech qalbini tamkin...
...O, izrikka[3] tegdi cho‘kichi.
Ulkan ukak![4] Egildi tarkin[5],
Ochdi: so‘zga to‘ladir ichi!

Tovlanardi ukil[6] kalima,
Tovlanardi besado tilsim.
Qadimshunos lol edi...«Nima,
Yo‘qotdingmi, ey odam, tiling?!»

Sado berdi uzug‘[7] So‘z nogoh:
«Rahmat senga, ey sodiq sag‘dich[8].
Yutgan edi bizni tubsiz choh,
Yotgan edik bezovta, notinch...

Aslida-chi, na tas[9], na armon,
Bilmas edik – shonimiz ulug‘.

---

[1] Ivriq – ko‘zacha
[2] Sirichg‘a – shisha
[3] Izrik – qattiq narsa
[4] Ukak – sandiq, tobut
[5] Tarkin – tez, darrov
[6] Ukil – ko‘p
[7] Uzug‘ – hushyor
[8] Sag‘dich – do‘st, o‘rtoq
[9] Tas – yomon, past narsa

Eltar edi bizni zo‘r karvon,
Har tevada – bebaho ag‘ruq[1].

Yo‘l bosardik aqrin[2] va tekis,
Yo‘l bosardik xotirjam, bedard.
Bilar edik – yo‘limiz cheksiz,
Ortimizda qolib sonsiz art.[3]

«To‘xtang!» – dedi bir kun qulavuz[4],
Ko‘p yo‘l yurdik, tiklang alachu[5].
Bunda birpas o‘ynab-kulamiz,
Bitganmi hech yo‘lning chalasi?!»

Oyoq ildik. Ochildi xumlar,
Bir lahzada bo‘ldi el esruk[6].
Go‘yo ozod bo‘lgan mahkumlar
Yelkasidan tushgan kabi yuk.

Navolandi quvnoq ikama[7],
Ko‘ngillarda mastona o‘rkuch[8].
Maslagini unutdi hamma,
Asir etdi makkor kundi[9] kuch.

---

1 Ag‘ruq – yuk, mol
2 Aqrin – sekin
3 Art – dovon
4 Qulavuz – yo‘lboshlovchi
5 Alachu – chodir, boshpana
6 Esruk – mast-sarxush
7 Ikama – bir turli cholg‘u
8 O‘rkuch – mavj, to‘lqin
9 Kundi – past, razil

Va o‘rtada qo‘pdi zil irtash[1],
Guvazlikdan[2] buzildi kudan[3]...
Quyun qo‘pib, quturdi-ku dasht,
Go‘yo devlar qalqdi uyqudan.

Ostin-ustin bo‘ldi archilar,[4]
Hammamizni yamladi tublu[5].
Holimizga kim ham achinar –
O‘g‘an Ezi[6] jazosidir bu.

Ko‘kka uchib ketdi tinimiz,[7]
To‘zg‘ib ketdi bebaho o‘kma[8].
Uyukti[9] suyukli tilimiz,
Sumlimlarga[10] to‘ldi bu o‘lka.

Shukr, yana yorishdi o‘zlak[11],
Yana chiqdik jumla – jahonga.
Ujuk-ujuk[12] tirildi so‘zlar –
Vujudimiz qovushdi jonga...»

Qadimshunos lol edi hanuz,
Abaqiday[13] turardi qotib.

---

[1] Irtash – talashish, tortishuv
[2] Guvazlik – taltayish, mag‘rurlanish
[3] Kudan – ziyofat
[4] Archi – to‘rva
[5] Tublu – go‘r, qabr
[6] O‘g‘an Ezi – Qodir Xudo
[7] Tin – ruh, jon, nafas
[8] O‘kma – to‘planma, jamlanma
[9] Uyukti – ko‘mildi, botdi
[10] Sumlim – turkiycha bilmaydigan kishi
[11] O‘zlak – zamon
[12] Ujuk – hijo, bo‘g‘in
[13] Abaqi – ko‘z tegmasin uchun qo‘yiladigan poliz qo‘riqchisi

Quyosh – eski tilla tanga tus –
Alvon koʻlga borardi botib...

Bir sandiq soʻz – koʻhna oʻrunchaq[1],
O, kimlarga, oling, deb tutdi.
Qiziqmadi hech kimsa uncha,
Soʻng... ularni bittalab yutdi.

Shundan buyon bu moʻlak[2] odam
Mungʻan[3] boʻlib, sayraydi biyron.
Garchi uni tinglasalar ham,
Tushunmaydi birorta inson...

«Qancha soʻzlar bor edi chapdast,
tildan tilga uchar edilar.
Savlat toʻkib turarkan gapda,
safdoshini quchar edilar...»

«Bugun-chi, yoʻq, bermaslar sado,
umrlari topmish nihoya.
Tannoz soʻzlar qildilar ado...
Shu haqdadir gʻamgin hikoya...»

## OʻN YETTINCHI SOʻZ: GʻAMGIN HIKOYA

Birga oʻsdi ikki jondosh soʻz –
Yaralgandi bitta oʻzakdan.
Tutindilar qiyomatli doʻst,
Yasholmasdi ayri, uzoqda.

---

[1] Oʻrunchaq – omonat
[2] Moʻlak – tinch-ogʻir kishi
[3] Mungʻan – sergap, ezma

Bog‘lab turar edi bitta son,
Bitta turkum, bitta kelishik.
Arazlashib qolsalar, oson
Ketardilar darrov kelishib.

Bir jumlada chopib izma-iz,
Zichlar edi ma’no ta’sirin –
Ayiruvchi so‘zlar kelsa, tiz
Cho‘kmay, birga berib ta’zirin.

Sirlashardi sahifa bo‘ylab,
Kezar edi mudom juft soya.
Yashardi bir maslakni o‘ylab,
Sof do‘stlikni qilib himoya.

Ammo bir kun o‘zga lisondan
Kirib keldi bir satang kalom.
Biri ko‘rib qoldi… Shu ondan
Oromini yo‘qotdi tamom.

Endi tez-tez hamrohini u
Chalg‘itgancha etar edi tark.
Tanho o‘zi simirib qayg‘u,
Bo‘lar edi anduh ichra g‘arq.

Tushunmasdi sherigi sira,
So‘z so‘rasa – siniqardi jim.
Ahvolini o‘ylab, xavfsirab,
Pinhon yerdi u ham ich-etin…

Bir kun tamom yo‘qoldi do‘sti,
Izladi zor: qayda, kim bilar?
Mash’um mish-mish yo‘lini to‘sdi:
Qochib ketmish satang So‘z bilan!

To‘rt tomonga yoyildi g‘iybat,
Shum kulgilar bag‘rini ezdi.
Chidolmadi, qiynalib behad,
So‘roq (?) bilan tomirin kesdi.

U yoqda-chi, makkora tannoz
So‘rib oldi oshiq jonini.
So‘ng tap tortmay, kechib ketdi voz,
Gapga ko‘mib ustuxonini.

Shundan buyon ko‘nikdi barcha,
Ikki sirdosh beiz yo‘qoldi...
...Bizning esa sharmandalarcha,
Kunimiz shu satangga qoldi...

Kuldim: «Og‘ir muhabbat dardi –
u so‘zning ham olarkan esin...»
«Muhabbat shu bo‘lsa agarda,
uni qashqir, bo‘rilar yesin!»

Qalqib tushdi yo‘l yoqasida
qo‘l ushlashib turgan yigit-qiz.
Visol-hijron chorrahasida
so‘zlashardi yuzma-yuz, unsiz...

O‘N SAKKIZINCHI SO‘Z: OMONAT
– So‘z ber menga,
Bergil menga so‘z! –
Javdiraydi bir o‘ksik nigoh,
Javdiraydi o‘tinch to‘la ko‘z,
Ne deyishni bilmayman men, oh.

Nima qilay?
Qanday chora bor?

Qay puchmoqqa bekitay o‘zni?
Axir, qayta topmog‘im dushvor –
Yo‘qotganman u bergan So‘zni...

Dilni ezdi ushbu tillashuv,
o‘n soniya zo‘rg‘a kuzatdik.
Yo‘limizdan chiqqan so‘zni shu
yigit bilan qizga uzatdik.

«Ko‘p yo‘l yurdik, qolmadi mador –
tuz totmadik, zaiflashdi jon...»
«Zap pazanda bir tanishim bor,
bizni siylab, qilgay u mehmon...»

O‘N TO‘QQIZINCHI SO‘Z: PAZANDA
U bozorga borar ertalab,
Yangi, barra so‘z sotib olar.
So‘ng qozonga so‘zdan o‘t qalab,
Eng mazali so‘zlarni solar.

So‘z qaynaydi uzoq biqirlab,
Har bitta so‘z go‘yo sayraydi.
Pishgach, unga tekkizsangiz lab,
So‘z ta’midan ko‘ngil yayraydi.

So‘ngra sarxil so‘zlarni solib,
Banka yopar – yeydi qish g‘amin:
Qahratonda so‘z-sassiz qolib,
Gung misoli g‘o‘ng‘illar zamin.

Tayyorlaydi so‘zlardan qoqi,
Muzxonaga g‘amlaydi mo‘l-ko‘l.
U biladi, bir kun yutoqib,
Hamma unga uzatadi qo‘l.

Shaksiz, siz ham ochiqib rosa,
Tashnalikdan taningiz idrab –
Uzatasiz unga bo‘sh kosa,
Umid bilan, qo‘lingiz titrab.

Shunday ekan, toki fursat bor,
Ko‘maklashing beg‘araz, tekin:
So‘zni asrang… Yana hosildor,
Toza navli so‘zlarni eking.

Hech bo‘lmasa, uning boshida
Zulmat bo‘lib qilmang qorong‘u.
Sham yoqay deb ketsa, oshiga
Yeng uchida qotmangiz og‘u…

«O‘ylab ko‘rsam, yoshlik chog‘imdan
Hayot meni siylabdi tamom.
Lekin o‘zim dil o‘chog‘ida
pishirdimmi bir shirin taom?

Hech bo‘lmasa, zo‘r pazandaga
obkeldimmi biror masalliq?
Menday lavang bir arzandaga
kim beradi endi tasalli?»

O‘ylarimni ilg‘aganday jim,
yetgan kabi tilsim-asrorga –
go‘yo oshkor bo‘lganday ko‘nglim,
So‘z boshladi meni bozorga…

YIGIRMANCHI SO‘Z: SO‘ZBOZOR

Qizib yotar ko‘hna so‘zbozor
Yaxshi-yomon so‘zlar cho‘g‘idan.
Oluvchidan sotuvchi bisyor –
Bir-birini tinmay cho‘qigan.

Kimdir olib chiqqan o‘z so‘zin,
Bir burchakda sotadi halol.
Ayyorona qisgancha ko‘zin,
Paydo bo‘lar yonida dallol.

Olibsotar kaslar bor yana,
Darrov ilg‘ar, yetar qaydan naf.
Jag‘i bilan – sotar chakana –
Yirik so‘zni mayda-maydalab.

Kun ko‘radi so‘zbo‘yamachi
Safsataga yorliqlar taqib.
Garchi bilar, holi ayanchli,
So‘zsinchilar qiladi ta’qib.

O‘g‘rilar-chi, kezar chekkalab,
Kuppa-kunduz chiqishgan ovga.
O‘zgalarning so‘zini talab,
Pullab qochar arzon-garovga.

Sara, asil so‘zlar bor… Jilo
Sochar oltin, olmos misoli.
Kimdir xarid qilar yuz kilo,
Kimdir zo‘rg‘a olar misqolni.

So‘z bozori qiziydi, toki
Ohanrabo so‘zlar bunda jam.
Xaridorin topar hattoki
Chirib-aynib ketgan so‘zlar ham.

So‘zfurushmiz hammamiz, ha, rost,
(Yo‘q, deb elda kulgi uyg‘otmang)
Faqat, sizdan bitta iltimos:
«Vatan» so‘zin hech qachon sotmang!

«Mol sotadi savdogar dunyo,
narx qo‘yadi kaftin ishqalab.
Qarg‘ar kimki boqmasa qiyo,
mozoriga pishiq g‘isht qalab.

Lekin dunyo rastalaridan
yuksakroqda oliy so‘zlar bor.
Ozod – egri dastalaridan,
ko‘rgay uni kim bo‘lsa Bedor...»

«Ha, bu – bor gap, – dedim men xushhol, –
El-u ulus guvoh bo‘ldi, do‘st:
yuraklarni qildi-ku ishg‘ol
shiddat bilan ko‘chgan Bedor So‘z...»

YIGIRMA BIRINCHI SO‘Z: BEDORLIK
Jarangladi birdan Bedor So‘z,
Turg‘un so‘zlar tinchini buzib:
«Keng dunyoga ochajakmiz yuz,
Berk lug‘atni oshkora tuzib.

So‘zdan qo‘rqsa so‘zlar, bu – dahshat,
So‘zlar yesa bir-birin mag‘zin;
So‘z oldida qaltirab-qaqshab,
G‘oyib bo‘lsa so‘zdagi mazmun…»

So‘zlar qalqdi: Hurlik, Adolat,
Yangilanish, Tashabbus, Bardosh,
Fidoyilik, G‘ayrat, Sadoqat,
Do‘stlik, Shafqat, Oqibat, Qardosh…

G‘ijinsa-da xoin, kir so‘zlar:
Hasad, Qullik, Loqaydlik yanglig‘ –
Tilin yog‘lab, dilin xaspo‘shlar,
Sezar – xufya rejasi yanglish.

Hukmfarmo loflar bor chetda,
To‘zg‘itsam der inoq jumlani:
O‘z g‘oyasi bo‘lsa har betda,
Sarlavhani u qo‘ysa ya’ni…

Ming shukrki, Azal Kotibi
Har biz so‘zni qo‘yar joyiga.
Kimki riyo mayin totdimi –
Tiz cho‘kadi Mantiq poyiga.

Tinim bilmas bir zum Bedor So‘z,
Azon aytar, chalar qo‘ng‘iroq.
U biladi: yumildimi ko‘z,
Manzil qochar tobora yiroq.

Ildamlaylik!
So‘z dovonida
Ko‘kka yondosh xitob bo‘laylik.
Kitoblarning hur javonida
Qadri baland Kitob bo‘laylik!

«Bunday oliy Kitobda bitik
bo‘lmoq uchun arzish shart, beshak».
«Buning uchun ne lozim?»
«Biqiq
qoliplardan qutulmoqlik shart!

Hur so‘zlardan tizilsin jumla,
fikr bo‘lsin riyodan xoli –
ozod so‘zlar tuzsin anjuman,
hukm bo‘lsin samimiy, xolis…»

YIGIRMA IKKINCHI SO‘Z: OZOD SO‘Z
U tutilar shunday, tuzoqsiz,

Ichdan chorlang – kelar har kuni.
Na izohli va na izohsiz
Lug‘atlardan topgaysiz uni.

Ozod so‘z u – biror kimsa yo
Narsalarga bandi bo‘lmagan.
Tashviqotdan tashqari dunyo,
Qizil rangga bangi bo‘lmagan.

Navoiyga yukingan, beshak,
Koshg‘ariyning o‘pgan izini.
U – Boburning tojida bezak:
Hur ruhlarga berar tizginin.

Siz ham erkin olsangiz nafas,
Tilingizdan yechilsa tushov,
Qo‘lingizda bo‘lmasa qafas,
Poyingizda to‘zg‘ib ketsa g‘ov –

O‘z-o‘zidan bo‘ladi paydo,
Tegrangizda aylanar gir-gir.
Go‘yo sizga bo‘lgan-u shaydo,
Qo‘nsam deydi qoshingizga bir.

Yo‘q, haydamang, dam olsin birpas,
Hali ezgu safari uzoq.
Ozod bo‘lsa qayda bitta shaxs,
Huzuriga uchgaydir shu chog‘.

Hozircha siz zavq oling undan,
Hurligini qiling tomosha.
Boshqalarni ham shunga undang,
Ko‘zingizdan hayratlar tosha.

Boshingizga qo‘ngan Humo – shu,
Baxtingizdan bermish u nishon.
Demak, sizni yamlamabdi shum
Qora ro‘zg‘or… ey ozod Inson!

Men his etdim, nima uchun So‘z
olib chiqmish meni safarga –
u istaydi: mendagi kam-ko‘st
yitsin, kiray masrur saflarga…

«Ha, yetibsan niyatim anglab,
borliq maqsad bilan tirikdir.
Endi pishiq so‘zlarni tanlab,
o‘zing uchun bir libos tiktir…»

YIGIRMA UCHINCHI SO‘Z: LIBOS
So‘zdan tikmish o‘ziga libos,
So‘z kiyadi doim… Qiyini,
O‘zgarsa-da bahor, qish, kuz, yoz –
O‘zgarmaydi uning kiyimi.

Bir libosda to‘zg‘itib borar
Xuruj qilgan vaqtning lashkarin:
Ochiladi tusi tobora,
His qiladi ko‘rkamlashganin.

Tegrasida odamlar tez-tez
Yangi chiqqan so‘zlarni qiyib
(Tuslanishni qo‘msab qolgan kez),
O‘zlariga bicharlar kiyim.

U biladi barini zimdan:
O‘tar ekan xaloyiq aro,

Kulib qolar ortidan kimlar,
Egnin qoqar – qilmaydi parvo.

Ta’sir qilmas omma bosimi,
O‘z yo‘lidan boradi tikka –
Egnidagi yolg‘iz libosin
Xudo bergan so‘zlardan tikkan.

Shu boisdan avaylar juda,
Shu sababli qilar ehtiyot:
Tanishlari so‘rar – behuda…
Orzu qilmas, hatto yetti yot.

Chunki jondan so‘ralganda boj,
Chorlaganda Tangri imosi,
Hamma qolgay nochor, yalang‘och –
Yashnab turar uning libosi!

«Qoyil! – dedim. – Yuz bora qoyil!»
Yana tilim biyron so‘yladi!!
«Ulkan baxtga bo‘lding sen noil,
so‘zdan endi hatto ko‘ylaging!»

«Sen-la safar bo‘ldi maroqli.
Rahmat…» «Sen ham baxtga bo‘lgin yor.
Yaqinlashdi manzil-marohil,
yo‘l so‘ngida ne tilaging bor?»

YIGIRMA TO‘RTINCHI SO‘Z: UY
Menga shinam uy qurib bering,
Metin so‘zdan qo‘yingiz tamal.
Pishiq so‘zni g‘isht kabi tering,
Shoh bayt kabi bo‘lsin mukammal.

Nafis tashbeh bo‘lsin gulqog‘oz,
Timsollardan yasalsin ustun.
Qofiyali ayvon bo‘lsa – soz,
Ma’no bilan yopingiz ustin.

Uyim bitsa, ko‘zlarim porlab,
Tomirimda so‘zday oqur qon.
Do‘st-u yorni mehmonga chorlab,
Shirin so‘z-la qilgayman mehmon.

Balki bu so‘z kimgadir yoqmas,
Balki g‘alat tuyilar fe’lim:
«Uy ko‘rdi»ga buyum-matohmas,
Biror yangi So‘z olib keling!

Adashsangiz, bo‘lmang betoqat,
Yo‘l ko‘rsatgay uyim bilganlar.
Manzilimni topgaydir faqat
So‘zga xolis xizmat qilganlar!

Xayrlashdik So‘z bilan uzoq,
har kim aytdi dildagi rozin.
U jilmaydi: «So‘rasang, shu chog‘
yuragimda bor bitta orzum.

Yolvoraman So‘z Me’moriga –
xayolimda yo‘q boshqa xohish –
sen tilagan Uy devorida
bo‘lib qolay men ham bitta g‘isht!»

Hayajondan dil qalqdi yakbor –
hayratlandim So‘z tilagiga.
U menga qo‘l silkib so‘nggi bor,
tushib ketdi ko‘nglim tagiga.

Koshki yana u bilan qolsam –
u oʻzimni qaytarib berdi:
oh, qay soʻzni tilimga olsam,
«Shukr» boʻlib jaranglar endi!

OXIRGI SOʻZ: SHUKR
Soʻz Sohibi,
Azal Kotibi,
Dil tubiga tushdi qatim nur.
Bir soʻz ila qilgum xotima:
Shukr, shukr va yana shukr!

Yayrab sezdim soʻzning ta'mini,
Soʻzdan libos kiydim-ku bir qur:
Raso qilding egri ta'bimni –
Shukr, shukr, oʻn bora shukr!

Anglab yetdim:
Har bir soʻz – tirik,
Chigʻanoqda bekinganday dur,
Ma'nosini avaylar tiniq…
Shukr, shukr, yuz bora shukr!

Kengaymoqda koʻzim gavhari,
Soʻz tubiday qarogʻim chuqur –
Ishqing bilan toʻlmoqda qa'ri…
Shukr, shukr, ming bora shukr!

Ozod soʻzga hamroz aylad ing,
Raqs-u samo qildim soʻz-la hur.
«Shukr» degan soʻzga aylandim –
Shukr, shukr, toabad shukr!!!

*G‘ayrat Majid*
*(1976-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

Manim oftoblarim, manim oylarim,
Toshbitigim – O‘rxun-Enasoylarim.
Faqat yuragimga ayon o‘ronim,
Ona tilim – jonim O‘zbekistonim.
Bu jahon ichinda bir jahon tilim,
Otajon tilimdir, onajon tilim.
Olis-olislardan kelgan dardlarim,
Mahmud Koshg‘ariydan meros xatlarim.
Olam aro mening shajaram, ko‘rkim,
Ildizim – «Devoni lug‘otit-turk»im.

Ruhim eshigini kelgaydir ochib,
O‘n asr naridan Yusuf Xos Hojib.
So‘zlar ganji birlan to‘qdir iligim,
«Qutadg‘u bilig»dir qutlug‘ biligim.
Ne uchun toliblar bo‘lmasin zakiy,
O‘zi til o‘rgatsa Ahmad Yugnakiy.
Haqning tuhfasiga tom loyiqdir ul,
Anglasang, «Hibat ul-haqoyiq»dir ul.
Payg‘ambar hadisi – ne’matlarga boq,
Undan bahra olgan hikmatlarga boq.
Kim Ahmad Yassaviy so‘zini bilmish,
Haqni, Rasulini, o‘zini bilmish.

Bizlarga Tangrining atoyi – tilim,
Mavlono Lutfiy-u Atoyi tilim.
Bitgaydir ichimni toʻldirgan hasrat,
Tavajjuh qilsalar Navoiy hazrat.
Bori tillar ichra rutbam tayindir,
Bu «Muhokamat ul-lugʻatayin»dir.
Qoʻlimdan qoʻymayman «Boburnoma»ni,
Vatanga muhabbat – taqdir nomani.
Yuragimga yuqqan dard-ohi bilan,
Hayotim nurlidir Ogahiy bilan.
Oshiq dil maqsud-u matlabi undan,
Tarjima san'atin maktabi undan.
Vatan, til mangudir, kishi bor – oʻtar,
Qay dilda shu soʻz bor – u Avaz Oʻtar.
Vosita, robita, olamiyon – til.
Bani odamga jon, foidali kon – til.

Daraxtdan uzilgan yashil barglarim,
Oh, juvonmardlarim – juvonmarglarim.
Hayotim toʻlagan oʻlponlarimdir –
Fitrat-u Qodiriy, Choʻlponlarimdir.
Millatning, Vatanning joni til bilan,
Shuhrati, shavkati, shoni til bilan.
Hayot yoʻli bizga oyina – ibrat,
Behbudiy, Sidqiy-u Is'hoqxon Ibrat.
Bildim, iymon uchun zoʻr qoʻrgʻon – tilim,
Yoʻlim ham, dilim ham charagʻon tilim.

Tilga xiyonatni kechirmaydi dil,
Elga xiyonatni kechirmaydi el.
Tilga sadoqat bu – elga sadoqat.
Elga sadoqat bu – tilga sadoqat.

Manim mahshargacha ravon yo'lim bu,
Olam ayvonida mangu tilim bu.
Yuragim tarannum etgan bayotman,
Ona tilim bordir, men barhayotman.

## DA'VAT

Til – bobom,
Til – momom,
Til – otam,
Til – onam,
Til – bolam.
Ikki ko'zi ko'r bo'ladi odam,
Bobosini asramasa.
Peshonasi sho'r bo'ladi odam,
Momosini asramasa.
Past bo'ladi, yer bo'ladi odam,
Otasini asramasa.
To'ng'iz bilan bir bo'ladi odam,
Onasini asramasa.
Yashamaydi, yo'q bo'ladi odam,
Bolasini asramasa.

*Tursunoy Yo‘ldosheva*
*(1976-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

Oltin beshik ichra tatigan bolim,
Onam zikridagi baxt iforisan.
Ilk eshitgan so‘zim, so‘rgan savolim,
Ilk qo‘shiq, ilk sevgim chertgan torisan.

Sino, Zamaxshariy, Xorazmiy yodi,
Atoiy nuktasi, Lutfiy bayoti.
Ulug‘bek faryodi, Bobur hayoti.
O‘zbegim o‘zligi, tog‘ viqorisan.

Runiy bitiklarning qatidagi sir,
«Devon»ing kimlarni etmadi asir.
«Qutadg‘u bilig»im – bebaho qasr,
Tillo g‘ishti, marmar poydevorisan.

Temur tuzuklarin maftuni olam,
Navoiy nazmida lutfi jahon jam.
Hatto sultonlarga tutqazgan qalam,
Yassaviy hikmati madadkorisan.

Nodira nazmiga navolar tutding,
Zulfiyalar so‘zin halvolar etding.
Shodlansak shodlanding, qon yutsak yutding,
Ko‘ngil tarjimoni, Tanovarisan.

Zamona zo‘rlari yiqolmaganim,
Dam tuyib, gohida uqolmaganim.
Xo‘rlab toptalsa ham yo‘qolmaganim,
Samandar sifatli sarbadorisan.

Qodiriy qismati qaqshatgan jonim,
Tonglarni bo‘zlatgan Cho‘lpon, jahonim.
Usmonim – Sibirlar muzlatgan qonin,
Sabridan yashargan navbahorisan.

Bodom gullaridan changlangan she’rim,
Dehqonim, bog‘bonim, manglayi terim.
Saxiy quyoshim u baxt, najot yerim
Giyohidan tomgan sharbatdorisan.

Erkin Vohid bilan olam yaratding,
Abdullalar bo‘lib dovruq taratding.
Yusufiy kalomlar – jannati atring,
Qaddini tiklagan el qarorisan.

Bugun olamga tik boqadi o‘zbek,
Zafar tug‘in ko‘kka taqadi o‘zbek.
Sen borsan, jahonga chiqadi o‘zbek.
Omad ko‘zmunchog‘i, baxt tumorisan,
Ona tilim, millat g‘urur-orisan.

## *Guljamol Asqarova*
## *(1978-yilda tug‘ilgan)*

### O‘ZBEKISTON MADHI

Vodiyi kelindek nozlangan yurt bu,
Vohasi kuyovdek otlangan yurt bu.
Manglayiga zardan zarhallar solib,
O‘zbekka Xudodan xatlangan yurt bu.

Otamning ko‘ksidek baland Surxonim,
Ona Samarqandim – qadim qo‘rg‘onim.
Bobur hasrati-yu sog‘inchi bo‘lgan,
Odamlari jondek jon Andijonim.

So‘lim Farg‘onaga salomlar bo‘lsin,
Namanganga dilbar kalomlar bo‘lsin.
Yurtga podshoh bergan Qashqadaryoning,
Yuzi yorug‘ bo‘lsin, boshi tik bo‘lsin.

Sirdaryo labida sirlar ko‘rarman,
Buxoro bag‘rida pirlar ko‘rarman.
Yoz-u bahoringdan aylanay yurtim,
Jizzaxda baxmaldek qirlar ko‘rarman.

Kim kelsa, boshini silagandir u,
Buyuklarga iqbol tilagandir u.
Boshida ulug‘lab Qoraqalpoqni,
Poyi ham taxt bo‘lgan go‘zal Toshkent bu.

Xorazmda xonlar izlari bordir,
Parkentning parivash qizlari bordir.
Yangi xonadondek go‘zal Navoiy,
Senda Hazratimning ko‘zlari bordir.

Mangu zafarlarga otlangan yurtim,
O‘zbekka Xudodan xatlangan yurtim.
Belin belbog‘ quchgan Bobodehqonim,
Shonli zafar quchgan O‘zbekistonim.

Baxtga safarlaring muborak bo‘lsin,
To‘y-u zafarlaring muborak bo‘lsin.

* * *

Men dunyoga taratib ketgum,
Silkib-silkib qalbim atrini.
So‘ng bag‘rimga bosib o‘larman,
Nodiraning mahzun satrini.

Tanitgaymu mening she’rlarim,
Elatimga yagona Haqni.
Uziqlarin ulolamanmi,
Halqalari uzilgan xalqni.

Derlar menga: «So‘zlar ganjidan,
Xayolingdek bir hur kitob tuz».
Ayting axir topa olamanmi,
OZODLIKdek bitta ozod so‘z.

«Tuproqdayin muztar bo‘l» derlar,
Os(i)monlik istamaymanmi?
Ko‘z yoshimdan loy bo‘lsam bir kun,
O‘z xalqimga sachramaymanmi?

Bu o‘zimdan gumonim emas,
Da’voyim yo‘q hech bir satrimdan.
Ezgulikka chorlasam agar,
Ergasharmu shu xalq ortimdan.

Men tuproqqa ketgayman singib,
Ruhimni xalq bilan qormasam.
Xalq demayman o‘z xalqimni ham,
Meni HAQqa olib bormasa!

## *Shodi Otamurod*
## *(1978-yilda tug'ilgan)*

### MUNOSABAT

Til bilgan yaxshi-yu, bilmas yomondir,
Tilni unutganlar rangi somondir,
Jonimga payvasta tilim omondir,
Endi qaytib ko'rmas sobiq zamonni.

Baxmal qirlariga ketdi o'ylarim,
Yaylovga yarashgan qo'zi-qo'ylarim,
Itlardan xolidir aziz joylarim,
Arvohlar qaytarar endi yomonni.

O'zbekcha so'z berib madhiyasiga,
O'zbekcha tushungan mohiyatiga,
O'zbekcha kuladi askiyasiga,
Kezsangiz vodiyni, voha tomonni.

Sergak bo'ladirman ona tilimda,
Xushhol bo'ladirman ona tilimda,
Tushlar ko'radirman ona tilimda,
She'rdek hadya qilar tunlarim tongni.

O'zining qo'li bor yaratay desa,
O'zining yo'li bor yuritay desa,
O'zining tili bor gar na'ra tortsa,
Tinch qo'ying o'zbekni, O'zbekistonni...

## ONA TILIMGA

Otamning merosi, tilim, o‘zingsan,
Onamning siymosi, tilim, o‘zingsan.

Millatning ma’nosin topganman sendan,
Hurriyat havosin totganman sendan.

O‘rxun-Enasoyda ko‘z ochgan tilim,
Ilk bor Koshg‘ariyga yuz ochgan tilim.

Qadim bitiklarga yetgan ildizing,
Ko‘kda yaraqlagan bugun yulduzing.

Quvvatga to‘lmog‘ing Navoiydandir,
Dilga tug‘ bo‘lmog‘ing Navoiydandir.

Hazratning nazmidan to‘kilgan durlar
Mangu xazinangga baxsh etgan nurlar.

Quyoshdek balqiding fikr, onglarda,
G‘olib o‘tmoqdasan asriy janglardan.

Boburning jomida so‘z jarangi bor,
Munis ohang birla ajib rangi bor.

Mashrabim so‘z bilan haqning zorimi,
Shoirni chorlagan so‘zning dorimi.

Nodira to‘xtamas nega yig‘idan,
Qoni to‘kilganmi she’rning tig‘idan.

Sen ulkan kemasan so‘z ummonida,
Gavhar tersam qani dil xirmoniga.

Yuragimning ko‘rkam libosi, o‘zing,
Ma’nosi, navosi, a’losi o‘zing.

Bolam davom aylar ota so‘zimni,
Sensiz bosolmagay mening izimni.

Tilim, sen xalqimning shamchirog‘i bo‘l,
Uyg‘onsin, beshikning qo‘ng‘irog‘i bo‘l.

*Shoira Shams*
*(1978-yilda tug‘ilgan)*

## TURKIY TILIM

Lutf-u zabon-u zevarim – turkiy tilim,
Munisginam, gah muztarim – turkiy tilim.

Har uni-yu, har na’rasida o‘zligim,
Iso kabi jonparvarim – turkiy tilim.

Mulki bashar tarixida davring qadim,
Ming yillaridan so‘ylarim – turkiy tilim.

Sen Irq toshi naqshida afsonalig‘,
Yovqur elim, toji sarim – turkiy tilim.

Ildizlaring to Dashti Qipchoqdin kelur,
Soson-u Kushon kishvarim – turkiy tilim.

To‘qson ikki qavm ichra barhaq rishtadir
Har qorako‘zda javharim – turkiy tilim.

«Alchin», «ag‘ir», «barlos»-u «burqut», «qo‘ng‘irot»,
«Nayman», «nukus»dek gavharim – turkiy tilim.

Sen – Koshg‘ariy, sen – Yugnakiy, sen – Yassaviy,
Xoqoniyam, ham Koshg‘arim – turkiy tilim.

Movaroun-nahr-u yana Afrosiyob
Mulki kalomi dilbarim – turkiy tilim.

Lutfiy, Atoyi dog‘i Sakkokiy tili,
Abyoti bol-u shakkarim – turkiy tilim.

So‘z mulki sultoni Navoiy lahjasi –
Layliga eltar sarvarim – turkiy tilim.

Boburki, sendin kechmadi to so‘nggi dam,
Anduhi senda, bovarim, turkiy tilim.

Bulbul maqomiga ravo Munis bila
Ogahidek shoyistarim – turkiy tilim.

Bir-bir desam, bo‘lmas adosi tarixin,
Davr ustuniga zargarim – turkiy tilim.

Shoira sen birla samo raqsidadur,
Parvoz etarga shahparim – turkiy tilim.

## *Faxriddin Hayit*
## *(1980-yilda tug‘ilgan)*

### ONA TILIMGA

Koshg‘ariy lutf qilgan tabarruk kalom,
Temur tuzuklarda muhr etgan ma’ni.
Sen Arshdan inoyat, moziydan in’om,
Navoiy bog‘isan, Bobur chamani.

Qodiriy ko‘zida qalqib turgan mung,
Fitratning qalbida uyg‘ongan isyon.
Behbudiy dardini so‘zga solgan sen,
Cho‘lponning ko‘ksida porlagan cho‘lpon.

Millat tili – nomus, millat tili – sha’n,
Ruhimni olovga toblab turgan kuch.
Seni ranjitganlar – yon bermas dushman,
Qancha yog‘iy bo‘lsa, menga kelsin duch!

Endi toshlargamas, ko‘ksimni yorib,
Yurakka yozaman mangu bir bitik.
O, onajon tilim, manglaying yorug‘
Asrlar qaddingni rostlab turar tik.

Dunyoda elat ko‘p, til ko‘p shu qadar,
Hech kimdan arzim yo‘q, e’tirozim yo‘q!
Siyoh qurib bitsa, olamda agar
Seni qonim bilan aylayman qutlug‘!

## KAKLIKLAR TILI

Yoyayin deb kakliklarimning
Tor qafasda zerikishini.
Qo‘yib berdim eski xonishin
Qay daralik qarindoshining.

Bir lahzada o‘zgardi tusi,
So‘ng hofizdek sozladi nafas.
Xush ovozga jo‘r bo‘ldi qushim,
To‘rt tarafga taraldi qo‘sh sas.

Bol tomsin-ay mangu tilingdan,
Dilbar qushim, ey yuragi hur!
Or qilmaysan kaklikligingdan,
Sadoqating uchun tashakkur!

Bo‘g‘zim kuygay, alam bosar cho‘g‘,
Shundaylar bor – insondir nomi:
O‘z eliga sadoqati yo‘q,
O‘z tiliga yo‘q ehtiromi.

## HALOVAT BOR NAVOIYDA

Baxt-u tole, iqbol oni –
saodat bor Navoiyda.
Topguvchi Arshi a’loni
ibodat bor Navoiyda.

Kel, ey mayxo‘r, may ichgali,
ne g‘amdan kuydi ichkari?
Qulfi dilingni yechgali
sinoat bor Navoiyda.

Kiprikda yosh moviy halqa,
yuzlaringni silar qalqa,
Muddaoying yetar Haqqa,
salovat bor Navoiyda.

Odamga xos libosdir so‘z,
olamga iqtibosdir so‘z,
Borligingga asosdir so‘z,
dalolat bor Navoiyda.

Nedur asli gavhar-u dur,
dunyoda kim topgay huzur?!
Oftob bo‘lib taratgay nur,
harorat bor Navoiyda.

Esh bo‘l, hafz-u sabog‘iga,
sherik aylar savobiga,
Yetib bo‘lmas adog‘iga,
muruvvat bor Navoiyda.

Faxri telba, dema, baskim,
oqib daryo bo‘lur ashkim,
Ko‘ngil tug‘yoniga taskin,
halovat bor Navoiyda.

*Shodmonqul Salom*
*(1980-yilda tug'ilgan)*

## EHTIROM

Ildizdagi tuyg'udan yaproqlarim titraydi,
Tog'da jim erigan qor soylarda sharqiraydi,
Bobom bo'g'zidagi «oh» ko'zimdan tirqiraydi,
She'r jonidan to'yganmi, dil tubiga sakraydi,
Bu holimga ufqdan birov to'lib qaraydi,
Asrlar ham bir-birin odam kabi qumsarkan,
Bunda she'r o'qiy desam, quyosh ko'zni to'sarkan.

Bunda ey, niyatlarin yaproq kabi to'kkanlar,
Bir elning hasratini dilda mushtdek tukkanlar,
Ey, qanotsiz uchganlar, qush tilidan o'pganlar,
Asrlar yuragida yugurik qonday chopganlar,
Usti ochiq dunyoning etagini yopganlar,
Oltin qoziqqa boqib sayyoh ham yo'l toparkan,
O'zbekni izlaganlar Navoiydan toparkan.

Bobo tuproq, shon tuproq, ildizim botgan tuproq,
Taftin tanimga berib, o'zi sovqotgan tuproq.
Sendan o'sgan chinorning shoxida men bir yaproq,
Qorong'i tomonimni yoritgan ey, shamchiroq,
Ko'ngilning qubbasiga Xudoyim ilgan bayroq,
Uni hilpiratguchi yel yurakdan esarkan,
Bunda she'r o'qiy desang, yelkangdan so'z bosarkan.

Tog‘larda qor ostida mening ko‘nglim o‘syapti,
Cho‘poningning iziga tavof deb yuz bosyapti,
Yomg‘ir tortgan pardalar jamolingni to‘syapti,
Shu elning or-g‘ururi kamolingdan toshyapti,
Yelkam jimirlayapti – qanotga o‘xshayapti,
Yurak she’rdan to‘lishsa, so‘z qanotga do‘narkan,
Hurlik uchirgan qushlar yurt shoxiga qo‘narkan.

Vohki! Ko‘nglim shu damda buncha bunyod ko‘ringay,
Ko‘zim yumib qarasam, bundan Hirot ko‘ringay,
Ko‘zim ochib qarasam, mangu ijod ko‘ringay,
Ko‘zim uzmay tikilsam, shunday ajdod ko‘ringay,
Ko‘z yosh bilan qarasam, Puli Sirot ko‘ringay,
Bobo! Ko‘zlarim yondi – ko‘ngil shunday to‘larkan,
Bundagi har navnihol chinordan bo‘y olarkan,
O‘zbekni izlaganlar Navoiydan toparkan.

## *Adiba Umirova*
## *(1980-yilda tug‘ilgan)*

### BUYUK SHARQ TILI

Ona tilim kechir, tillari o‘tmas,
Senga oshiq duduq shoirlaringni.
Yoningda turib ham bir so‘zga tashna
O‘tib ketayotgan doirlaringni.

Ishongim kelmaydi – shu tilda Lutfiy
Bir sulton ko‘nglini lutf etmish erkin.
Olti yuz yildirki, Navoiy yurtga
Tole so‘rab chiqar shu tilda har kun.

Ne til bilan aytay – Nasimiyni ham
Tovonidan so‘ymish shu tilga osib.
Ne ko‘z bilan ko‘ray – Pahlavon Mahmud
Kitob javonida qolmish chang bosib.

Ona tilim,
tilim bo‘lgan tilimni
Yo‘lma-yo‘l, eshikma-eshik darbadar.
Ne-ne sarbadorlar, ne-ne sultonlar
Olib o‘tmish Sharqdan Ovro‘pa qadar.

Mening ona tilim – buyuk Sharq tili,
O‘tror tili, butun Osiyo tili.
Xoqonlar tilidir, turkiylar tili,
Ko‘hna va yangi Afrosiyob tili.

Chig‘atoy tilidir – do‘g‘alar yegan,
Azaldan bitilgan irfon tilidir.
Temur birlashtirgan bir tug‘ ostida
Turonga aylangan Turon tilidir.

Jon bergan, ruh bergan har bir so‘ziga
Qaytmas haqiqatdan kuyganlar tili.
Qayerda bo‘lsa ham boshin tik tutib,
O‘z ona tilisin suyganlar tili.

Qasrlarda bitmish tarix tilidir,
Asrlardan kelgan salaflar tili.
Olamda yagona turkiy zaminda
Tilini sog‘ingan xalaflar tili.

Mening ona tilim – tillar onasi,
O‘zbekcha so‘zlatgan Pushkinni hatto.
Bu tilda «Faust»ni ko‘targan ko‘kka,
Zardushtga tanitgan Haqni bexato.

Qarshiga bir javhar axtarib kelgan,
Jahon shoirlarin mahliyo qilgan.
Sehr-u iforiga bog‘lanib qolgan
Qancha mavlolarni avliyo qilgan.

Beshigi bor uyda yangragan bu til,
Go‘daklar kuch olib, chopgan bu tilda.
Ahmad Yassaviyning bir bayti bilan
Turkiston o‘zini topgan bu tilda.

Ona tilim, kechir, shunday qudratli
Tiling bo‘la turib, nolalaringni
Tushunmay chug‘urlab yurgan haliyam
So‘zsiz, tilsiz qolgan bolalaringni.

Endi yuz ganj bilan tiklamish haykal
Shoh-u gadolaring tizib so‘zlarni.
Suyaklardan qurib borar ovozing
Ona tilim, kechir,
kechir,
bizlarni...

Almashtirib bo‘lmas seni hech qachon,
Bo‘g‘ib bo‘lmas ko‘kdan kelgan ziyoni.
Najot keltir zamin so‘ngiga qadar,
Ezgu noming bilan ko‘tar dunyoni.

*G‘ofir Hamro*
*(1981-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

Dunyo asli bobomizdan ibrat olgan,
Omonatsan  ajdodlardan  bizga qolgan.
Ona tilim, xiyonat ham qildik gohi,
Erksizliklar bizni shunday ko‘yga solgan.

Bildim: seni qadrlagan  suyuk bugun,
Seni sevgan, sevdirganlar buyuk bu kun.
Ona tilim, tarixingni yod etsam gar,
Ko‘ksim og‘rir, bag‘r-u dilim kuyuk, tugun.

Koshg‘ariylar,  Navoiylar  bo‘ldi darmon,
Husayndek sultonlaring berdi farmon.
Ona tilim, bugun yana qadding  baland,
G‘urur tuydim, ko‘ksim osmon, yo‘q hech armon.

Kashf etarlar seni hali  yuzlab elat,
Avlodlaring  borar yuksak cho‘qqi ko‘zlab,
Ona tilim, orzu emas, niyat qildim:
Olam ahli madh etajak o‘zbekcha so‘zlab.

*Munira Sulton*
*(1981-yilda tug'ilgan)*

## O'Z TILINGNI ASRA

Navqiron elimda bugun katta to'y,
O'zbegim kalomin quvonchli kuni.
Necha yillar xalqni ezdi bitta o'y,
Ona tilim qaytarmi, yig'lardi tuni.

Qoldi tarixlarda xalq chekkan zahmat,
Oyning qorong'isin ko'rdi bu elim.
Rusiyzabonlari o'tkazdi qahat,
O'zin yo'qotmadi, lek o'zbek tilim.

So'zlasholmas edi mahkum zabonda,
Eslagim kelmaydi ma'shum kunlarni.
Shukuhli kunlar ham, mana, omonda,
Kim orzu etmadi bunday kunlarni.

Qodiriy, Cho'lponlar, Fitrat, Behbudiy
Millatning ko'zgusin ko'rsatmoq bo'ldi.
Afsuski, olishdi nomi ba'daviy,
Fozillar millatim ruhi bo'lishdi.

Qadri baland tilim qaytdi elimga,
Xazina gavhari erur ona til.
Bir kalima kelar doim tilimga,
Ey, inson, o'z tiling asray olish bil!

*Nigora Jumayeva*
*(1982-yilda tug'ilgan)*

## TILDIR MILLATNING QOMUSI

«Sayqal bersang toshga, – derlar,
Olmos boʻlur natijasi.
Nihol eksang, qarab tursang,
Asaldek totli mevasi».
Gar soʻzlashsang doʻstlar birla,
Biyron, xandon Ona tilda.
Ber e'tibor, gullab ketsin,
Sen-la oʻtgan daqiqasi.
Bolang oʻsib, vaqt kelganda,
Joiz boʻlsa til oʻrgatmoq.
Ona tildan boshla, shaksiz,
Oʻzgachadir nashidasi.
Oʻzga yurtga borganingda,
Toʻgʻri kelsa tanishtirmoq.
De «oʻzbekman, qadrdonlar!»
Oʻqib ber «til qasidasi»n.
Hurmat qilgin, bobolaring,
Ishongan senga me'rosin.
Yod ol har bir gʻazalini,
Koʻksing faxr tark etmasin!
Xos Hojib-u Alisherlar,
Bobur ruhlari boʻlsin shod.
Har soʻzingdan gavhar tomib,
Tik tut ularning nomusin.
Ona tiling hurmatini
Tenglashtirma tillolarga.

Doim bo'lsin qadri baland,
Oltin kabi sotilmasin.
Zero, sening avlodingga,
Tarixingni pok eltuvchi.
Ona tiling! Unutmagin!
Tildir millatnig qomusi!

## *Ortiq Ali Behutov*
## *(1983-yilda tug‘ilgan)*

### TIL NOMUSI

Bizkim mulki Turon, amiri Turkistonmiz,
Ko‘p millatlar ichida g‘ururli qaynoq jonmiz.
Maqtanishku oson, do‘stlar, lek maqtovga loyiq kam,
Tilimizni sof saqlaylik, quloq solinglar bir dam…

Qarg‘adaymas, bulbul kabi go‘zaldir til zaboning,
Shu til ila faxr aylab yursin bir kun o‘g‘loning.
Bemaza qo‘shiqlar-la qilma tilni masxara,
Kim gar tilni xor aylasa bo‘lgay o‘zi tasqara.

O‘zbek elim, til – o‘zlikdir, o‘zligingni oqlagil,
Til nomusi – el nomusi, o‘z nomusing SAQLAGIL!!!

## *Jo'rabek Ramazon*
## *(1983-2014)*

### ONA TILIM

Olamshumul sado bo'lib yangrading
To'marisning metin qalqonlaridan.
Men esa nomingni topmoq istadim
Navoiy va Bobur devonlaridan.

Nodira qalbiday kuylasang yonib,
Poyingga tiz cho'kar Ko'hiqof tog'i.
El yashamoq bo'lsa sendan-da tonib,
Bukila boshlaydi Hisor oyog'i.

Olamni larzaga solgan to'rtta harf
To'rt tomon emaklab ketdi to'xtamay.
Unutsam, umrimning go'zalligi hayf,
Kuylash kerak boshqalarga o'xshamay.

Qodiriy bo'lmadim, bo'lmadim Cho'lpon,
Umr – uzun arqon, dil – qorong'i uy.
Yuragim jonimdan so'rganda o'lpon,
Sizilib chiqadi tomirimdan kuy.

Yurak, aylan Danko qalbiga endi,
Kubro misol shior tanla, vijdonim.
Ko'zimiz yoshidan chechaklar undi,
Baxtdir o'z tilingda kuylamoq, jonim!

## *Nosirjon Jo'rayev*
## *(1984-yilda tug'ilgan)*

### XX ASR. SHAVKAT RAHMON

Xudoning ko'zida turibdi har ish –
Mumkinmas bir on ham riyoga chalg'ish.
«Onajon Vatan!» deb, Vatandan olqish
Kutib o'sganlardan shoir chiqmagay.

Garchi Navoiyni chandon o'qigan...
Taltayib suyanar Yerning o'qiga.
«Onajon xalqim!» deb, xalqning yukiga
Yelka qisganlardan shoir chiqmagay.

Turkiy husn-u ko'rki tilim-tilimdir –
Qamish shimgan kabi tilim tilindi.
«Onajon tilim!» deb, ona tilimni
Atay kesganlardan shoir chiqmagay.

Akalar! Ukalar! Men-ku endi yo'q,
Ammo bu Vatan va xalqning tengi yo'q!
Aytishi kerak-ku kimdir – menmi-yo'q...
G'aflat bosganlardan shoir chiqmagay.

## *Muyassarxon Ergasheva*
## *(1984-yilda tug'ilgan)*

* * *

Qandoq go'zal, subhidamda turnalarning
Qanotida uzoqlardan kelsa salom.
Jonimga jon, qulog'imga yoqib ketar
O'z tilimda jaranglagan har bir kalom.

Qaysi tilning Navoiydek otasi bor
Arzimasmi faxr etsam ko'ksim kerib.
Baytlar bitsam har lahja-yu shevasida
Nazm ummonidan asil durlar terib.

Qandoq yaxshi, dunyo bo'ylab yangrab turar
«Chala», «Yonbosh», «Halol», «Kurash» kalomlaring.
Qutlug' yoshing muborakbod etayin deb
Ash'or bitdim ketsin dildan alamlaring.

Ulg'ayganim tillo beshiklarda tinglab
Onam aytgan allalarda ungan gulim.
Har so'zida mag'rurlanib qo'ysa qalbi
Farzandimni hidoyatga boshlar yo'lim.

O, Enasoy bitigida ko'z ochganim
Qadding baland Buxoriydek nasling bilan.
O'z tilimni qiyomatda Navoiyga
Nima deyman, asrolmasam asling bilan!

## *Fozil Farhod*
## *(1985-yilda tug'ilgan)*

### O'ZBEKCHA KUYLANG

*(«O'zbekiston 24» telekanali suxandoni*
*Arevat Grigoryanga)*

Qay zamon keldiki, ustimiz yechib,
Choponni ko'mishni odatga yo'ydik.
Hatto «o'zbek» degan unvondan kechib,
Ajnabiy poyiga boshimiz qo'ydik!

Farzandimiz o'zga tilda sharaqlab,
So'zladi, zavqlandik, chapaklar chaldik!
Ikki o'zbek boshqa tilda valaqlab...
Qarang, oqibatda kim bo'lib qoldik?

Arman qiz sochini o'zbekcha o'rib,
O'zbekka o'zbekcha o'rgatib qo'ydi!
Yuragim zavqlanar, ham og'rir ko'rib,
U bizni o'zidan ortiqroq suydi!

Men unga boshimni tekkizib yerga,
O'zbekcha ta'zimlar qilaman cheksiz!
Nasrga solaman sig'masa she'rga,
Arevat, siz toza o'zbek qizisiz!

Arevat, o'zbekcha kuylang, baralla,
Bobo o'zanidan ketganlar qaytar!
Ishonaman, kelar shundayin palla,
Dunyo ko'nglidagin o'zbekcha aytar!

## *Rustam Mirvohid*
## *(1987-yilda tug'ilgan)*

*2019-yilda bir qator o'zbek «madaniyat xodimlari» tomonidan xorijiy tilga ikkinchi davlat tili maqomini berish haqidagi tashabbus ijtimoiy tarmoqlarda ziyolilarimiz va xalqimiz vakillarining jiddiy e'tiroziga sabab bo'lgan edi.*

### OG'RIQ

Tilimni onamday suyganim haqqi,
Onamga tilimday kuyganim haqqi:

Arslon mo'yloviga teginding bekor,
Tavba qil, yo'qsa u hamlaga tayyor!

Aytgancha, bu «taklif» – «o'zimdan» chiqdi –
Seningdek qora qosh, ko'zimdan chiqdi.

«Ro'yxat» ichra ajab, ajnabiy yo'qdir,
Shuningdek, rosmana o'zbakiy yo'qdir.

Yo'qsa, ona turib, ona so'rar kim?! –
Chida, bu imtihon, bag'rikeng xalqim!

Garchi payt poylagan yulg'ichlaring bor,
Qilni qirq yorguvchi – bilgichlaring bor.

Ular etagin tut shul aziyatda –
Seni olib chiqar shum vaziyatdan!

Mushkuling hal bo‘lsa – eng bosh tashvishing,
Vataniy, lisoniy qilajak ishing:

«Qo‘shxotinlik» yo‘li og‘irdir, bilgil,
Bittasin tanlagil – lotin yo kirill!

So‘ngra eng yuqori mahkamalarni
Tozala o‘rusiy atamalardan!

Qo‘pollik... yo‘q, qo‘llab nafislikni sen,
Joriy et, sof turkiynavislikni sen!

Shunda hech til bizga daxl qilmagay,
Ona tilimiz ham jahl qilmagay!

Takror aytay, sherni uyg‘otding, do‘stim,
Hali me’dasi to‘q, shilmagay po‘sting

Va lekin hadikdan bo‘lma deb xalos –
Hozircha... tishini ko‘rsatdi, xolos!

## *Obidxon Mamadaliyev*
## *(1988-yilda tug‘ilgan)*

### TILIMGA

Tilim bilan teng o‘sdim,
Men tilimga egizman.
O‘tinaman, «ey do‘stim»,
Tilimga til tekkizmang!

Hamrohimdir har onim,
Chiqqunicha to jonim,
Janobmisiz yo xonim,
Tilimga til tekkizmang!

Kim buzdi-yu qurmadi,
Kim qurdi-yu ko‘rmadi,
Navoiyning hurmati
Tilimga til tekkizmang!

Xalq sizdan yuz burmasin,
Tag‘in Xudo urmasin!
Tirsak chiqib yurmasin,
Tilimga til tekkizmang!

Buni kim o‘ylab topdi?
O‘zin ildizin chopdi!
Tilingiz chiqib qopti,
Tilimga til tekkizmang!

Kim o‘zdan yuz buribdi,
Oxiri xor yuribdi?!

Tilim qichib turibdi,
Tilimga til tekkizmang!
Tilimga til tekkizmang!!!

## ONA TILIM!

Ona tilim, o, mening onam,
Seni juda yaxshi ko‘raman.
Agar borsam Ovro‘paga ham,
O‘zbekchalab salom beraman.
Yoshligimdan hamrohim sanmi,
Sen yo‘q bo‘lsang, men ham o‘lganman.
Yoshligimdan tuqqan onamni,
«Onajon», – deb katta bo‘lganman.
Nahot, senga solmoqda soya,
Aytib qo‘ygin, nonko‘r ekanlar.
Onasini «mamashka» deya,
Otasini «paxan» deganlar.
Olloh deya Haqni tanidik,
Islom deya angladik dinni.
Dining nima, Payg‘ambaring kim,
O‘zga tilda aytish mumkinmi?!
Savdo bordir muhabbat otli,
Hammada bor sevilish, sevish.
Qanday go‘zal, naqadar totli,
O‘zbekchalab «sevaman» deyish!
Men she’r yozdim, qarab turmadim,
Sendan o‘zga g‘amin yemayman.
Senga bo‘lgan haqqi hurmatim,
O‘zga tilda «Vatan» demayman!
O‘zga tilda «Vatan» demayman!
Ona tilim, o, mening onam!!!

*Shavkat Odiljon*
*(1989-yilda tugʻilgan)*

## OʻZBEK TILIM JON-U DILIM

Oʻz tilingda Ona demoq qanday yaxshi,
Qanday yaxshi Vatan desang oʻz tilingda.
Vujudingda mehr niholday oʻsadi,
Boʻlsa ezgu kalom, ezgu soʻz tilingda.
Qanday yaxshi, Ona desang oʻz tilingda.

Nur yogʻilgan yuzing goʻzal, koʻzing goʻzal,
Harfni marjon qilib tuzgan soʻzing goʻzal,
Koʻzlarimga koʻrinasan oʻzing goʻzal,
Boʻlsa ezgu kalom, ezgu soʻz tilingda.
Qanday yaxshi, Vatan desang oʻz tilingda.

Sen soʻzlasang, boshim egib tiz choʻkaman,
Bir butunmiz Haq yaratgan soʻz ila man,
Bundan katta baxt-u iqbol yoʻq, bilaman,
Boʻlsa ezgu kalom, ezgu soʻz tilingda.
Qanday yaxshi, Ona desang oʻz tilingda.

Ehtiromga arzir hamma elat bugun,
Oʻzbek shirin soʻzi bilan millat bugun,
Moziyning zarvarogʻida abad bugun
Boʻlsa ezgu kalom, ezgu soʻz tilingda.
Qanday yaxshi, Vatan desang oʻz tilingda.

Ayrim ellar borki, xuddi yoʻqdek tili,
Bu olamda bir el borki, oʻqdek tili,
Oʻziga bek, koʻring, bugun oʻzbek tili,
Qanday yaxshi, Ona desang oʻz tilingda.
Qanday yaxshi, Vatan desang oʻz tilingda...

*Asliddin Jarkinov*
*(1989-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

So‘z bo‘lgandir, aslida, paydo,
Biz bilmagan olam arshida.
Qudrati-la aylab ibtido,
Jon yugurdi zamin bag‘rida.

Tarix soldi poyiga qismat,
Turkiy elim o‘ydi toshiga.
Yo‘l qo‘ymadi xo‘rlikka ismat,
Istibdodni ilmay boshiga.

O‘z mehridan berib tajalli,
So‘z sehridan marjonlar terdi.
Sultonlarga bo‘lib tasalli,
Baxtga eltish ilmini berdi.

Moziy tarix izmida muddat,
Aziz aylab ko‘z-u qoshini.
Turkiy tilim bo‘lmadi odat,
Yecha olmay forsiy tojini.

Sheri chiqdi turkiy jonim deb,
Yo‘lbarsi ham tashlandi jangga.
Beshta ziynat turkka bo‘lib zeb,
Voqe’noma qoldi jahonga.

Tilim holi keldi goh malol,
Goh kurashda og‘ir chatnadi.
Chig‘atoycha gurungda, alhol,
O‘ZBEK TILI bo‘lib yashnadi.

Ota Yurtga, ona Vatanga,
Ona tilim jondir ham ilhom.
Asrlarni yengib o‘tguvchi
Qadri baland, muzaffar kalom.

*Dadaxon Muhammadiyev*
*(1989-yilda tug‘ilgan)*

## TIRIK TOSH

Tosh – tongacha gapirib chiqdi,
Turkiy tilmi yo qadim lahja.
Tosh ko‘nglini bir dam yoray deb,
Chayqalib ham qo‘ydi bir lahza.

Begona ko‘z o‘tsa yonidan,
Sal panaga olardi o‘zin.
Oftob urib, suvlar yemirib,
Silliqlanib ketgandi yuzi.

Ming yillarning hasrati bo‘lib,
Qotib qolgan tomchi yosh edi.
O‘rxundami yo Enasoyda
Bitigi yo‘q – tirik tosh edi.

## *Husniddin Hayit*
## *(1989-yilda tugʻilgan)*

### «KOʻNGIL TILINING IZOHLI LUGʻATI»DAN

Sen haqingda hamon soʻzlar Enasoy –
Ulashib turibdi asriy nurlarni.
Sodiq koʻngillardan oʻrin olib joy –
Yuksakka eltgansan nurgʻururlarni.

Oʻrxun ham baxsh etib dovrugʻin elga –
Koʻklarga koʻtarar ruhiy sharafni.
Toʻnyuquq nishoning eʼzozlab kelgan –
Koʻrkam etaverib eng oldi safni.

Goho tajovuzlar qilganda yovlar –
Mardona irodang bukmading lekin.
Goh otda, gohida tinmay yayovlab –
Shaningga kurashgan mudom Kul tegin.

Ilhom zavqin tuyib Mahmud Koshgʻariy –
Sirlaring axtarib Rumgacha borgan.
Soʻng ne-ne shuurni aqliy boshqarib –
Qiyosiy yoʻllarga boshlab yuborgan.

Va turfa sinovlar yuzin qarshilab,
Kechirib yashading – kechmishing ajib.
Jilolangan ilmiy umrin bagʻishlab –
Soʻng baxtin anglagan Yusuf Xos Hojib.

Toleying toptalib topilmay chora,
Tuslanib borganda boring yovvoyi:
Qalam tig‘in olib ochiq-oshkora
Jangini boshlagan hazrat Navoiy.

Maydonda mardlarcha zafar qozonib
Va nomingni bitgan ochun tog‘iga.
Besh asrdan ortiq sehringga qonib,
Oziqlanib turar nur ardog‘idan.

Shuningdek, har lahza bo‘lib Hotamtoy
Qator nomalarga baxsh etding hayot.
Va «Boburnoma» ham ko‘rsatib chiroy,
Kuylab kelaverar jug‘rofiy bayot.

Do‘mbira quchoqlab Fozil Yo‘ldosh ham,
Shodlanib tonggacha aylagan xonish.
Xalqona poetik ruhi mujassam
Eng jo‘shqin qo‘shiqdir: doston – «Alpomish».

Va garchi hadyangdan tanilgan Elbek,
Ko‘hna zamonlarda qayg‘urib Fitrat.
Yodparastliklarga qo‘ymoq uchun chek –
Jonlarini bergan jonlari titrab.

Jilvalanmoq istab so‘ng ko‘rsatding bo‘y,
Nur – rutbalar berding Ayub G‘ulomga.
Lahja asrab qildi dialektal to‘y,
Bosim To‘ychiboyev sipqorib jomdan.

Demak, sen – onamning tengsiz ashyosi,
Sening bilan mangu millatiy ilm.
Faqat o‘zing bilan kelajak hosil,
Yurak osmonida nur sochgan tilim!

*Orifjon Odiljon o‘g‘li*
*(1990-yilda tug‘ilgan)*

## TAQDIRIMGA QO‘YILGAN DASTXAT

Do‘stday kulib turib bag‘ring tildilar,
Millat yuragida ungansan, gulim.
Seni yetmish besh yil bandi qildilar,
Ko‘z yoshingni qult-qult yutgansan, tilim.

Samoga bo‘ylashding, ming xarsangtosh ham
Dovonning yo‘lini to‘sa olmaydi.
Bag‘ringga o‘rlagan chirmovuqlarning
Ildizin kesaman, o‘sa olmaydi.

Har qachon go‘zalsan, bermasang ham zeb,
Oddiyliging bilan olding jahonni.
Bobom qaro kunlar esdaligi deb,
Saqlar dilin qoni tomgan «Devon»ni.

Bor erur qalbimda adadsiz kishan,
Chunki bandidirman har bir so‘zingga.
Sumlimlar chiqqanda ziyolilardan,
O‘yladim: o‘t yoqqan g‘urur o‘ziga.

O‘zing dunyodan-da ko‘hna bir dunyo,
Munojot qilguvchi ishq siyohisan.
Navoiy nazmidan taralgan ziyo,
Dardni dardmand qilgan Bobur ohisan.

Sening tafting yonar har nafasimda,
Oldingda qarzlarim bisyordir hali.
Eng ulug‘ so‘zlaring ko‘ksimga qada,
Ey turkiy olamning yo‘lchi mash’ali.

Sen bilan tirikman, poyonsiz baxtsan,
Qahratonlarda ham o‘sgansan, gulim.
Robbim taqdirimga qo‘ygan dastxatsan,
Ruhimni opichlab o‘stirgan tilim.

*Mansur Jumayev*
*(1991-yilda tug'ilgan)*

## TOSH HAQIDA ERTAK

*Usmon Azimga*

Ey bo'g'zimni yoqqan achchiq bo'z,
ey, sen, ruhi ravonim ko'rki –
gulxanlarda yongan turkiy so'z,
gulxanlarda yonmagan turkiy!
Ey, toshlarni sayratgan kalom,
ey, boshimni omon tutgan bo'rk,
ey, sen... meni kechir, vassalom,
kechir deyman, Hazrat Abutturk!
Gunohkorman qoshingda butkul,
gumrohman-u osiyman tamom...
kechir, deyman, aybimdan o'tgil,
olma deyman faqat intiqom!
Shu dashtlarda kezdim ming yillar,
shu oftobda o'sdim, isindim,
shu ko'ksimga botdi sohillar,
shu qirlarda yuksaldim, indim,
shu soylarga to'kildi ohim,
shu bog'larda pindiq otdi baxt,
qahqahamdan ungan og'ochim,
faryodimdan to'kilgan daraxt...
Men barini kuyladim jo'shib,
kuylarimdan dashtlarim qondi,
men kuylagan u dilbar qo'shiq
Istilolar o'tida yondi.

Yondi bari jizg‘anak bo‘lib,
yondi bari ko‘kka urib bosh,
kul shaklida topdilar o‘lim...
vafo qildi menga faqat tosh!
Shu tosh qoldi sendan esdalik –
tosh shaklida qotgan turkiy dil!
Kim bevafo kelgan menchalik?!
Kim menchalik noraso o‘g‘il?!
Men bilmasman kuylarim naqshi
runiymidi, oromiymidi,
jilvalari, nuri, duraxshi
yerlikmidi, osmoniymidi?!
Menmi o‘sha – unutgan tavba,
o‘ylaringni, ehsoslaringni;
bir asrda to‘rt marotaba
o‘zgartirgan liboslaringni?!
Yo‘q, men emas!
Shu kengliklarda
yig‘lab-kulib qo‘shiq aytmasam,
ko‘tarmasam seni bir parda,
men men emas – senga qaytmasam!
Qaytajakman qoshingga, ona,
yoshlarimni to‘kkayman taxir,
onamdirsan axir yagona,
yakka-yolg‘iz padarsan axir:
ey, bo‘g‘zimni yoqqan achchiq bo‘z,
ey, sen, ruhi ravonim ko‘rki –
gulxanlarda yongan turkiy so‘z,
gulxanlarda yonmagan turkiy!

*Maftuna Rejabboyeva*
*(1992-yilda tug‘ilgan)*

## LATIF TIL

Qandayin latifsan, qandayin go‘zal,
Qanday go‘zal so‘zlar senda mujassam.
Dunyoni tebratib ham tik turg‘izib
Qo‘yishga qodirsan, chuqur o‘ylasam.

Senda uyg‘unlashgan betakror nafis,
Fuzuliy, Navoiy izhorlari ham.
Oh, onamning tili, onajon tilim,
Senda dunyo ta’mi, toti bo‘lgan jam.

Bu ham mening baxtim, mening kamolim,
Tilim chiqqan asli ona so‘zidan.
Dur misol terganman, marjonday uzib,
Mag‘zing, ma’noyingni onam ko‘zidan.

O‘zingga she’r bitib, o‘zingni kuylab,
Balki uzolmasman bir umr qarzim.
Ammo dunyodagi bitta haqiqat –
Shu tilda so‘zlashim eng oliy baxtim.

*Islomjon Qo‘chqorov*
*(1993-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

Tuyg‘uning shaklini kim ko‘ribdi ayt,
Mehrning taftini o‘lchaganmisan?
Ichingdan bir qo‘shiq kelavergan payt
Ruhing bilan unga kuy chalganmisan?

Ortidan mastona bo‘lib borsam-u
Eng toza tuyg‘ular aylasa ogoh.
Qadrdon bekatda tushib qolsam-u,
Kulib qarshi olsa avtoturargoh.

Issiq kulcha yuzli issiq chehralar
Jonimga cho‘g‘dayin o‘t tutashtirsa.
Musicha singillar, oq gulchehralar
Nurdayin go‘shada bir uchrashtirsa.

Sog‘inch bo‘lib kirsam va yo kuy bo‘lib,
Mudom shunday uyg‘oq ruh kabi kelsam.
Poyingga bosh ursam va ko‘ksim to‘lib,
O‘z ona tilimda onajon desam.

*Shohrux Najot*
*(1993-yilda tug'ilgan)*

## IKKI DAYDI

*Jontemirga*

Yuragimdan haydaldim jo'ra,
Endi rostdan ko'chada qoldim.
Alg'ov-dalg'ov kunlar tugadi,
Boshlanmadi hali hayotim.

Och bo'riday kezdik shaharni,
So'z izlading, men esa omad,
Biz o'ljasiz qaytardik har gal,
Senda so'z yo'q, menda daromad...

Bizni sevgan qizlar kapalak,
Bir kun yashar keyin o'ladi.
Ijara uy o'zimizdek och –
Oy so'ngida "uvvos" soladi.

Ikki daydi qayga ham borar,
Tosh shaharda qismat toshlanar,
Hamma uylar bizga bekatdir,
Hamma bekat bizga boshpana.

Shoirlarni yoqtirmas bu yer,
Sheriyatni tushunmas ko'cha.
Hamma odam – meningdek sodda,
Hamma odam – seningdek o'jar.

Taslim bo‘lish o‘limdir axir
Garchi bizda ochlik va so‘z bor,
«Huv avtobus kelyapdi oshna
tur, bekatni uyg‘otib yubor».

Tong otmoqda izlanish kerak,
Qorin to‘ymas she’rga yo gapga.
Sen so‘z izlab o‘ngga ketasan
Men pul izlab ketaman chapga.

## *Jontemir*
## *(1994-yilda tug'ilgan)*

### O'ZLIK

*Cho'lponga*

Tun edi,
Yelkamning chuquriday tun,
Sachrab ketgandayin ko'zim qorasi.
Yodimga urildi Enasoy, O'rxun:
«O'zingni tanib ol, Turkning bolasi!
Qoningda zanglamish qadim qumar-u,
Komiga tortmasdan so'nggi daqiqa…
Qappaygan qoringa Vatan sig'ar-u,
Yorib yuborgaydir jindek haqiqat.
Zamin tor, osmon keng,
Ey, samodilim,
Unutib qo'ydingmi yetti pushtingni.
Zulfiqor shamshirim,
Turkona tilim,
Nokaslar ko'rgan yo'q hali mushtingni.
Chirkin to'siqlarni qachon buzgaysan?
Qachon birlashgaydir bu shonli tuproq!
Qo'rqsinib so'zlaysan,
Yolg'on bo'zlaysan,
Tushingni tilmasmi Yassaviy, Kubro?!
Chirib bitmadimi qora imdodlar,
Ruhingga isyonkor shamollar indi.
Omochga qo'shilmas chovog'on otlar,
To'zg'igan uyuring yig'ib ol endi.

Bizni yengolmagan biror gʻalamis,
Oʻqi, kimligingni toshlar xatidan.
Yovga joy bermagan togʻ-u dalamiz,
Tangri Taoloning inoyatidan
Sen kelding,
bevatan ruhlarni chorla,
Bos, alam qizitgan bitiglar hovrin.
Boshingda quyoshdek turamiz porlab,
Mungʻayib, qaltirab oʻtkazma davring...»

Tun edi, yelkamning chuquriday tun,
Achchiq orzu ta'min koʻrganman tatib.
Oʻsha tundan beri Enasoy, Oʻrxun,
Turkular oʻqiydi,
yodim qonatib:

«Oʻzingni tanib ol, Turkning bolasi!
Oʻzingni tanib ol, Turkning bolasi!»

## KOSHGʻARIYGA MAKTUB

### 1

Bobomning xotirasin pullayman ikki pulga,
kitoblarni yoqaman –
Oʻzbekcha kitoblarni!

Tahqirlangan ayolday soch yulib oqar Amu,
Bundagi talvasadan
dahshatga tushar tamugʻ.
Ogʻzi chatib tashlangan murdalarni soʻroqqa
tutolmay Munkar-Nakir
qabristonda dong qotmish.

Afti bujur toshlarning bitiklarin sangtarosh
yangilar,
Koshg'ariyni tarixdan yulib olgan kirpanjani olqishlab.
Oyoq-qo'lim zanjirda,
O'shqirgani tilim yo'q.
Ko'zimdan qochgan yig'i
tikanzorda qiyratib
tortqilar kulgichimni.

Vatanim – ulkan og'iz,
Bor bisoti – gavharin
o'g'irlatgan g'or kabi
angrayib turar, sho'rlik...

## 2

Og'zimdagi chayonning nishini kimga sanchay?
Eskicha «mim»ga sanchay?
«Nun»gami «jim»ga sanchay?
Yo uchini qayirib, qayta ichimga sanchay?!

Yaylovlarda yugurib, ot bo'lgan toyim, tilim,
Qullikda qon tufurib, ko'kargan joyim, tilim.
Uch-to'rt hangiga qarshi turolmasang gerdayib,
Boringdan yo'g'ing yaxshi, qiyomat qoyim, tilim.

Arslon ikki dunyoda zog' tilida so'zlamas,
Burgutga qoyalarning jimligi yetib ortar.
Zaboni yo'q bo'zlamas, armoni yo'q bo'zlamas,
Bo'zlamaslar muttasil noringni loyga tortar.

Sen borsanki quvonib, o'g'il ko'rsam ul deyman,
To'y ko'rganni kelin-u, yolg'izlarni tul deyman.
Ekinmiding o'rishsa, qaytadan unib chiqsang,
Sal epkinga egilsang, qul deymanda, qul deyman.

Mazasini momomdan tatib ko‘rgan sharbatim,
Azasini bobomdan tatib ko‘rgan g‘urbatim.
Chorak asr umrimda, kitob titib, el kezib,
Dinsiz odam ko‘rdim-u, tilsiz odam ko‘rmadim.

Meni tashlab ketsang gar, bo‘g‘zimni so‘y, tirqirat,
Ko‘zimni o‘y, o‘zgadan turguningcha so‘z tilab.
Qolar bo‘lsang, nara tort, Himolayni zirqirat,
Sen bilan tug‘ildim-ku, jon berayin sen bilan!

Arslon ikki dunyoda zog‘ tilida so‘zlamas...

*Shukrillo Sheraliyev*
*(1994-yilda tug'ilgan)*

## ONA TILIM

Necha yillar zulm ezib kelgan nur bu,
Yoqutlarning ichida eng yorqin dur bu.
Boburnomasida Bobur bergan urg'u –
Tilimizni qadrlaylik, tilimizni.

Tilni toptab yuksalganni kim eshitgan,
Ta'riflari forsiylarni hayron etgan.
Quloqlarga alla bilan singib ketgan –
Tilimizni qadrlaylik, tilimizni.

Bag'irda xo'p yot tillarni qarshilading,
Yaxshi asar yaratganni yaxshilading.
Senga ham bir doston aytsin baxshilaring –
Tilimizni qadrlaylik, tilimizni.

Tomirimda oqib yurar o'zbekcha qon.
Milliy tilni anglamaslik qanday yomon,
Imkon bo'lsa, kiygizardim zarrin chopon –
Tilimizni qadrlaylik, tilimizni.

Jilmaymoqda menga hozir oq qog'ozim,
O'z tilini sevaman deb aytish lozim.
Lutfiydan lutf qarz olib she'rni yozdim –
Tilimizni qadrlaylik, tilimizni.

Xorazmcha shevalar bor dil to'lmasa,
Millatimiz abadiydir til o'lmasa,
Navoiyning hurmatiga hech bo'lmasa,
Tilimizni qadrlaylik, tilimizni.

*Xurshid Abdurashid*
*(1995-yilda tug‘ilgan)*

## UYG‘URLARIM

Turkistondan qudrat ketdi, fikrat ketdi,
Cho‘lpon ketdi, Sog‘uniy-u Fitrat ketdi.

Kelaverdi bu millatga saf-saf daho,
Barin yutdi zulm purkagan ajdaho.
Ketdi ko‘zi ochiqlarim, buyuklarim,
Yig‘lab-yig‘lab qoldi ko‘ksi kuyiklarim.

Uyg‘ur og‘am, na ko‘makka yarar bo‘ldim,
Na koringni, na holingni so‘rar bo‘ldim.
Sen ham qo‘li bog‘liq bo‘lding, men ham bog‘liq,
Sen ham ko‘ksi dog‘liq bo‘lding, men ham dog‘liq.

Tilim qani, holingni bir so‘ray bilsam,
Qo‘lim qani, himoyangga yaray bilsam.
Jaholatga panoh bo‘lgan, ay zaminim,
Bu zulmga bormi to‘xtov, bormi tinim.

Turkiston yurt tuprog‘ini bulg‘amishlar,
Zaminimning ko‘kragiga qadab nishlar.
Turkistonni bo‘lib-bo‘lib xo‘rladilar,
Istehzoli kulib-kulib xo‘rladilar.

Qondosh degan bir-biridan yot bo‘lganda,
Oson kechdi, bitta-bitta zo‘rladilar.
Temur ko‘rsa kulmaydimi holimizni,
Buncha shirin ko‘ramiz shu jonimizni?

Og‘asini, inisini axir inson,
It tagiga tashlab qo‘ygan qaysi zamon?
Bir-biriga esh bo‘lmayin tursa agar,
Bir bo‘larmi turkiy millat – jon jigarlar!

Haq mazlumga najot yo‘lin ko‘rsatguvchi,
Sabil ketmas iymon kuchi, vijdon kuchi.
Uyg‘urimga Olloh o‘zi yordamchidir,
Sabr bersin, jon jigarim, ozroq chida...

Ko‘rgiliklar o‘tar kun ham yaqindir-o...
Bu xo‘rliklar bitar bir kun, inshoollo.
Zulumotning adog‘iga yetguncha yo‘l,
Bardoshli bo‘l, bardoshli bo‘l, bardoshli bo‘l...

...Turkistondan qudrat ketdi, fikrat ketdi,
Cho‘lpon ketdi, Sog‘uniy-u Fitrat ketdi.
Turkistonni Rabbim o‘zi yana siylar,
Kelar yana Fitrat, Cho‘lpon, Sog‘uniylar.

## ONA TILIM

*Nabijon Boqiyga*

Bir xo‘rlanib, bir zo‘rlanib, bir majhurlanib,
Tilimlanib-tilimlanib, dog‘ ustiga dog‘.
Olifta ul so‘zlar ichra og‘rib, siqtanib,
Ingroq bilan, titroq bilan yashab qoldi sog‘.

Zulm etdilar, ahvoliga qaramadilar,
Qotil chiqsa – ich-ichidan ko‘kargan qotil.
Bu shovqinli zamonada holing ne bo‘lar,
Cho‘lpon tili, Fitrat tili – ona turkiy til!

Navoiy deb ogʻzimizga toʻladir koʻpik,
Gʻar(i)blashib borar bunda tiyiqsiz zabon.
Sayoz keldi, nochor keldi, yov talagandek,
Koshgʻariydan yuborilgan muhtasham karvon.

Bir chashmaga bir kaft tuproq sochilar ekan,
Loyqalanar goʻzallikning oydin koʻzlari.
Yaltir-yultir zamonaning qobirgʻasidan
Yogʻiladi oʻzga tilning bodi soʻzlari.

Loqaydlikning jabri axir ogʻirdan ogʻir,
Ona tilim, qancha qiyin senga – bilaman.
Sen-ku, axir millat uchun baquvvat tomir,
Ildizimga qurt tushmasin, duo qilaman.

Tildoshlarim, eldoshlarim, bu xoʻrlik basdir,
Shaylanaylik tilimizga qoʻriqchi boʻlib.
U bobolar qoldirgan bir MEROS emasdir,
Tilni bizga qoldirganlar OMONAT qilib!

*Mehrinoz Abbosova*
*(1995-yilda tug‘ilgan)*

## OLTINSOCH

Kirib keldi sinfga
Kokilin o‘ynagan qiz
Ko‘zlariga zangori
Osmonni joylagan qiz.
Yuzlari oppoq biram,
Sochlari naq oltindan,
Ajab, qiziq bo‘larkan
Oyni ko‘rish yaqindan!
Yangi mehmon oldiga
Yopirildik odatiy.
Ayta olmay ismini,
Oltinsoch deb atadik.
Billur nigohlaridek
Toza erur niyati.
Bu o‘ris qiz bizga hech
Begona tuyilmadi.
Kelganiga atigi
Bir oy bo‘lgan bo‘lsa ham.
Chin do‘stimga aylandi
U eng yaqin dugonam.
Yuragiga gina-yu
G‘am yig‘maydi Oltinsoch.
Oltini borlarga ham
Bosh egmaydi Oltinsoch.
Garchi yetim bo‘lsa ham,
Yolg‘iz tutmas o‘zini.

Kim biladi, balki u
Farishtaning qizidir.
Kelganiga atigi
Bir oy bo‘lgan bo‘lsa ham
Bizdek toshib ketgandi
Zavqi oshib ketgandi.
So‘zi o‘xshamasa ham,
Ko‘zi o‘xshamasa ham,
Ammo uning yuragi
O‘zbeklashib ketgandi!
Netay ushbu she’rimni
Aytmay dilim o‘rtansa.
Unga o‘qib beraman
O‘zbekchani o‘rgansa!

* * *

Oq Vatan, oppoq Vatan,
Vijdoni uyg‘oq Vatan.
Bunchayam og‘ir ekan,
Kimnidir suymoq, Vatan.
Qo‘ling ipakdek mayin,
Dardim kaftingga olding.
Sen hammani qandayin
Birdek qattiq sevolding?!
Bag‘ringdan uchgan qushlar,
Bo‘zlab qaytib keldilar.
Ming yillik sog‘inchlarin
Aytib-aytib keldilar.
Navoiyning ko‘zidan
Suvlar ichgan qushlarim.
Vatanga ko‘k maysadan
To‘nlar bichgan qushlarim.
O‘ng keldimi tushlarim

Tag'in osmonimdasiz.
Maning jonim sizdadir,
Siz maning jonimdasiz.
Hurriyat, yurak tilin,
Qush tilin anglaganim.
O'zbekcha she'r o'qisam,
O'zbekcha tinglaganim.
Qancha buyuk qush uchdi,
Ko'zimda g'am quyuqdir.
Buyuklarning kelishi
Ketishi ham buyukdir!

## *Shohsanam Nishonova*
## *(1995-yilda tug‘ilgan)*

* * *

Qush bolasin qush tilida erkalasin,
O‘z tilida arazlasin bulbuldan gul.
Shu xalqdayin halol so‘zlar jaranglasin,
Vatan kabi nurga cho‘msin shunda ko‘ngul.

Qo‘shig‘idan sarmast, shodon oqar jilg‘a,
Daraxtning har yaprog‘ida duosi bor.
Ko‘kda yulduz, tuproqdagi ildizlarning
Shevasida aytadigan nidosi bor.

Faqat tingla, faqat birlash olam bilan,
Zahmat chekkan ruhlar haqqi, chekkin zahmat.
Menga munis, dilbar tilni ravo ko‘rgan,
Onajonim, ona tilim, senga rahmat!

Ko‘zi yonib izhor aytsa norg‘ul yigit,
Qarshisida ollangan bir yanoq ko‘rdim.
Baxtdan masrur bir juftgina nigohlarda,
Ona tilim, qadringni beadoq ko‘rdim.

*Madina Norchayeva*
*(1995-yilda tug'ilgan)*

## OTAM DALALARGA SO'Z EKKAN EDI

**1**

Boychechak,
Otam dalalarga so'z ekkan edi.
Duo ekkan edi, hovuch-hovuchlab,
Bolalar bo'g'zida qaydan ulg'aydi
Chirmovuq tovushlar, ajriq tovushlar?!
Otam dalalarga so'z ekkan edi...

**2**

Boychechak – zaminning ilk so'zi,
Zamharir bir safar qasdida.
Tilga kir,
Bobolar ne tilda so'zlashur,
Ne suhbat tuproqning ostida.

Tilga kir,
Nechundir uvushgan,
Duduqdir ko'nglimning lahjasi.
Bu bahor, bahormi chindan ham
Va yoki o'tmishning sharpasi?

Tilga kir,
Ovozim guldirab qaytarmi?
Tinarmi yomg'irlar, dovullar.
Boychechak, sovuq qish zaxmidan
Ayt, omon chiqarmi ovullar.

**3**

«Boychechakni tutdilar
Tut yog‘ochga osdilar»
Nechun gohi yuzingga
Oyog‘ini bosdilar.
«Qilich bilan chopdilar
Baxmal bilan yopdilar»
Yig‘ladilar ortingdan
Keyin izlab topdilar.
Endi bir xushxabar ayt,
Pichirlama hayqirgin.
Otang ekkan u so‘zlar
Gullayotir de bugun!

## *Nozima Habibullayeva*
## *(1996-yilda tug'ilgan)*

* * *

Yaxshiyam siz borsiz,
Yaxshiyam kuz bor.
She'rsizlik jonimdan o'tardi yo'qsa,
Qirovlar qonimni yutardi yo'qsa.

Yaxshiyam yo'llar bor
bir uzu-un fusun,
Uni o'lchab borar qadamlarimiz,
Nahotki bir yo'lning odamlarimiz?

Bir go'zal yonadi,
azal yonadi,
Mezon xonishlari, navozishlari,
Fasl bu ko'nglimning namoyishlari.

Momaqaldiroqqa
aylanib boqar,
Osmon vujudida urar yuragim,
Nurasa nurlarda nurar yuragim.

Endi hadikim yo'q,
Ushshoqda jim yo'q.
Sozandam, so'zlardan yaralgan nayman,
Qandayin chalsangiz shunday yangrayman

Yaxshiyam Siz borsiz,
Yaxshiyam So'z bor...

*Nigora Muhammad qizi*
*(1996-yilda tug‘ilgan)*

## O‘ZBEKCHADA YOZAYLIK

Aytsam, eski mavzu u,
Yangi dunyo tuzaylik.
Axir, bizlar o‘zbek-ku,
O‘zbekchada yozaylik!

Hayron boqib ko‘zimga,
Qarshi chiqmang so‘zimga,
Ep ko‘rmayman o‘zimga,
O‘zbekchada yozaylik!

Til – bu axir, iftixor,
Til – bu axir, nomus, or,
O‘zbekning o‘z tili bor,
O‘zbekchada yozaylik!

Kim xunob topmay sirin,
Aytayin qaysi birin,
Shunday bol, shunday shirin,
O‘zbekchada yozaylik!

Tinglang, rahbar akajon,
Til va millat bitta jon,
Harflardan terib marjon,
O‘zbekchada yozaylik!

Biz – avlodi Alisher,
Kim ne desa, mayli, der,
Oh, bu o‘kinch dilni yer,
O‘zbekchada yozaylik!
O‘zbekchada yozaylik!

*Navruza Jasurova*
*(1996-yilda tug‘ilgan)*

## MAS’UL SO‘Z

Kun bo‘shatib berdi tunga o‘rnini,
Xiraxanda otib Zuhro qalqiydi.
Osmon to‘la chaqnar yulduzlar porloq,
Samoda nur bo‘lib oy ham balqiydi.

Soat qulog‘iga pichirlaydi vaqt,
Qalb tubida yotgan so‘zdadir yog‘du.
Yurakning nafasi sezilar faqat,
Notinch kechgan ruhda pinhon bu tuyg‘u.

Dunyo mazmunini ko‘rsatar tilim,
Ko‘nglimdan dard-alam bo‘lmoqda yiroq.
Vaqt erkin oqadi ohangga to‘lib,
Ona til hayotda misoli chiroq.

O‘ylar satrlarda ko‘z yoshdek sizar,
Titraydi qo‘limda qalamim behol.
Negadir so‘zlarim qog‘ozga botsa,
Ona tilim bo‘yin ko‘rsatar xushhol.

Bugun-da har so‘zim gupirar qalbda,
Misralarda dengiz go‘yo jo‘sh urar.
Vujudga sehrni joylab uchqur so‘z,
Ko‘ksimning tubidan ilhom hayqirar.

## *Doston Rahmat*
## *(1997-yilda tug'ilgan)*

* * *

O, turkiy so'z!
Tilimdagi nifoqmiding
Ertasi yo'q shafaqlarni kelib quchgan.
O, turkiy so'z!
Bo'g'zimdagi nidomiding
Qayrilgan qush qanotidek ko'kka uchgan?!

O, turkiy so'z!
Seni ining kofirmidi,
Otang dala, onang qaro bag'irmidi,
Avvalmidi tiling va yo oxirmidi,
O, turkiy so'z?!

Tilim-tilim – dilimdagi ingrayotgan,
Isyon desam, ko'ksimdagi yig'layotgan,
Tilidan ham, dinidan ham chiqayotgan,
O, turkiy so'z!

Navoiyning qo'lidagi suzuk tilim,
Nosog'miding, Qodiriyning tuzuk tili?
Bolalaring tug'iladi – qisiq tili!
O, turkiy so'z!

O, turkiy so'z! O'z iniga sig'magan xalq,
O, turkiy so'z! Bir-biriga tig' urgan xalq,
O, turkiy so'z! «Tangrim» deya uyg'onganim,
Xudo qolib, qabrlarga sig'ingan xalq!

O, turkiy so'z!

## *Mushtariybegim Sayfuddinova*
## *(1997-yilda tug'ilgan)*

### KOSHG'ARIY BOBO

Ildizin yo'qotgan nihol yashnarmi,
Shoxlari yuksalib quchgaymi samo?
Tarixin unutgan millat yasharmi?
Sizni sog'inamiz, Koshg'ariy bobo.

Tilimiz lutfini qaydan bilardik,
Devonlar qatiga etmasangiz jo.
Bilmadim, ertaga nima qilardik,
Sizni o'qimasak, Koshg'ariy bobo?

Bir zamon to'rt yondan qopladi yog'iy,
Tilimiz bezavol yashadi, ammo.
Oqib tushmaydimi ko'zlar qarog'i
Sizni tanimasak, Koshg'ariy bobo?

Qadimiy turkiy til buyuk devoni
Bizlarga merosdir g'oyat bebaho.
Nima deb lol etar edik dunyoni,
Sizni anglamasak Koshg'ariy bobo.

Mayli o'nta tilni o'rgansin yoshlar,
Lekin ona tilin sevsin, avvalo.
Ma'rifat millatni ko'klarga boshlar,
Sizni qadrlaymiz, Koshg'ariy bobo!

*Zohida Malikova*
*(1997-yilda tug'ilgan)*

## ONA TILIM

Bulbul bo‘lsam, gulimsan,
Yursam, nurli yo‘limsan,
Oyimsan – to‘linimsan,
Sensiz chang solgay o‘lim,
Bebaho ONA TILIM!

Kamalakdan rang olgan,
Navoiydan hur qolgan,
Ko‘ngillarga dur solgan,
Sensiz dilim ming tilim,
Sur, navo ONA TILIM!

Tomirdagi qonimsan,
Jismimdagi jonimsan,
Baxtdan baxtli onimsan,
Sensiz sayroqi dilim--
Benavo, ONA TILIM!

Egasiz til o‘rilar,
Ko‘z tikur ne bo‘rilar,
Asl javhar qo‘rilar,
Jannatdan ato gulim,
Sof havo ONATILIM!

*Shahriyor Shavkat*
*(1998-yilda tug‘ilgan)*

## TERANLIK

Teranlik istaram,
Anor donasi
kabi qontalashman.
Tegram – falanga!
Kimdir tig‘ botirgay tunga, yo nasib,
Bodrashni boshlaydi shunda alanga!
Alanga –
bir bo‘g‘in shamning ustida
arabiy raqsini boshlaydi sarxush.
Azaliy zavqimning sodiq do‘stiman,
Kel, osmon, bodamga biroz zahar qo‘sh!

...Turonday yotarman –
Dasturxon quroq,
Tanimda bir nonning minglab ushog‘i.
Ming sakrab o‘rniga tushar hiqildoq,
G‘animning qursog‘i to‘lmaydi chog‘i?!.
To‘lmaydi mening-da ko‘kayimga yel,
Ham sarkash tulporlar kishnashni qo‘ymas!
Tag‘in och shamolman!
Kel, bulutim, kel,
Bir to‘kil,
Erkalan,
Ruhimni to‘yg‘az!

Teranlik istaram,
Yarim qulochmas,
Temurning nigohi kabi teranlik.
Navoiy idroki kabi teranlik,
Istaram,
Pahlavon Mahmudlik,
asl eranlik!
Bismilloh!
Qaytish yo‘q, biror savashdan,
Haq uchun,
Xalq uchun,
Ham Vatan uchun!
Eng o‘tkir zulmatdan ko‘zim qamashgan,
Kunduzday tuyilar endi menga tun!

## *Quddus Asad*
## *(1998-yilda tug‘ilgan)*

* * *

*(o‘zbekchaga ajnabiy aralashtirib*
*so‘zlovchilar tilidan)*
Ona tilim, afv etgin meni,
Meni kechir, noshud bolangman.
Gul-u rayhon ungan ko‘changda
Ko‘ngli yupun, oyoqyalangman.

Bo‘lolmadim senga munosib,
Sen uchun hech kurasholmadim.
O‘zga tilni bag‘rimga bosib
O‘z tilimda so‘zlasholmadim.

«Prevet pap», deya so‘z qotsam,
Otam mahzun egar boshini.
Onajonim ko‘ziga boqsam,
Ko‘rsatmaydi ko‘zda yoshini.

Na maqtoldim aytib biror so‘z,
Aytolganim ajnabiy so‘zlar.
Meni qarg‘ab qancha uvol so‘z
Ko‘zin yoshlab, ortimdan bo‘zlar.

Axir, bormi tilning gunohi
Dunyodagi har til muqaddas.
Har bir millat o‘z ona tilin
Ko‘zga surtib ardoqlasa, bas.

Bo‘ldi. Men ham ona tilimga
Yot so‘z qo‘shib, etmayman qaro.
Xizmat qilay xalqqa, elimga
Yo‘qsa, bo‘lay chin baxtiqaro!

So‘zimni men oqlayman, albat,
Deb go‘zal o‘y o‘tdi dilimdan.
Do‘stlar, oling tilimdan tilxat:
Oqlolmasam osing tilimdan.
Ona tilim, kechirgin meni!

*Muhammad G‘aniy*
*(1998-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM...

Ming bir turli suxan ko‘rdim,
Ko‘rdim turli zabonlarni.
Jaranggingga haris bo‘ldim
Kezganda g‘arb tomonlarni.

Senga bo‘lgan ishqim yotar
Qalbdagi har o‘tinchimda.
Mushtoq bo‘lib tongim otar,
Ozor yotar sog‘inchimda.

Jonga masih tilim senda,
Bitilgan har ash’orlaring.
O‘zga yurtda bisyor mendek,
Sening mushtoq bemorlaring.

Vatan ishqi sog‘inch berar,
Sog‘intirar o‘ksik dilim.
Garchi o‘zim har qaydaman,
Qalbim senda, ONA TILIM.

## *Gulmira Abdiraimova*
*(1999-yilda tug‘ilgan)*

### ASRIY QUSH

Amudaryodayin o‘ylar mavjlanar,
Sirdaryo singari kuylaydi ko‘ngil.
Moviy orzularning osmonlarida
Bulutlardan umid terib yurar gul.
Bu o‘ylar bunchalar…bunchalar so‘lim,
Bariga tashakkur, ey, ona tilim!

Yodim sahrosida yillar barxani,
Ko‘rinib-ko‘rinmay yotgan tarixman.
Bo‘ronlardan omon o‘tmoqlik uchun,
Bobolar xarsangga sanchgan bir tig‘man,
Sen-la ayon bo‘ldi bu qulfi dilim,
Bariga tashakkur, ey, ona tilim!

Bobomday kengfe’l-u, momomday xoksor,
Bepoyon dashtlarda ulg‘ayar ruhim.
Bugun yurtga qaytgan Alpomish misol,
Ulug‘ karvon kelar ko‘tarib tug‘in.
G‘olib karvonlarga sarbonim so‘zim,
Bariga tashakkur, ey, ona tilim!

Qushdaysan, samolar sog‘inchi bilan
Uchmoqqa shaylanib turarsan bu kun.
Yuksak parvozlarni tilarman-u lek,
Tilla qafaslarga bo‘lmagin tutqun.

Sen bilan boshlangan hayotim – yo‘lim,
Bariga tashakkur, ey, ona tilim!

Bir haqiqat bor der... o‘chmas chiroqday,
Tamaddun bag‘rida miltiragan cho‘g‘.
Tili tutqun xalqning ko‘zlari bog‘liq,
Tili tutqun yurtning kelajagi yo‘q!
Qanotga aylanib bormoqda ko‘nglim,
Bariga tashakkur, ey, ona tilim!

*Feruz Ne'matullayev*
*(1999-yilda tug'ilgan)*

## MANGU TILIM

*(Sonet)*

Tarix to'lg'anadir, tarixing ko'ksim,
Falak parchalari tizilmish yerda.
Turon tuprog'iga to'kilar ishqim,
Onam O'zbekiston, ey, sen ulug' dard.
Sevinching yuzimga sepaqol, yurtim,
Quyosh porlamaydi ko'kda behuda.
Hey, bulbul, sayragin, jim yurmagin, jim,
Mudroq yuraklarni uyg'ot uyqudan.
Qaragin, uyg'ondim, ulug' his tuydim,
Qorishmoq istadim xalqim loyingga.
Sira ko'nglim cho'kmas, kuymaydi dilim.
O'lim… Jazo yo'qdir nechun xoinga?
Men poyingni o'pdim, ey, ona tilim,
Axir butun dunyo sening poyingda.

## *Oqil Abdubarnoyev*
## *(1999-yilda tugʻilgan)*

* * *

Kezdim Toshkent koʻchalarini,
Koʻrdim salqin kechalarini.
Uzunquloq tramvaylarsiz
Qolgan ekan shahrimiz, esiz…

Qad koʻtarar shaharlar yangi,
Bir-biridan goʻzal, koʻrsangiz.
Barchasining peshtoqlariga
Begona nom zeb berib turar.

Toshkent shumi? Oʻylanib qoldim,
Oʻzbekcha nom qidirib, toldim.
Oʻzga tillar baxsh etib chiroy,
Topilmabdi tilimizga joy.

Keng koʻchada har qadam doʻkon,
Anqoni ham topsa boʻlarkan.
Nomi oʻzga tilda barchasin,
Oʻz tilimga joy yoʻq, nimasi?!

Savdogardan soʻradim shubham,
Soqollari uzun boʻyimdan.
Oʻzbekligin koʻrsatar turqi,
Lekin ruscha soʻzlaydi nuqul.

Tushuntirolmadi bu odam,
Tushunmadim, balki, men sodda.
Chala oʻris yigit, axiyri,
Bor, boshimni qotirma, dedi.

Men u yerdan oʻkinib ketdim,
Gʻirt oʻzbekcha soʻkinib ketdim.
Qoʻyib bersang, bular yurt nomin
Sotishdan ham tonmas, ishoning.

Qardosh ellar, qardosh tillarim,
Sizga cheksiz dildagi mehrim.
Lek Navoiy avlodi nechun
Oʻz tilidan or qilar bugun?!.

Kezdim Toshkent koʻchalarini,
Koʻrdim xushroʻy kechalarini.
Azim shahar goʻyo zabonsiz
Xastalanib bormoqda, esiz...

Koʻp til biling Forobiy kabi,
Oʻz tilingiz koʻrmasin jabr.
Noming boʻlsin oʻzingga monand,
Ehtiyot boʻl deyman-da, Toshkand.

*Shahzod Shokirov*
*(2000-yilda tug‘ilgan)*

## O‘ZBEK TILIM

Turkiy tilim, tarixing teng ming asrga,
O‘tmishimiz so‘zlaydirsan mudom ro‘y-rost,
Parilardek ilhom berding har shoirga,
Navoiylar ijod qilgan aylab e’zoz.

O‘zingdirsan buyuk xalqning g‘urur-ori,
Onam aytgan allalarda barhayotsan.
Ohanglardan tin bilmagan mungli tori,
Cho‘lponlarning dilidagi oh-faryodsan.

Sen bordirsan, o‘zligimni anglaydirman,
Ajib-ajib shevalarga boysan, tilim.
Bulbul bo‘lib bog‘ing aro sayraydirman,
Boqiydirsan, o‘zbek tilim, o‘zbek elim.

## *Lobar To‘rayeva*
## *(2002-yilda tug‘ilgan)*

* * *

Tong saharda bulbulginam xonishida,
Murg‘ak qalbli bolajonning kulishida.
Ma’rifatning mavjlarida, og‘ushida,
Ming yurakka tilak bo‘lgan ona tilim,
Keng jahonga kerak bo‘lgan ona tilim.

Asrlarning kaftidasan, duosida,
Har tirik jon sen-la tirik dunyosida.
Jilvakorsan, onaginam ovozida,
Alla bo‘lib qulog‘imda qolgan tilim,
Vatan mehrin qalb qo‘rimga solgan tilim.

Bag‘ringda bo‘y cho‘zar minglab Navoiylar,
Kichik kulbam bezagaydir, navo-kuylar.
O‘z tilini jondan sevar jannatiylar,
Ha, poyingga to‘kilgaydir kavokiblar,
Sarhadlari o‘n sakkiz ming jahon tilim.

Oq sutdagi oq niyatim o‘zingdirsan,
Iymon chizgan gul suratim o‘zingdirsan.
Tangri bergan hur san’atim o‘zingdirsan,
Tilginamga jon baxshida qilgan tilim,
Mangulik sir-sinoatin bilgan tilim.

Minbarlarda xonish qilsam she’rlarimni,
Xalq duosi ochib bergay yo‘llarimni.
Chap ko‘ksimdan tushurmasman qo‘llarimni,

Yaratganni har nafasda aytgan tilim,
Yillar o‘tib o‘z-o‘zimga qaytgan tilim.

Seni aytib, seni tinglab ulg‘ayaman,
Seni sevib, seni eslab mung‘ayaman.
Qara, jajji qizingdirman, mana man,
Ilk bor aytgan so‘zimdasan, ona tilim,
O‘zga emas, o‘zimdasan, ona tilim!

*Gulzoda O'rinboyeva*
*(2003-yilda tug'ilgan)*

## ONA TILIM

Bayramlar ko'p turfa, xilma-xil
Yuragimga yaqindir bari.
Boshim ko'kka yetaveradi
Ona tilim yashnagan sari,
Vatan, ona, tinchlik so'zlarin
O'z tilimda yayrab aytaman.
Navoiy va Bobur g'azalin
Bulbul kabi sayrab aytaman.
Istiqloldan yuksalgan Vatan,
O'zbekiston, elim bor bo'lsin.
Olam sirin bizga o'rgatgan
Baxtim – ona tilim bor bo'lsin.

*Ibrohimjon G‘afforov*
*(2003-yilda tug‘ilgan)*

## ONA TILIM

Dona-dona so‘zlaringdan
Yayrar dilim sururisan.
Borayapman izlaringdan,
Ona tilim, g‘ururimsan.

Navoiydan meros g‘azal,
O‘zing ong-u shuurimsan.
Tabiatdek buncha go‘zal,
Ona tilim – g‘ururimsan.

*O‘lmasoy Erkaboyeva*
*(2003-yilda tug‘ilgan)*

## TILIM

Ko‘ngil qulflariga bejirim kalit,
Qalblarning ko‘zgusi o‘zingsan, tilim.
Jiloda senga teng kelmas marvarid
Sensiz yashamoqlik men uchun o‘lim.

O‘y-u xayollarim sen bilan so‘lim,
Qadring baland bo‘lsin, ey ona tilim.

Ezgu orzularga o‘zing qo‘shqanot,
Sening sehring bilan samoga uchgum.
Quvonchimga torlik qilsa koinot,
She’riyat bog‘iga shodligim sochgum.

Ijod bog‘idagi eng rangin gulim,
Qadring baland bo‘lsin, ey ona tilim.

Mehrimni namoyon qilaman sen-la,
Onam allasidan singgan bayotsan.
Ozor chekkanimda bo‘lasan nola,
Go‘yo tomirimda oqqan hayotsan.

Sen bilan har lahza nurafshon dilim,
Qadring baland bo‘lsin, ey ona tilim.

Shonli tariximga o‘zingsan guvoh,
Toki kelajak ham senda mujassam.
Seni madh etmaslik men uchun gunoh,
Axir, sen har dardga bo‘larsan malham.

Borlig‘im, borimsan, yagona tilim,
Qadring baland bo‘lsin, ey ona tilim.
Tuyg‘ular oldida turibman ojiz,
Kuylab ko‘ngildagi hislar bitarmi?
O‘lmasoy boringni yozsa cho‘kib tiz,
Ta’rifingga qog‘oz, qalam yetarmi?

Senga hurmatdaman ko‘ksimda qo‘lim,
Qadring baland bo‘lsin, ey o‘zbek tilim!

*Gulnora Ahmadova*
*(2003-yilda tug‘ilgan)*

## TA JEN SHEN

*(Hayotiy voqea asosida)*

Mushtakkina tilchi yigitning –
Asl ismi edi Ta Jen Shen.
Xitoy xalqin Shinjoy tomirin
Qoni edi, yurak urishi.

Xitoy tilin jondan sevsa-da,
O‘zbek tili ko‘rkamroq derdi.
Va axiri O‘zbekistonning –
Mashhur bilim yurtiga keldi.

O‘zbek tili oliygohida –
Do‘stlar bilan tanishdi dildan.
Ko‘plab maqol qo‘shib so‘zlardi
Adabiy til, o‘zbek tilida.

Odobi-yu axloqi bilan
O‘zbeklarga mos edi jismi,
Talabalar quvonsin deya –
Tojiddin deb qo‘ydilar ismin.

Oliygohga, aziz do‘stlarga
Et-tirnoqday uyqash bo‘ldi u.
«Tojiddin» deb chorlasalar gar

Dunyodayin kuchga toʻldi u.
Tilimizda shaffof soʻzlardi,
Maqollarni qoʻshar, lek ravon.
Nahot, ruscha soʻzlarsiz udek
Soʻzlolmasa bizdayin avom?

Nahot Ta Jen aytgandek yuksak –
Oʻzbek tili talatoʻp boʻlsa,
Oʻz bagʻridan soʻzlar yoʻqolib,
Ajnabiy soʻzlarga toʻlsa?!

«Yoʻq, bu holat etmaydi davom,
Bunga yoʻl yoʻq!» takrorlar dilim.
Sening soʻzing bayrogʻimday pok,
Unga dogʻlar tushmaydi, tilim!

Sen Navoiy tomirlaridan
Yuragimga tomgan qon, tilim!
Koʻksim uzra mushkin taratgan
Ikki dunyo kechmas jon, tilim!

*Iroda Xolbekova*
*(2004-yilda tug'ilgan)*

## O'ZBEK TILIM

Chet tilini o'rganib endi,
«Yevropeyskiy» hamma o'zicha.
So'ragandim: – Soat nechchi? – deb,
«Ya ne znayu», – deydi yosh qizcha.
Hayron qoldim. O'xshar o'zbekka.
– O'zbekmisiz? – deya so'rardim.
Qizcha hayron boqardi menga,
Men ham javob kutib turardim.
Ust-boshiga e'tibor bersam,
Bir tasavvur qilsangiz edi.
«Ne govoryu po uzbekskiy»,
«Man chunmadim gapizga» derdi.
Chet tilini o'rganib olib,
«Yevropeyskiy» hamma o'zicha.
Unutibdi o'z ona tilin,
O'zbek tilin bilmas yosh qizcha.
To'g'ri gapni aytadi buzib,
«Tushunmadim» deya olmadi.
Eh, o'zicha «Yevropeyskiy»
Bo'lmagan shu qizcha qolgandi.
Chet elda ham boshqa odamlar
Yurarmikin bo'lib «vostochniy».
Rossiyada o'zbekona so'z
Jaranglarmi «takoy zvuchniy?»
Yo'q, so'zlamas o'zga lahjada,
Hurmat qilar o'z ona tilin.

Mayli, ko‘proq til o‘rganaylik,
Kitob o‘qib, olaylik bilim,
Unutmaylik ona tilimiz.
«O‘zbekchani bilmayman», dedi.
O‘zbek bo‘lib keldik dunyoga,
O‘zbek bo‘lib qolaylik endi.

## ULLI ZIBAN

Əo‘ladlar əo‘yel-ha siyinip haqqa,
Seniң hүziriңde jүginisken saqqa,
Dүnyada өziңdey bolg‘an ba patsha,
Xaliq keo‘li atalmish yeң ulli taxtta.

Mərttiң өңiri kөz jasqa juo‘ilmas,
Haqliq өsken topirag‘inan quo‘ilmas,
Xalqimdi bar yetken Ulli Zibanim,
Anasiz buniңday perzent tuo‘ilmas.

Өmir joliң qaliң duman, dao‘illi,
Uran salsaң yerler «Men!» dep tao‘ildi,
Bao‘irladiң өz tiliң, өz diniңe,
Qaraqalpaqta hər yelat, hər ao‘ildi.

Ulli jiyinlarg‘a kirdiң, kirmediң,
Məgar, dəo‘ran atin sүrdiң, sүrmediң,
Xaliq qəlbine sөz nag‘isin toqig‘an,
Haq inami ilahiyda nurmediң?

Kim lipas kiydirse ala-shubarli,
Sol sebepli geyde keo‘liң g‘ubarli,
Həsterlep saqlarsaң ismin xalqimniң,
Danalar dem salg‘an altin tumarli.

Biz kөrmedik bunnan asqan sulio‘di,
Həm kende qilmadiq qulliq qilio‘di,
Janimiz hesh qashan sezinbes bəlkim,
Oniң keo‘lindegi kibi jilio‘di.

Tilge biypəro‘alar yelin oylamas,
Nəkaslar xalqiniң toyin toylamas,
Bul muqaddes dərya tepti me qayir,
Soңira həsiretine tayao‘ boylamas.

Səzdiң nesiybesin urlap jegenler,
Namis tiyiqlarin azmaz yegeңler,
Hər jurttiң atizin basqilap, otlap
Өzi jarli seni jarli degenler.

Təg‘dir əmiriңdi kəp jarip-buzdi,
Ne-ne dəo‘irlerden tattirdi duzdi,
Tarqao‘g‘a taqalg‘an ig‘bal bazariң,
Xalqim sao‘dasinda qaytadan qizdi.

Genjebay aylandi kəsh basi narg‘a,
Yesemurat usi jag‘ista darg‘a,
Ol xaliqtiң zүriyadi yemes ollahiy,
Yeger de kimde-kim tartpasa arg‘a.

Bul til – yel-jurt kəksin shəmen bag‘li yetti,
Gəde dag‘li, gəde o‘ag‘li-shag‘li yetti,
Bəlent minberlerge shiqti jetelep,
Orinbay ballari Jumek, Nag‘metti.

Baslao‘shisi bop soniңday zor istiң,
Miңlap jillar menen diydar kəristiң,
Qaraqalpaqsha səyler ruo‘xiy tili,
Baskakov, Tolstov yeki oristiң.

Aytjan, Kəsherbay at salisti birge,
Dosjan, Abat bunda tikledi irge,
Oraqbay səz terip, Baymurat bulqip,
Shayirliq yosh berdi əbdiqədirge.

Səzden nan jegennių bolsin hadali,
Gəpke turg'an yeldių qalmas nadani,
Təlepbergen, Ibrayim-qos tulg'ani,
Əsirimizdių yetti ulli adami.

Xusniddin kəz aship seni tanidi,
Mədenbay jigerin tilge janidi,
Mamit, Yernazardių səzin kəgertti,
Kəkireklerdių sezimlerge qanig'i.

Abbazdių tilinde səzler saylandi,
Ayjariq kindigi menen baylandi,
Hər biri qas sulio' kibi dolanip,
Ashig'io'-biyqarar yetti Aymandi.

Tileo'bergen qosig'inda təkpelep,
Menmenlikti otirg'izg'an shəkkelep,
Bəlislerde tuo'radių əz payiųdi,
Ornimiz joq sirə sag'an əkpelep.

Hər bir perzent tilin tuo' yetio' dərkar,
Ol syrnikse xaliq tinig'i ilaytar,
Qaraqalpaqsha səylemeseų sao'dirap,
Keo'ildių qumari qayaqtan tarqar.

Yeger, sen joytilsaų… onda xalqių joq,
Xaliqsiz qalsaų manqurtlardan parqių joq,
Onda bul topiraq qalg'ani tilden,
Onda menių bunnan ao'ir dərtim joq.

Ul tuo'mas hayal joq turarin aytių,
Dynya tappas yer joq, qurarin aytių,
Tildi kərkeytkenler gyldey kəgerip,
Qast yetkendi Quday urarin aytių.

Zibaniңnan ismiң tүsirmey tolg‘a,
Urpaqlariңa kөz sүzdirme jolg‘a,
Yelden til, tiliңnen yel үzilmegey,
Yaratqan, xalqimdi qollaygөr, qolla!..

## SӨZLERDIҢ TӘG‘DIRI

Dәhmet qilishinan qan tamip turg‘an,
Sөzlerdiң qayg‘ili qara jillari.
Әjel әydarhasi ashqan aranin,
Olar – xaliqtiң, tildiң dәrtli ullari.

Gүnasi ne bilmes... kimdur, olardiң
Kөp bүlingen yelin jәne bүldirdi.
Yer jүrek, yeң qaysar, yeң sulio‘larin,
Өlim ag‘ashina saylap ildirdi.

Olardiң tәnleri qalanip otta,
Olardi tiriley kөmip tasladi.
Olardi ig‘izdi jirtiq kemeler,
Jag‘islar kөz bolip kөzin jasladi.

Sөz – gүl. G‘umshalarin tүsirgen julip,
Shug‘illiqtiң atqan targ‘il taslari.
Jipek burimlari taslang‘an qirqip,
Jirilip qiyilg‘an qәlem qaslari.

Sөzler – tirrio‘lasip ushqan tirnalar,
Kөk dәpterdey kөkte sapqa dizilgen.
Atqan oqlarinan «Shekaman»lardiң,
Bәhәr qosiqlari-talay үzilgen.

Sөz – ata-anadur, sөz – perzent, әo‘lad
Sөzler – xaliqlardi xaliq yetken xaliqlar.

Dərya, teңiz jiraq, ərmanlar jiraq...
Misli shalshiq suoʻda qalgʻan baliqlar!

Aңshilar iyt salip tүsken izine,
Sөzler – jaoʻtaңlasqan hayran kiyikler.
Hər tөbede, hər say-salada qalgʻan,
Өzlerin umitip qaygʻi-kүyikten.

Aoʻmali-tөkpeli kөshi-kəroʻani,
Izge qaytatugʻin joli kesildi.
Sөzler – tulpar atlar... jali-quyrigʻi,
Təgʻdir taqiminda baoʻday yesildi.

Sөzler – ahioʻ-zarli, ərmanli qosiq,
Olar irgʻagʻinan jaңilisqan sazlar.
Misli suңqar qustay qanati talgʻan,
Misli todalari buzilgʻan gʻazlar.

Ata-babasinan miyras үyinen,
ЫIgʻbal bostaninan quoʻip shigʻildi.
Jeti jat jurtlargʻa yetildi sүrgin,
Tiller kem-kem armaniraq tigʻildi.

Sөzler – kөp shagʻilgʻan taoʻlargʻa uqsas,
Misli jaoʻdirasqan үmitli kөzler.
Olar qayir tepken dəryamiz misal,
Sөzler, sөzler, sөzler... ərmaniy sөzler!

Dөhmet qilishiniң shitnap turgʻanin,
Jəhənge jar salip aytioʻda olar.
Kүldirer, jilatar bul muңli shadliq,
Xalqina-tiline qaytioʻda olar!

## SƟZLER-TUO‘IM, URNAIM

Tug‘irina keo‘limniң,
Uship-qong‘an qiranim.
Sөzler-xalqim, өzligim,
Sөzler-tuo‘im, uranim.

Sөzler mag‘an syrenlep,
Jүregimdi oyatti.
Talay mərte jүzimdi,
Qizilg‘a da boyatti.

Olardiң shөp-tikenin,
Kөkiregimnen otadim.
Sөzler-pүtkil bolmisim,
Sөzler-Anam, o‘atanim.

Sөzler bəhər pasilim,
Jadirag‘an jazimday.
Kөrmedim xosh qiliqti,
Oniң jilo‘a-nazinday.

Sөzler hesh, hesh ayirilispas,
Qiyametlik doslarim.
Olar kibi hətteki,
Tүsinealmas qostarim.

Sөzler yerke ballarim,
Shiyrin-sheker pallarim.
Qəo‘yeterde jүrgenim,
Sorap arzi-hallarin.

Joq olarday qizg‘ini,
Atishuo‘li altinniң.

Aqil-oy, kүsh-jigeri,
Sөzler-jani xalqimniң.

Jigersizler өzlerin,
Bolar og‘an janisa.
Ug‘a biler yel-jurtin,
Sөzlerdi duris tanisa.

Ao‘irimdi iyinlep,
Kөterisken qoldasim.
Shinin aytsam joq meniң,
Sөzden jaqin joldasim.

Tal qarmang‘an paytlarim,
Sozg‘an talay qol ushin.
Jollarinda men oniң,
Sipsekeshpen sol ushin.

Malip jazdim sөzlerdi,
Kөksimdegi siyag‘a.
Jetildirip qanatin,
Ushsa,-dedim qiyag‘a.

Oynao‘lari ot janip,
Sol kүygelek kөzlerdiң.
Alg‘an aqil-huo‘shimdi,
Bendesimen sөzlerdiң.

Arzio‘-үmit atalmish,
Altin kəmar belime.
Sөzler qaliң ləshkerim,
Qorg‘an bolar yelime.

Sulio‘lig‘i sonshelli,
Aylandirg‘an basimdi.
Quo‘anishqa g‘arq əylep,
Təktirgen kəz jasimdi.

Səzler misli duo‘aday,
Tag‘ip ətken tumarim.
Oni sүyip-qushio‘dan,
Tarqamas hesh qumarim.

Eh, men usi səzler dep,
Qansha giryan jүrmedim.
Aylansin dep jaling‘a,
Ushqinlatip үrledim.

Xalqim qəlbi bezelmish,
San-əlo‘an səz gүline,
Θtsem kerek ərmanli,–
Теңео‘ tappay Tilime.

## ANA TILIM

Ana tilim-qəlbiŋ nurgʻa saqiy dim,
Miŋ jirlasam tүoʻyesilmes təriypiŋ.
Sen jetkerdiŋ əyyem əsir bitigin,
Anam Tumaristiŋ mərtlik tariyxin.

Sen jetkerdiŋ Yolliqtegin xatlarin,
Babam Kүlteginniŋ ɵlmes atlarin.
Istomin, Bomin shah, Eltarash ismin,
Dүnyani titiretken mərtlik daŋqlarin.

Alip keldiŋ Spitamen jүregin,
Jetistirdiŋ Ormambet biy tilegin.
Maman, Aydos ərmanlarin siŋdirip,
Kүshli yettiŋ Yernazardiŋ bilegin.

Sen arqali ɵtmishimiz nur shashar,
Baba miyras arzioʻ-үmit gүl ashar.
Jazip atir jaŋa əsir tariyxin,
Sen arqali bilim alip bul jaslar.

Ana tilim basimdagʻi gүl tajim,
Sen arqali yelim jayar qulashin.
Sen bar bolsaŋ ɵtmishim həm bүginim,
Keleshegim sɵndirmeydi quyashin.

Sen bar bolsaŋ qaraqalpaq bar bolar,
Ala moynaq duoʻtardagʻi tar bolar.

Sen bar bolsaң haoʻazimiz məңgilik,
Hər perzentiң qatardagʻi nar bolar.

Məңgi aman bol tillerimniң zibani,
Seni ardaqlar gʻarezsizlik zamani.
Qaraqalpaqtiң tasti kesken səzi bol,
Ana jurttiң nurgʻa tolsin jamali.

## ANA TILI TOLGʻANISLARI

### (dүrkim)

### 1
### QARAQALPAQSHA

Jaqinda sirt yelde bolgʻan bir konferensiyada «qaraqalpaq tili jogʻalip baratirgʻan tillerden» degen məsele qozgʻalipti. Bugʻan shidamay milletimizdiң qaysidur bir mərt perzenti səzge shigʻip, sol pikirlerdi aniq dəliller menen biykarlapti. Ol insanniң kimligin bilgenimde yedi...

Iңgəlap jiladim besikte jatip,
Anam həyyioʻ aytti sonda jubatip,
Səylemeydi anam tilin shubartip,
Tiңlatqan həyyioʻi – qaraqalpaqsha.

«Tүlkishek»ten tilim shiqti bildirlap,
Qasharman oynadiq, shaoʻip patirlap,
Qolgʻa tүsken oʻaqta biz qaoʻinlar urlap,
«Qaytalanbas, yendi...» dedik – qaraqalpaqsha.

Alislassaq usi tilde sharlaymiz,
Qargʻasaq ta usi tilde qargʻaymiz,

Dүnya biliң, biz barmiz – jogʻalmaymiz,
Joqlaymiz sizlerdi – qaraqalpaqsha.

Bul tildiң sөyleytugʻin өz xalqi bar,
Tүrkitekli – tas basarliq daңqi bar,
«Jogʻaladi» deoʻge kimniң haqi bar,
Jurtqa səl өkpem bar – qaraqalpaqsha.

Turmasa da jurttan ziyat jarqirap,
«Joq bolajaq» degeni yemes – bul biraq,
Kүn kelgende үstime taslap topiraq,
Xalqim jilar, joqlap –qaraqalpaqsha…

## 2
## TIL KARDIOGRAMMASI

2018-jil Qazan universitetinde bolip өtken xaliqaraliq seminargʻa pedinstituttan үsh qiz qatnasti. Olardiң qaraqalpaq yekenin yestiken bir ukrain qizi hayran bolip olargʻa bilay degen yeken: «Bizler qaraqalpaq tilin sabaqliqlarda өli til dep өtip jүrmiz gʻo….»

Millet ruoʻxi qanimizgʻa tarap tur,
«Tildi joytpa!», babam kөkte qarap tur,
Sogʻip tur ma? Jүregiңe qulaq tүr,
Til de solay өmir sүrioʻi kerek.

Usi til kөz aship kөrgeniң seniң,
Jilap-siqlap, oynap-kүlgeniң seniң,
Tiliң өli dese өlgeniң seniң,
Buni jeti əoʻladiң bilioʻi kerek.

Tirishilik-iyretilgen siziqlar,
Infarkt yeter tildi tili buziqlar,
Aylanip tabar dep kүter qaziqlar,
Bassiz ketken atlar kelioʻi kerek.

Jүrek gүrs-gүrs, shүykildeydi apparat,
Tiri bolsaң tiri tilde daңq tarat,
Impuls bar ma- jatpa biykar jalt qarap,
Tiliң dүnyaliq tilge kirioʻi kerek.

Oʻaziypa tur məңgilikke yeңseңde,
Taza søyle үyde, dүzde, keңseңde,
Qulpitasiңda kүn kelip ølseң de,
Qaraqalpaqsha søz turioʻi kerek!

## ONA TILIM

Bugun tosh yurakdan muzdek so‘zlarni
Qog‘ozga to‘kasan, yirtasan boshqa.
Kecha qon yurakdan sizgan bo‘zlarni
Otalar tiz cho‘kib chekkandi toshga.
Asriy tosh bitikni yirtib bo‘lmaydi,
Toshlarda gullagan tilim o‘lmaydi.

Qirrali tildir bu, nayzali tilim,
Yulduz kiprigiday maysali tilim.
Qaldirg‘och quyrug‘i kabi ingichka,
Andalib kuyiday mazali tilim.
Bu tilni unutgan odam bo‘lmaydi,
Shu til omon ekan, millat o‘lmaydi.

U Yusuf Xos Hojib yiqqan hosilim,
U Ahmad Yugnakiy to‘plagan ilm.
U menga Rabg‘uziy so‘ylagan qissa,
U – dur, til ostida asragan elim.
Usiz bolalarning baxti kulmaydi,
Allasi bor ulus aslo o‘lmaydi.

U yangrar betoqat shudring sasida,
Jaranglar quyoshning ilk nafasida.
Tovlanar Alisher baytlari aro,
Barq urar Temurbek dag‘dag‘asida.
O‘tganlar dunyoga qayta kelmaydi,
Tiling ozod bo‘lsa diling o‘lmaydi.

Umid ul, har kishi tilchi bo‘lgaydir,
Tildan ko‘prik solar dilchi bo‘lgaydir.
Dunyo tillarin-ku joyiga qo‘ygay,
O‘zbakiy til bila elchi bo‘lgaydir.
O‘zbekcha o‘ylaydi, dilni bog‘laydi,
O‘zbekcha tush ko‘rsa o‘zbek o‘lmaydi.

## TILIM

O‘rxun daryo bo‘yida xayol surgan, bitiktosh,
Bilga xoqon so‘zidan naqshlar qurgan, bitiktosh.
«Mangulik el» xitobi muhrlangan ko‘ksingga,
Kultegin mardligidan so‘ylab turgan, bitiktosh!

Bitiktoshdagi bitik – ayni mening tilimdir,
Olamni lol qoldirgan juda katta bilimdir.
Necha asrlar bo‘yi jumboq bo‘lib odamga,
Azal, o‘tmish hufyasin ochib bergan ilmdir.

Qo‘rqit ota qo‘bizi mungli-mungli yig‘laydi,
Bo‘zlagan ohanglari yuragimni tig‘laydi.
«Qo‘rqit ota» kitobin o‘qisam men ruhlanib,
Yuragim qutisiga g‘ururlarim sig‘maydi.

Mangulik umr izlab, hech tolmagan, Qo‘rqitim,
Go‘zal hayotni izlab, yetolmagan, Qo‘rqitim.
«Qo‘rqit ota» kitobin qoldirib avlodlarga,
Tilni meros qilmasdan ketolmagan, Qo‘rqitim.

Sharqning Arastusidir al-Muallimas-soniy,
Falsafa donishmandi hayratda dunyo foniy.
Yetmish zabon bilgiri, ustoz mantiq ilmidan,
Nomi mashhur olamga, buyuk siymo Farobiy.

Tilshunoslik ilmidan yozgan har bir sabog‘i
Hali hanuz tilimning e’tibori, ardog‘i.
Har sahifa betakror, har sahifa bebaho,
Tilim xazinasidan yashnaydi ko‘nglim bog‘i.

Yassaviy piri komil tariqati islomdir
Tasavvuf g‘oyalari xalq dilida ikromdir.
Ilmi g‘ayb-u xaqoyiq-hikmatlari mazmuni,
Har yozilgan misrasi g‘oyat nodir ilhomdir.

Dunyo bilimlarining bebaho durdonasi,
Yassaviy asarlari dinimning nishonasi.
Mening tilim obro‘si, mening tilim faxridir,
Sultonim kitoblarin oltinga teng donasi.

«Devoni lug‘otit-turk» hamda «Qutadg‘u biliq»,
Bularning har ikkisi juda qimmatli bitik.
Dono Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Bolasog‘uniy,
Shu javharlar tufayli mening tilim ham tetik.

Ilmning oltin asrida gul ochdi turkiy tilim,
Tilning oltin qasrida nur sochdi turkiy tilim.
Barcha tillardan go‘zal, barcha tillardan a’lo,
Koshg‘ariyning vafsida sir ochdi turkiy tilim.

She’riyat osmonining oftobi – Mir Alisher,
Bulbul ila sirlashib, yozgandir navoli she’r.
Xamsa, g‘azal, muxammas – shahanshohdur nazm aro,
Tinglab qo‘shiqlarin xalq, yurakka davoli der.

Turkiyning bir butog‘in o‘zbek tilim olgandir,
Navoiy shul tilimga o‘zi asos solgandir.
Sohir misralar bitib, nazm shohsupasida,
Tilim go‘zalligiga o‘zlari lol qolgandir.

Tilim, qancha zamonlar suronlardan o‘tgansan,
Endi salobat to‘kib, chinor bo‘lib ketgansan.
Viqor, g‘urur yarashgan, mag‘rur o‘sgin, chinorim,
Mashhurlik cho‘qqisiga allaqachon yetgansan!

Ardoqlayman o‘zingni, har harfingni so‘zingni,
Xorlansa bitta misrang, yosh to‘ldirar ko‘zimni.
Tilim, faxrimsan doim, sen-la biturman ash’or,
Tilim borsan, baxtliman, shod sezaman o‘zimni!

*Qozog‘iston, Sayram*

## TILIM

So‘zni sovurganni dardi yo‘q derlar,
Bezabon ko‘ngilga sig‘armidi qil.
Oldingdan oqqanin qadri yo‘q derlar,
Xorijda onadek sog‘intirar til.

Boshimizdan o‘tdi miltiq o‘qtamoq,
Molimiz to‘kildi xohishlariga,
Yetti farang tilda meni maqtasa,
Teng emas otamning so‘kishlariga.

Onamdan shu tilda olganman bilim,
Shu tilda qo‘l urdim misra, g‘azalga.
Sen ila ishq izhor qilganman tilim,
O‘shal armon bo‘lib qolgan go‘zalga.

Sen bilan kelishdim do‘stlik ahdida,
Sen bilan Rahmon deb luqmamni yedim,
Sen bilan «Oh otam» dedim vaqtida,
Sen bilan o‘g‘limni «Arslonim» dedim.

To‘qson ikki qavmin sochib jahonga,
Qayg‘urib yotadi Turonim dili.
Turklarni chorlagan bir dasturxonga,
Dillar tarjimoni O‘zbegim tili.

Hirotim bag‘ringda yotibdi buyuk,
Uning xoki, netay, mayli, seniki.
Yo‘lda qo‘shilgan so‘z, aralashma yo‘q,
Hazratimdan qolgan meros meniki.

Har turkiy qalbiga mudom joylasa
O‘zligi, shonini hamda elini,
Ko‘rasan, ey jo‘ra, Xudo xohlasa,
Do‘nyo o‘rgangaydir o‘zbek tilini.

# *Ma'mura Muhammad*

## ONA TILIM!

Madhing meros ul Navoiy zamonidan,
Aylanayin burro so'zu, kalomidan
Yovlar kelsa g'animlarning tomonidan,
O'z o'rnini yo'qotmagan dono tilim.

Marjon kabi tizgilasam, durdan go'zal
Ta'rifingni keltirsam gar, paydo g'azal.
Noming ming yil o'tmishlarga bitgan azal,
Turk zabonim, ming tildan ham a'lo tilim.

Yangrar noming eng nufuzli minbarlarda,
Bizga yo'ldosh xayrli ish, amallarda,
To'kilsang bir chiroy ochib chamanlarda,
Har bir shukur, zabonimda oshno tilim.

Temuriylar avaylagan qarog'imsan,
Uvaysiydek nozik nihol yaprog'imsan,
Yo'llarimni yoritgan nur, chirog'imsan,
O'zing sarbon, kelajakka poshsho tilim.

Ortaversin kuch-qudrating, salovating
Po'latdayin mustahkamdir matonating,
Toshsin dengiz to'lqiniday shijoating,
Zarra bitik ichra ulkan ma'no tilim.

Beshikdayoq sasing tinglab totinganim,
Chorlar bo‘lsang shodon kulib talpinganim
Dardim to‘kib, hamroh etib ovunganim,
Osmon qadar sharaf shoning, samo tilim.

Zarra bitik ichra ulkan ma’no tilim!

## ONA TILIM

Ona tilim – sirli tilsim, sehring ohanrabo derlar,
Lutf aylasam fasohating qalbga mehrigiyo derlar.

Uch daryodan suvlar ichib evrilgansan ummonlarga,
Bag'ring to'la zabarjaddir, qiymati bebaho derlar.

Necha zamonlar almashib ko'ksing tig'ga bo'ldi nishon,
Johillar jabr-u sitamni ko'rmish senga ravo derlar.

Lek sinmading, toblanding ko'p kurash degan maydonlarda,
Seni hech kim o'zbegimdan qilolmas mosuvo derlar.

Zavol bilmas oftobim sen, o'tda yonmas kitobim sen,
Ko'hna sandig'ingni ochsam, sochilur zar-ziyo derlar.

Tarixingga tutdi ko'zgu «Turkiy so'zlarning devoni»,
Ahli jahon shundan beri Koshg'ariyni daho derlar.

Yassaviyning hikmatlari komillikdan so'ylar hamon,
O'git bo'lib avlodlarga berur tinmay sado derlar.

She'riyatning saroyiga Navoiyni etding xoqon,
Tahsin aytib, ibrat olar shoiringdan dunyo derlar.

Senda g'azal bitdi Mashrab, yurak-bag'ri chunon o'rtab,
Ilohiy ishq daftariga yozib go'zal insho derlar.

Mirtemir so‘z tanburini chertib olqish oldi eldan,
Ohanglari to‘rg‘aylarga o‘rgatmish kuy-navo derlar.

Taroshlanding olmos yanglig‘ Usmon Nosirning nazmida,
Bahra olgan har bir ko‘ngil bo‘lur lol, mahliyo derlar.

Baxshilar aytsa termalar, yurakda hislar o‘rmalar,
Ergash Jumanbulbul bobo bermish so‘zga jilo derlar.

Momom aytgan matallardan gavhar terdim dona-dona,
Bobomning askiyasidan topdim turfa ma’no derlar.

Ona tilim, qadring oshib, Himolaydan baland bo‘lgay,
G‘ururi bor vatandoshlar bo‘lmasa beparvo derlar.

Mirzo Aktam, o‘z tilingni xuddi nondek aziz bilsang,
Navoiy ham jannatlarda qilur quyuq duo derlar.

## ONA TILIM

Ulug‘lik nima u?
Ko‘kda kezingan,
Qushning parvozimi bodi saboday.
Mening yuksakligim – samo ahlidan:
Bamisli parlari oltin Humoday.

Har bitta kamoling – ummon injusi,
Shabnamdek qalqiydi hulvo labida,
Abdulla Oriflar qalam tebratgan,
Ona tilim, senda yashab, kamida.

Purviqor tog‘larning giyohin emib,
Sayqallanib, tonggi samo nurida,
To‘lib-toshgan obi hayot misoli,
Ruhim ozug‘isan, hayot yo‘lida.

Shaning ulug‘ladi, ash’orlar bitib,
Navoiy, Forsiylar ichida yakto,
Farhod- Shirinlari g‘azal o‘qiydi,
Sof turkiy tilida so‘zlatgan, daho.

To‘zmading, shamollar to‘zg‘itolmadi,
«Forsiy»ni yoqlagan shiorlari lol.
Sen mayoq misoli falak burjida
Eng yorug‘ yulduzga sirlashgan hilol.

Jadidlar ozodlik istagan yurtga,
Erksevar avlodman toblangan, dilim.
Qodiriy,Cho'lponlar nafasi qolgan,
Qutlug' kalomingda, jon ona tilim.

Buyuk turkiy tilning buyuk o'zani,
O'zbekiy zabonim, romman o'zingga.
Shavkat Rahmonlarning nafasi kezar,
Shijoati kezar, har bir so'zingda.

Quyoshsiz gulzorning ifori cho'kar,
Jilosi tark etar har bir chamanni,
Quyoshday porlagin, ey ona tilim,
Yuksaltir yuksalgan buyuk vatanni!!!

* * *

Qadrim mening qayda qoldi, qadrim, ona
Bolalarim yot tillarda chuldiraydi.
Beqasam to‘n, oybaldoqlar mendan tonar,
Ona tilim bir burchakda mo‘ltiraydi.

Bo‘yni to‘la unvonlar-u shonlari bor,
«Davlat tili» oliy rutba, unvoni bor.
«Oh, tilim» deb jon bergan ne jonlari bor
Ona tilim bir burchakda mo‘ltiraydi.

Yassaviylar hikmatlarin sochgan tilim,
Qodiriyning jonidan qon ichgan tilim,
Qaqnus misol olovlardan kechgan tilim
Bugun hayron, bir burchakda mo‘ltiraydi.

Qayga borsa eshik yopar korchalonlar,
Zamon ruhi asli farang, rumo deydi.
«Qani menga jon baxsh etgan Abdullolar?!»
Ona tilim bir burchakda mo‘ltiraydi.

Quyundayin bosib kirar ajnabiy so‘z,
Qanday asray, yuragimga berkitaymi?
Mahshar chog‘i Navoiyga nima deymiz?!
Ona tilim, bir burchakda mo‘ltiraydi...

## ONA TILIM

Esimda: ilk bahor. Qorong‘u xona,
Mittigina edim, mas’um, begunoh.
O‘shanda men ilk bor degandim «Ona»,
Shundan boshlab menga o‘zingsan hamroh.
Sen o‘zing sirdoshim, do‘stim, sevgilim,
Dunyo turguncha tur, jon ona tilim!

Maktab. Dilda umid, ko‘zlarda uchqun.
Yurakda silkinish va ilk muhabbat,
Shamning yorug‘ida o‘tgan bedor tun,
Sen bilan yozgandik uzun enlik xat.
Sen o‘zing tarjimon, elchim, vakilim,
Dunyo turguncha tur, jon ona tilim!

Onalar bayrami. Qo‘lda guldasta,
Tilimda sen bilan yozgan ilk she’rim,
Quvonchdan yig‘lagan onam der asta:
Tilingdan aylanay, arslonim, sherim!
Sen o‘zing ekansan baxtga kafilim,
Dunyo turguncha tur, ey ona tilim.

Avgust. Baxtni qarang, bo‘ldim talaba,
Osmonlar musaffo, kulyapti olam.
Otamning shu so‘zi edi g‘alaba:
Sen mening faxrimsan, yashavor, bolam!
Bildim: yuksaltirar insonni bilim,
Dunyo turguncha tur, jon ona tilim.
Kuz keldi. Maktabda birinchi darsim,

Ko‘k eshik, poyimda yashil poyandoz.
Jajji bolajonlar qilishar ta’zim:
Assalom alaykum, hurmatli Ustoz,
Sen bilan charog‘on borar manzilim,
Dunyo turguncha tur, jon ona tilim!

Bugun senga aytib olay rahmatlar,
Seni olqishlayman, ko‘ksimda qo‘lim.
Yuksalgin, ko‘rmagin endi zahmatlar,
Ayyoming muborak, jon ona tilim!

## *Nurjahonbegim Usmonova*

* * *

Sevmoqni sevilmoqni
O‘rgatib bo‘lmagandek,
Birovning kafaniga
O‘ranib bo‘lmagandek.

Ko‘ngli begona do‘stni
«Biz» qilib bo‘lmas ekan.
«Vatan»ni o‘zga tilda
His qilib bo‘lmas ekan.

## ONA TILIM

So‘zla, hoy dudug‘im, deganda onam,
So‘zlolmay vayrona bo‘lganda dilim.
Shunda sen berganding ilk bora yordam,
Ona deb aytishga, ey, ona tilim.

Savolga liq to‘la bilsang bu hayot,
Ularga javobdir bir dunyo bilim.
Sen sabab ularni o‘qib oldim yoq,
Rahmatim qabul, et ey, ona tilim.

O‘z tiling bo‘lgani qanday yaxshi, soz,
Quvonchda oyog‘im, hatto kokilim.
Chet elda eshitsam o‘zbekcha ovoz,
Qizg‘anib ketarman, ey, ona tilim.

Jahon minbaridan yangrama, mayli,
Bu uchun yuragim bo‘lmaydi tilim.
Faqat bo‘lganida yurtda xalq sayli,
Jaranglab tursang bas, ey, ona tilim.

* * *

Maktab chog‘i to‘g‘ri yozib yurgandingiz,
To‘kis edi bilinmagan hech kamingiz,
Bilolmadim endi qaydan o‘rgandingiz,
Qay qalamdan qolayapti bunday izlar,
Tilimizni yerga urmang, yigit-qizlar.

Aytar so‘zim, uzr, sizga ketsa tegib,
Qadri uchun qo‘ysak, yaxshi, alam chekib,
Ustozingiz qo‘yayapsiz boshin egib,
Chalasavod qilmagandik sizni bizlar,
Til qadrini yerga urmang, yigit-qizlar.

Allambalo so‘zlar qo‘shib yozayapsiz,
Suhbat qurib, yana xandon otayapsiz,
Til qadrini har o‘tganga sotayapsiz,
Bilolmadim, bu ketishda neni ko‘zlar,
Tilimizni ermak qilmang, yigit-qizlar.

Harflarni yeb qo‘yasiz och boladay,
So‘z o‘rtasi son turadi gulloladay,
Til sha’niga tuyiladi bu ig‘voday,
Ayb bizda, ko‘rmaganga oldik bizlar,
Til qadrini yerga urmang yigit-qizlar.

Aql bo‘lib yozdim sizga shu to‘rt qator,
Mening ham eh, yozganimda xatolar bor,
Men ham sizdek bittasiman chin aybdor,
Aytsam tilim, aytolmasam dilim muzlar,
Til qadrini yerga urmang, yigit-qizlar.

So‘z sultoni Navoiyda bir hikmat bor,
O‘z tiliga ixtiyorsiz, chin nobakor,
So‘z ham san’at, ijodida bo‘lmang battol,
Odob-axloq kamolida zamin so‘zlar,
Til qadrini yerga urmang, yigit-qizlar!

## MILLAT TILI

So‘z sizniki minbarlarda so‘zlang, mayli,
Ig‘vo qiling bir xalq dilin tilib qo‘ying.
Ma’lumot-chun aytay ichim yongan payti
Millatimning tili o‘zbek, bilib qo‘ying!

Bu zaminda til deb ig‘vo qilmaydilar,
Maqsad ayon bo‘lsa tog‘dan kelmaydilar,
Bizda hech bir onaga sen demaydilar,
Millatimning tili o‘zbek, bilib qo‘ying!

O‘z tilida so‘zlamoqlik illat emas,
O‘zligini asramoqlik illat emas,
Yot tillarda so‘zlashgan el millat emas,
Millatimning tili o‘zbek, bilib qo‘ying!

To‘g‘ri, har kim uchun millat birdek emas,
Ba’zan g‘arib insonga shoh quldek emas,
O‘z tilini unutganlar o‘zbek emas,
Millatimning tili o‘zbek, bilib qo‘ying!

Odil el bu, qonuni xos adllarga,
Mansabini berar shaxdi dadillarga,
Bag‘ri to‘la millatsevar kadrlarga,
Millatimning tili o‘zbek, bilib qo‘ying!

O‘tmish guvoh, xalqimga xos mard bo‘lishlik,
Ahli ilm dengiziga g‘arq bo‘lishlik,
Tarqoqlikmas, biling bunda xalq bo‘lishlik,
Millatimning tili o‘zbek, bilib qo‘ying!

Til deb yongan Qodiriy-u, Navoyimiz,
Til deb yongan ariza-yu davoyimiz,
O‘zbek xalqi buyuk xalqdir, anoyimas!
Millatimning tili o‘zbek, bilib qo‘ying!

## KECHIB BO'LMAS ASLO, VATANDAN, TILDAN

Bu qanday kun bo'ldi,
qanday telbalik?!.
Borlig'imni bir dard ezadi sim-sim.
Qadrimizni, nahot shuncha past etdik,
Cho'k tushib yig'laydi, oh, ona tilim!

Tilimizning dili og'riydi bu kun,
Alamdan yuragi bo'lmoqda xasta.
Navoiy dod solar, yig'laydi xun-xun,
Bo'lgancha ko'p sayoq so'zlardan zada...

Shahar, qishloqlarga kirsang, vo ajab,
Chet so'zlar yoqangdan tutadi – dushman.
Xorijga keldimmi deysan adashib,
Adashib qoldimmi O'zbekistondan!..

Tilimiz, o axir, guldanku nafis,
Nahot, alishamiz uni xorlarga?!
Tilni cho'loq etgan imonsiz, beyuz
Kimslarni ossang arziydi dorga.

Men ham shoirman, deb ko'krakka urib,
Ba'zilar past etar tilning qadrini.
Alamdan yuraging ketadi bujib,
Qo'lda tutganing-chun ular she'rini.

Tun-u kun nashtarlar sanchilar jonga,
Hadik, qo‘rqinch qamrab olar dilimni.
Hayhot, odamizod tamom unutsa
Beshikda o‘rgangan ona tilini!..

Iltijo etaman toki bor nafas:
Kechmangiz onadan, Vatandan, tildan!
O‘z tilin xor etgan, unutgan har kas,
Aslo ko‘karmasin, qolishsin tildan.

## *O‘ktamoy Xoldorova*

* * *

Ro‘yolar bir kuni rostga do‘nadi,
Yoradi sevinchning yuraklarini.
O‘chirib tashlaydi dilgir ko‘zlardan
Qayg‘u va nafratning suvratlarini.

Tinar loyqalangan qora xotirlar,
Qonimizda ne bor, bari qaytadi.
Olis o‘tmishini sog‘inar kunlar,
Maysalar turkiyda qo‘shiq aytadi.

U kuni yupatib bo‘lmas yurakni,
Yolg‘onlar hayratdan qoladi muzlab.
Xotiraga ketgan ulug‘ ona til
O‘z yurtiga qaytar chorig‘in sudrab.

## *Farzona Ro'ziboyeva*

* * *

Juda ham qiziq-da, bu tush degani,
Faqat unda bo'lar mo'jiza ayon.
Sira ham ushalmas orzu ekanin
Go'yo haqiqatdek etar namoyon.
Tushimda ko'ribman ajib afsona,
Navoiy davrida paydo bo'libman.
Aylanib-aylanib oxir pinhona,
Saroyda ekanim keyin bilibman.
Saroyga kirdim-u, bo'ldim hayron-lol,
Sababi, ularning mashhur podshosi
Murda kabi yotar hushsiz va behol,
Ko'z yosh to'kar tinmay saroy a'zosi.
Podsho sog'ayishi uchun har vazir
To'planib o'ylarmish, qolmay madori.
Oxiri bir fikr bo'libdi manzur
Topishibdi eng afzal, ma'noli dori.
Olib kelishibdi go'zal Hirotdan
Ilm-u bilimga kon Navoiyni.
Podsho tug'ilgan o'z chaman bog'idan
Keltiribdi go'yo firoq kuyini.
Navoiy aytibdi: «Aziz birodar,
Podsho qachon bo'ldi yurtidan yiroq,
Vazir dedi: «U asr barobar
O'zga yurtda yashar, aylabon firoq.
Navoiy podshoning oldiga bordi
Va o'qiy boshladi sehrli g'azal,
Shu onda podshoga jon kirib birdan,
Debdi: «Ona tilim, o'zingsan go'zal».
Tushimdan chiqardim ko'p-ko'p xulosa,

Men ona tilimga qilay jon fido.
Bugun ona tilim nogoh yo‘qolsa,
Ertaga yashashga emasman rizo.
Mayli, g‘arib bo‘lsin, mayli, behasham,
Lekin men uchun u aziz va buyuk.
Butun olam uzra, yangramasa ham,
Menga onam kabi muqaddas, buyuk.

## ONA TILIM

Daraxtlar shivirlar o‘z tillarida,
Yaproqlar qatidan to‘kiladi nur.
Qushlar ham roz aytar o‘z tillarida,
Jilg‘alar so‘zlasa qilaman huzur.

Menga ona tilim singgan yoshlikda
Onamning betakror allalaridan.
Menga ona tilim singgan yoshlikda
Buvimning beqiyos yallalaridan.

Ona tilim! Qalbing qo‘rini ochding,
Beruniyni bildim, Sinoni bildim.
Dilimga tafakkur nurini sochding,
Aytmatovni bildim, dunyoni bildim.

Sening qudratingdan boshladim hayot,
Rumiy eshigini ochmoq istagim.
Mashrab she’rlaridan men topib najot,
Nafsning lashkaridan qochmoq istagim.

Sen sabab shoirlar nigohin ko‘rdim,
Halima qalbida iz bo‘ldim, tilim!
Muhammad Yusufdan qizg‘aldoq olib,
Toshkentda Oydinga qiz boldim, tilim!

Har so‘zni qo‘llasam senda bari jam,
Sening quchog‘ingda erkinman, tilim!
Har bir so‘z beradi yangi jilo, ta’m,
Ajib sayhoningda epkinman, tilim!

Sening ohoringni to‘kmoq bo‘ldilar,
Ayirmoq bo‘ldilar sening belingdan.
Yuragingning nomi, ezgulik, quyosh,
Axir, ajralmading millat, elingdan.

Bugun jahon uzra bosamiz qadam,
Endi uchmoq erur o‘zbekning gali.
Yangi Saidalar, yangi Halima,
Yangi Abdullalar keladi hali.

Hali kelajakdir avlodlar qati,
Dunyoda sendan-da til yo‘qdir boyroq.
Olamda yashasa o‘zbek millati,
Jahon minbariga qadaymiz BAYROQ!

# *Bahodir Otash*

* * *

Tilim, tilim, ona tilim,
Cho'qqidasan, usting yupun.
Junjikasan.
Ko'kda oftob, garchi yaqin,
Bermas iliq, boqmas holing.
Ko'z tikasan.
Butun tanang ilma-teshik
Etaverib esgan yellar,
Ochirmas ko'z.
Suyanmoqqa qoyang bo'shliq,
Oyoq tagi zamin toshliq,
Atrofingda jarlik tubsiz,
Ahvolingdan, oh, bo'g'zimga
tiqilar bo'z...

Tilim, tilim, ona tilim,
Dilim bo'ldi tilim-tilim.
Seni qanday asrab qolay?
Miq etmasa o'zim elim...

## OG‘AJONIMNING ONAJON TILI

Karvon tortgan ne asr-u zamondan,
To‘zg‘ib ketmay omon chiqqan surondan,
Qonga qondosh, jonga jondosh zabonsan,
Sen Bobur, Munis, Ogohiy og‘a til.

Mir Alisher kuyga solgan navosan,
Amirqoni ochgan buyuk dahosan,
Turkiy olam aro qutlug‘ sadosan,
Ahli Turon zamin, vodiy, voha til.

Senda farmon bitib amir-u xonlar,
Dunyoga dong taratmish Sohibqironlar,
Yulduzni so‘zlatib ilm-u irfonlar,
Ulug‘bek zakosi, buyuk samo til.

Mashrabning nolasi, Qodiriy ohi,
Qancha sitamlarning bo‘lding guvohi,
Yiroqda qolmish ne ulug‘lar xoki,
Meros Odam Ato, Momo Havo til.

Tug‘ishgansan qoraqalpoq qardoshga,
Dildoshlar tillashadi sirdoshga,
O‘xshab bir indan chiqqan qaldirg‘ochga,
Jo‘r bo‘lishib cho‘g‘irlashi jilo til.

Sen-la Alpomishlar eshitib alla,
Yuksalmish millatim shoni bu palla,
Minbarlarda mangu yangra baralla,
Ulug‘ og‘amlarga ulug‘ Ona til!

## *Shoira Davletova*

* * *

Jahon ichra tillar aro o‘z o‘rni bor,
Berdaq bobom kuylab, bitmishdir ko‘p ash’or.
Sadosi tillarda yangraydi betakror,
Qoraqalpoq tilim, madhing ta’rif etsam.

Sho‘manayda Guljahonday zo‘r qizi bor,
Tunlar uyqu bilmay, hayyuv aytar bedor.
O‘z tilida mehrin qo‘shib kuylar alyor,
Qaraqalpoq tilim, madhing ta’rif etsam.

Yashayapsan qancha asr-u dovon oshib,
Yangrayapsan elning tillarida jo‘shib.
Mehrim ortar senga bu kun to‘lib-toshib,
Qoraqalpoq tilim, madhing ta’rif etsam.

Quvonchboying faxri erur Qorao‘zak,
Ilmi bilan butun elga bo‘ldi o‘rnak.
Senga bo‘lgan muhabbati, mehri bo‘lak,
Qoraqalpoq tilim, madhing ta’rif etsam.

Qoraqalpoq qizing oqila Aygul,
Shunchalar pokiza, shunchalar sofdil.
So‘zlarin eshitib yorishadi dil,
Qoraqalpoq tilim madhing ta’rif etsam!

Bugun chiroy ochdi ko‘rkam shahrim Mo‘ynoq,
Jamilangiz menga jondan suygan o‘rtoq.
Har gapida berar bizga ta’lim, saboq,
Qoraqalpoq tilim, madhing ta’rif etsam!

Xalq arzin tinglaydi qizing Miyrigul,
Topgaydir chorasin har ishning mushkul.
Insonga baxsh etar quvonchlar butkul,
Qoraqalpoq tilim, madhing ta’rif etsam!

Barchamizga aziz, muqaddas shu tuproq,
Yuz o‘ttizdan ziyod xalqlar yashar inoq.
Tilimizning kelajagi bo‘lsin porloq,
Qoraqalpoq tilim, madhing ta’rif etsam!

Aslida, bittadir, bir xalqim ildizing,
Men ham seni sevgan bir Shoira qizing.
Porlab tursin o‘chmas to abad yulduzing,
Qoraqalpoq tilim, madhing ta’rif etsam!

Sulton Uvays, Qoratog‘dan oshib borsak,
Shodliklarga to‘lar ko‘nglim suhbatlashsak.
Senga bo‘lgan mehr-u muhabbatim yuksak,
Qoraqalpoq tilim, madhing ta’rif etsam!

## BU KIMNING TILI?

Bu mening tilim, turk, o‘zbekchasi Turonlar tili
Tog‘larni egirib, erkin yashagan bo‘ronlar tili.

Bu mening tilim – mening hujjatim faxri-konidir,
Boburlar tili, shoirlar tili, devonlar tili.

Qutadg‘u bilik yaratgan Yusuf Xos Hojiblardek
Lug‘otil turk sohibi Mahmud kosh, Shohonlar tili.

Xor bo‘lmagaysiz, izzatin qiling bu tilni ulus,
Negaki bu til Shumerlar tili, Kushonlar tili.

Bizga shon bergan, bizga jon bergan, bizga iftixor
Navoiy so‘zin chiroylantirgan insonlar tili.

Tamaddunlarni qo‘zg‘olontirgan, Yer yuza butun
Hamda Sharq tili, hamda G‘arb tili, Eronlar tili.

Bizga kon bergan, bizga non bergan, bizga borlik shu
To‘maris tili, Xorazm tili, zamonlar tili.

G‘aznalik Mahmud qilmadi xizmat, bizlar uchun bu
Shohnoma ibrat, bu ulus tili, jironlar tili.

Bu Odam tili, bu Otam tili, sevgilim tili,
Behishtdan chiqib, yerlashib qolgan, G‘ilmonlar tili.

Bu kimning tili? Bu mining tilim, eskarib yotgan,
Tarixning tili, Temurning tili, ro‘monlar tili.

Bu tilni bilganlar ko‘rkam yashar, maddohlik qilmas,
Yurib eshiklar, bu til aslida hoqonlar tili.

Iddao bilmang mening so‘zimni, dushmanlik qilmang!
Bu til siyosatda boy, ildizdan Usmonlar tili.

Qojorlar tili, Totorlar tili, Samarqand tili,
Tamuchin tili, xunlar tili, Turkonlar tili.

Xudoning lutfi, Sulaymon tili, Tiyonshon tili,
Boyso‘nqir tili, Boyqaro tili, Shaybonlar tili.

Otilo tili, Sayxunlar tili, Jayxunlar tili,
Gavharshodbegimni “Onajonimiz”, deganlar tili.

Otaturk tili, Jahongir tili, Bahodir tili,
Ulus g‘amini Nodira birla yegonlar tili.

Temur merosin o‘stirgan Shohrux insoniyatini
Cho’qqisigacha, Buxoroni jannat qilganlar tili.

Sokorlar tili, Saljuqlar tili, Boturlar tili.
Boyazid Yeldirimni kezdirgan o‘rmonlar tili.

Yofas avlodi turkdan o‘rganmiz, til o‘zak biza,
Bu Rayhon, Ibn Sinodek mehribonlar tili.

Yasukoy tili, Chig‘atoy tili, To‘rag‘oy tili,
Yosoqlar yasab, devondan o‘tsak, javonlar tili.

Bu Odam tili, bu otam tili, sevgilim tili,
Behishtdan chiqib, yerlashib qolgan, G‘ilmonlar tili.

# MUNDARIJA

She'riyat til ummonida. *I.G'afurov* .......... 3

*Alisher Navoiy*
Turkiy til nazdida .......... 7
«Men turkcha boshlabon rivoyat...» .......... 7
«So'z guharig'a erur oncha sharaf...» .......... 7
«Muhokamat ul-lug'atayn»dan...» .......... 8
*Muhammadrizo Ogahiy*
«Ko'ngul bir bahri zaxxor andadur pokiza gavhar so'z...» .......... 10
*Abdulla Avloniy*
«Ey ona til, aziz qadrdonim...» .......... 11
*Avaz O'tar*
Til .......... 12
*Elbek*
Til .......... 13
*Yoqubxo'ja Mahjuriy*
Turkiy til .......... 14
*Botu*
Navoiy .......... 15
*Mirtemir*
Ona tilim .......... 17
Tilim .......... 18
Ona tilim .......... 19
*Shuhrat*
Ona tilim .......... 20
*Ibroyim Yusupov*
Ona tilimga .......... 21
*Erkin Vohidov*
Ona tilim o'lmaydi .......... 23
O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa .......... 25
Ilza xonim .......... 26

*Oshiq Erkin*
Avaz O‘tar g‘azaliga muxammas....................................28
*Janol Kamol*
O‘zbek tilim ..............................................................29
*Gulchehra Nurullayeva*
Suf ...........................................................................33
*Tursunboy Adashboyev*
Ona tilim ..................................................................34
*Abdulla Oripov*
O‘zbek tilim...............................................................35
Ona tilim ..................................................................36
*Omon Muxtor*
«Men o‘ylayman...» ....................................................37
*Oydin Hojiyeva*
Dardlashuv................................................................38
*Rauf Parfi*
O‘zbek tili ..................................................................39
Ona tilim ..................................................................39
Cho‘lpon ...................................................................41
Yolg‘iz sen uxlaysan ...................................................43
«Men o‘tkinchi, men faqat mehmon...» ..........................43
*Omon Matjon*
«Sukunat tillardir...» ...................................................44
«Shalola» she’riyat klubining qatnashchisiga ...................45
*Abdulla Sher*
Navoiy sog‘inchi ........................................................48
*Farid Usmon*
Tilingni xorlama ........................................................54
*Halima Xudoyberdiyeva*
«Eski o‘zbek tili»ga yozuv............................................55
*Anvar Obidjon*
Ota o‘giti ..................................................................57
*Matnazar Abdulhakim*
Sirtqi saboq...............................................................59
Savdo .......................................................................61
*Kengesboy Karimov*
Turkiy tilim................................................................62

*Omina Tojiboyeva*
Shirinkalom....63
*Shavkat Rahmon*
Battol orzusi....64
Baxt so‘zi....65
Shoirlar xiyobonida....66
*Usmon Azim*
X asr. Saroy shoiri haqida afsona....67
Kuz – Navoiy devoni. Bedor....69
*Yo‘ldosh Eshbek*
«Ijarada yashayotgan yosh...»....70
*Abdusaid Ko‘chimov*
«So‘zni otib o‘ldirolmaysiz...»....71
Har doim yaxshi so‘z axtarib yasha....71
*Sharifa Salimova*
Onajon tilim....73
*Sa’dulla Hakim*
Ona tilim....75
*Shukur Qurbon*
Ona tilim....76
Navoiyni anglash....80
*Xurshid Davron*
Ona tilim....82
Koshg‘ariy....83
«Devonu lug‘otit-turk» ohanglari....84
Ona tili haqida ballada....88
*Mahmud Toir*
Ona tilim....90
*Dilbar Haydarova*
Ona tilim....92
*Jahongir Ismoilov*
Millat timsoli....93
*Umida Abduazimova*
O‘zbek tili....95
O‘zbekcha tush ko‘raman....96
*Hakim Sattoriy*
Ilk so‘z....97

*Muhammad Yusuf*
Ona tilim ........ 98
*Enaxon Siddiqova*
Ona tilim ........ 100
*Asror Mo'min*
Tavallud ........ 102
*Boqiy Mirzo*
Doston tilim ........ 103
*Abdunabi Boyqo'ziyev*
«So'z ham arazlaydi...» ........ 104
«Ona tilim...» ........ 104
*Ziyoviddin Mansur*
Shohona tilim, jonona tilim ........ 105
*Nazar Shukur*
Devonu lug'otit-turk ........ 108
*O'ktam Mirzayor*
Ona tilim ........ 109
*Mirza Kenjabek*
Jahon o'zbeklariga ........ 111
Qora sevinch ........ 113
O'zbek tili ........ 114
*Bahriddin Sadriddinov*
Ona tilim ........ 116
*Zamira Ro'ziyeva*
Ona tilim ........ 117
«Chiroy, sehri maftunkor ona tilim...» ........ 118
*Avliyoxon Eshon*
Ona tilim, onajonim ........ 119
*Ashurali Boymurod*
Ona tilim ........ 121
Tarjimonga ........ 122
*Asqar Mahkam*
Men bitolmagan she'r ........ 123
«Tilim, sayra endi ko'hna usulda...» ........ 124
*Sirojiddin Sayyid*
Kim tilni bilur – elni bilur ........ 125

Til va millat maqomi ........ 126
«Har bir kalla...» ........ 128
*Kavsar Turdiyeva*
«Navoiyning nazmi ila qanot bog‘lagan...» ........ 130
*Munavvara Yusupova*
Har tong ........ 132
*Shoyim Shernazar*
Ona tilim ........ 133
*Zulfiya Mo‘minova*
Ona tilim ........ 134
*A’zam O‘ktam*
Til ........ 136
Onam fotihasi ........ 137
*Odil Ikrom*
Qush tili ........ 138
*Amirqul Karim*
Haq suygan el ........ 140
*Halima Ahmad*
Navoiyni sog‘inib ........ 141
*Abdunabi Hamro*
Ona tilim ........ 143
*Bahrom Ro‘zimuhammad*
So‘z ........ 145
«So‘zlar hazm...» ........ 145
*Jumagul Suvonova*
Ona tilim ........ 146
*Zikrilla Ne’mat*
Aziz ona tilimsan ........ 148
*Eshqobil Shukur*
To‘qqizinchi fevral ........ 151
Koshg‘ariy yodi ........ 152
*Ruqiya G‘oziyeva*
Bu o‘zbek tilimdir ........ 153
*Zebo Mirzo*
Ona tiliga qasida ........ 155
*Salim Ashur*
Ona tilim ........ 159

*Jamoliddin Muslim*
Ozod qushning oʻgiti .................... 161
Oʻzligim – tilim .................... 162
*Nodira Afoqova*
«Koʻzlaring – tutilgan oftobday, sermung...» .................... 163
*Iqbol Mirzo*
Sumlim... .................... 164
Qat-qatingda koʻrinur fe'lim .................... 165
*Sirojiddin Rauf*
Ona tilim .................... 167
*Davron Rajab*
«Iltimos, soʻz aytganda...» .................... 169
*Shahlo Ahrorova*
Ona tilim .................... 171
*Ulugʻbek Hamdam*
Navoiy boʻlmoq kerak .................... 173
*Ja'far Muhammad*
Oʻzbek tilim, davlat tilim .................... 174
*Ikrom Iskandar*
Ona tilim .................... 176
*Muhammad Siddiq*
Onamga xat .................... 177
«Oʻzimdan beruxsat umrimga ega...» .................... 178
*Ma'mura Zohidova*
Men .................... 179
*Alisher Nur*
Ona tilim .................... 181
*Mirzohid Botirov*
Ona tilim – jon tomirim .................... 182
*Umida Ermatova*
Ona tilim .................... 184
*Yulduz Alimova*
Ona tilim .................... 185
*Zuhra Begim*
Oʻzbek tilim.................... 187
*Shodmon Sulaymon*
Ona tilim .................... 188

*Botir Ergashev*
Ona tilim .................................................. 190
*Farog'at Xudoyqulova*
Haqiqatga qo'yilgan qafas... .................................. 191
*Abdulla Urozboyev*
To'tiqush .................................................. 194
*Zuhra Ochilova*
Vatanim – o'zbek tili ......................................... 195
*Nodir Jonuzoq*
So'z ........................................................ 196
*G'ayrat Majid*
Ona tilim .................................................. 237
Da'vat ..................................................... 239
*Tursunoy Yo'ldosheva*
Ona tilim .................................................. 240
*Guljamol Asqarova*
O'zbekiston madhi ............................................ 242
«Men dunyoga taratib ketgum...» ................................. 243
*Shodi Otamurod*
Munosabat .................................................. 245
Ona tilimga ................................................ 246
*Shoira Shams*
Turkiy tilim ................................................ 248
*Faxriddin Hayit*
Ona tilimga ................................................ 250
Kakliklar tili .............................................. 251
Halovat bor Navoiyda .......................................... 251
*Shodmonqul Salom*
Ehtirom .................................................... 253
*Adiba Umirova*
Buyuk Sharq tili ............................................. 255
*G'ofir Hamro*
Ona tilim .................................................. 258
*Munira Sulton*
O'z tilingni asra ............................................. 259
*Nigora Jumayeva*
Tildir millatning qomusi ....................................... 260

*Ortiq Ali Behutov*
Til nomusi ........ 262
*Jo'rabek Ramazon*
Ona tilim ........ 263
*Nosirjon Jo'rayev*
XX asr. Shavkat Rahmon ........ 264
*Muyassarxon Ergasheva*
«Qandoq go'zal, subhidamda turnalarning...» ........ 265
*Fozil Farhod*
O'zbekcha kuylang ........ 266
*Rustam Mirvohid*
Og'riq ........ 267
*Obidxon Mamadaliyev*
Tilimga ........ 269
Ona tilim! ........ 270
*Shavkat Odiljon*
O'zbek tilim jon-u dilim ........ 271
*Asliddin Jarkinov*
Ona tilim ........ 272
*Dadaxon Muhammadiyev*
Tirik tosh ........ 274
*Husniddin Hayit*
«Ko'ngil tilining izohli lug'ati»dan ........ 275
*Orifjon Odiljon o'g'li*
Taqdirimga qo'yilgan dastxat ........ 277
*Mansur Jumayev*
Tosh haqida ertak ........ 279
*Maftuna Rejabboyeva*
Latif til ........ 281
*Islomjon Qo'chqorov*
Ona tilim ........ 282
*Shohrux Najot*
Ikki daydi ........ 283
*Jontemir*
O'zlik ........ 285
Koshg'ariyga maktub ........ 286

*Shukrillo Sheraliyev*
Ona tilim ........................................................ 289
*Xurshid Abdurashid*
Uyg'urlarim ........................................................ 290
Ona tilim ........................................................ 291
*Mehrinoz Abbosova*
Oltinsoch ........................................................ 293
«Oq Vatan, oppoq Vatan...» ........................................ 294
*Shohsanam Nishonova*
«Qush bolasin qush tilida erkalasin...» ........................... 296
*Madina Norchayeva*
Otam dalalarga so'z ekkan edi ..................................... 297
*Nozima Habibullayeva*
«Yaxshiyam siz borsiz...» ........................................ 299
*Nigora Muhammad qizi*
O'zbekchada yozaylik ............................................... 300
*Navruza Jasurova*
Mas'ul so'z ........................................................ 301
*Doston Rahmat*
«O, turkiy so'z!» ................................................. 302
*Mushtariybegim Sayfuddinova*
Koshg'ariy bobo .................................................... 303
*Zohida Malikova*
Ona tilim ........................................................ 304
*Shahriyor Shavkat*
Teranlik ........................................................ 305
*Quddus Asad*
«Ona tilim, afv etgin meni...» .................................... 307
*Muhammad G'aniy*
Ona tilim... ........................................................ 309
*Gulmira Abdiraimova*
Asriy qush ........................................................ 310
*Feruz Ne'matullayev*
Mangu tilim ........................................................ 312
*Oqil Abdubarnoyev*
«Kezdim Toshkent ko'chalarini...» ................................. 313

*Shahzod Shokirov*
O‘zbek tilim ........................................................ 315
*Lobar To‘rayeva*
«Tong saharda bulbulginam xonishida...» ....................... 316
*Gulzoda O‘rinboyeva*
Ona tilim ........................................................ 318
*Ibrohimjon G‘afforov*
Ona tilim ........................................................ 319
*O‘lmasoy Erkaboyeva*
Tilim ........................................................ 320
*Gulnora Ahmadova*
Ta jen shen ........................................................ 322
*Iroda Xolbekova*
O‘zbek tilim ........................................................ 324
*Xalila Do‘letnazarov*
Ulli ziban ........................................................ 326
Sөzlerdiң Təg‘diri ........................................................ 329
Sөzler-tuo‘im, urnaim ........................................................ 331
*Nibiyra Tireshova*
Ana tilim ........................................................ 334
Ana tili tolg‘anislari ........................................................ 335
*Dilrabo Norqulova*
Ona tilim ........................................................ 338
*Lobar Yuldashova*
Tilim ........................................................ 340
*Jasur Isroilov*
Tilim ........................................................ 343
*Ma’mura Muhammad*
Ona tilim! ........................................................ 345
*Aktam Jo‘rayev*
Ona tilim ........................................................ 347
*Fotima Rustamova*
Ona tilim ........................................................ 349
*Xurshida Tohirova*
«Qadrim mening qayda qoldi, qadrim, ona...» ................ 351
*Bahodir Anorov*
Ona tilim ........................................................ 352

*Nurjahonbegim Usmonova*
«Sevmoqni sevilmoqni...» ........................................ 354
*Kimsan Muslim*
Ona tilim ........................................ 355
*Dilshod Nur*
«Maktab chog‘i to‘g‘ri yozib yurgandingiz...» ........................................ 356
*Ilhomjon Narzullayev*
Millat tili ........................................ 358
*Samad Muhammad Damin*
Kechib bo‘lmas aslo, Vatandan, tildan ........................................ 360
*O‘ktamoy Xoldorova*
«Ro‘yolar bir kuni rostga do‘nadi...» ........................................ 362
*Farzona Ro‘ziboyeva*
«Juda ham qiziq-da, bu tush degani...» ........................................ 363
*Sharifa Vahobova*
Ona tilim ........................................ 365
*Bahodir Otash*
«Tilim, tilim, ona tilim...» ........................................ 367
*Allayar Darmenov*
Og‘ajonimning onajon tili ........................................ 368
*Shoira Davletova*
«Jahon ichra tillar aro o‘z o‘rni bor...» ........................................ 369
*Hoshim Hamdam Faryobiy*
Bu kimning tili? ........................................ 371

*Adabiy-badiiy nashr*

# ONA TILIM – MANGU MAKONIM

Muharrir
Feruza QUVONOVA

Musahhih
Iroda UMAROVA

Badiiy muharrir
Dilfuza SALIXODJAYEVA

Kompyuterda sahifalovchi
Dildora JO'RABEKOVA

Texnik muharrir
Surayyo AHMEDOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.
Bosishga 14.10.2022-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1\32.
Bosma tobog'i 12,0. Shartli bosma tobog'i 20,16.
Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozi.
Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 174.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi
«Yoshlar matbuoti» MChJda chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

***Murojaat uchun telefonlar:***
Nashr bo'limi – (71) 230-00-50;
Savdo va Marketing bo'limi – (90) 904-61-06
(98) 128-78-43; (99) 891-03-24;
www.book.uz;@bookuzbekistan